

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo`lyozma huquqida

UDK

**Ro`ziyeva Sadoqat Hasanovna
OTLI BIRIKMALAR VA POETIK NUTQ**

5A120102-Lingvistika (o`zbek tili)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari nomzodi,

dotsent Nazarova S.A.

MUNDARIJA

KIRISH. Ishning umumiy tavsifi.....	3
I BOB. SO`Z BIRIKMALARINING LISON-NUTQ FARQLANISHIDAGI TAHLILI.....	7
1.1. So`z birikmalarining tasnifi.....	10
1.2. Otli birikmalar ismli birikmalarning bir turi sifatida.....	21
1.3. Otli birikmalarning lisoniy sintaktik xususiyatlari.....	25
II BOB. POETIK NUTQNING ILMIY TALQINI.....	37
2.1. Badiiy nutq adabiy tilning voqelanish turi sifatida.....	39
2.2. Poetik nutq vositalari.....	45
III BOB. HOKIM A`ZOSI OTLI SO`Z BIRIKMALARINING POETIK-SINTAKTIK XUSUSIYATLARI.....	60
3.1. Otli birikmalarning poetik nutqdagi ko`rinishlari.....	61
3.2. Otli birikmalar – poetik nutq vositasi.....	64
UMUMIY XULOSALAR.....	77
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	80

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning tadqiq darajasi. O`zbek tilshunosligida XX asrning boshidan hozirgi davrga qadar so`z birikmasi formal grammatik, struktural va formal-funksional (substansial) tahlil usullari asosida o`rganilgan. Shuningdek, fanda so`z birikmasi sintaksisida formal, struktural, formal-funksional nazariy asoslar shakllangan. Hozirgi kunda ham bu sintaktik birlikning lison-nutq farqlanishidagi talqini davom ettirilmoqda. Shunga qaramay, so`z birikmalarining lisoniy qurilishini tizim qonunlari asosida tadqiq etish va ularning nutqiy voqelanish imkoniyatlarini turli aspektlarda tahlil qilish kabi muammolar mavjud. Jumladan, ushbu dissertatsiyada so`z birikmalari tasnifida alohida o`rin egallaydigan hokim a`zosi ot leksemalardan iborat birikmalarning poetik nutqda voqelanish imkoniyatlarini o`rganish muammosi kun tartibiga qo`yilgan.

Mavzuning dolzarbligi. O`zbek substansial sintaksisida so`z birikmalarining formal-funksional tadqiqi muammolari to`la-to`kis hal qilingan, deb bo`lmaydi. Ayniqsa, o`tli birikmalarning lisoniy xususiyatlari va nutqiy voqelanish imkoniyatlari to`g`risida ma`lumotlar ilmiy-nazariy manbalar va o`quv adabiyotlarida yetarli emas. Shu bilan birga, so`z birikmalarining poetik-sintaktik tabiatini o`rganish muammosi hanuz o`z yechimlarini topmagan. So`z birikmalarining poetik-sintaktik tabiatini o`rganish ehtiyoji o`tli birikmalarning lisoniy sintaktik va nutqiy voqelanish xususiyatlarini maxsus tadqiq etishni taqozo etadi. Ayni paytda, o`tli birikmalarining nutqiy qo`llanish va badiiy nutqda voqelanish imkoniyatlarini o`rganish fanda substansial sintaktik, stilistik va lingvopoetik jihatlardan dolzarb hisoblanadi.

Ishning tadqiq manbayi va predmeti. Hokim a`zosi ot bilan ifodalangan so`z birikmalari ishning tadqiq manbayi hisoblanadi. O`zbek tilida o`tli birikmalarning poetik nutqda voqelanishini kuzatish maqsadida Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon va Eshqobil Shukurning she`riy asarlari tanlab olindi. O`zbek tilshunosligida hokim a`zosi o`tli birikmalarning formal-grammatik, struktural, formal-funksional, lingvopoetik, stilistik nuqtayi nazarlardan o`rganilishiga doir

ilmiy qarashlar hamda ular aks etgan ilmiy tadqiqotlar va o`quv adabiyotlari ishning nazariy asosini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. O`zbek tilida otli birikmalarning poetik nutqda voqelanishi va bu so`z birikmalarining poetik-sintaktik imkoniyatlarini tahlil qilish ushbu tadqiqotning maqsadidir. Shunga muvofiq, ishda

- otli birikmalar so`z birikmalarining hokim a`zosi ot turkumiga tegishli turi ekanligini asoslash;

- otli birikmalarga tegishli $[I\sim O]$ qurilishli, $[I^{q.k.}\sim I^{e.k.}]$ qurilishli va $[O^{b.k.}\sim O^{e.k.}]$ qurilishli so`z birikmalari guruhlarini ajratish;

- $[I\sim O]$ qurilishli, $[I^{q.k.}\sim I^{e.k.}]$ qurilishli va $[O^{b.k.}\sim O^{e.k.}]$ qurilishli so`z birikmalarining sintaktik va semantik xususiyatlarini tavsiflash;

- poetik nutq va adabiy tilning uslubiy variantlarini qiyoslash;

- otli birikmalarning poetik nutqda voqelanishiga doir faktik material yig`ish;

- otli birikmalarning poetik-sintaktik imkoniyatlarini aniqlash **vazifalari** amalga oshiriladi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Ushbu tadqiqot o`zbek tilshunosligida so`z birikmalarining substansial tadqiqi muammolari bilan uzviy bog`liq quyidagi asosiy masalalarni qamrab oladi:

- o`zbek tilida ot leksemalarining ismlar bilan birikish tabiatida mavjud lisoniy sintaktik imkoniyatlarini tahlil qilish;

- otli birikmalar so`z birikmalari tasnifida hokim a`zoning leksik-morfologik belgisi asosida ajratilishi;

- otli birikmalar substansial talqinda [belgi-predmet] ma`noli so`z birikmalarini hosil qiluvchi $[I\sim O]=SB$, [qaratuvchi-qaralmish] ma`noli so`z birikmalarini yuzaga keltiruvchi $[I^{q.k.}\sim I^{e.k.}]=SB$ va [tur-jins] ma`noli so`z birikmalarini hosil qiluvchi $[O^{b.k.}\sim O^{e.k.}]=SB$ lisoniy sintaktik qoliplarining mahsuli sifatida baholanishi;

- hokim a`zosi otli birikmalarning lisoniy sintaktik qurilishiga oid ilmiy dalillar so`z birikmalari substansial talqini nazariy asoslariga muvofiqligi;

- [I~O]=SB, [I^{q.k.}~I^{e.k.}]=SB, [O^{b.k.}~O^{e.k.}]=SB lisoniy sintaktik qoliplarining poetik nutqda voqelanish imkoniyatlarini aniqlash;
- otli birikmalarning poetik-sintaktik xususiyatlarini tahlil qilish;
- otli birikmalarning poetik nutq vositasi sifatidagi tahlili;
- soʻz birikmasi sintaksisida otli birikmalarni tizim sifatida tadqiq etish.

Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiq usullari. Oʻzbek substansial tilshunosligida til birligi mohiyatini lison-nutq qarama-qarshiligida izchil farqlashga imkon beruvchi dialektik mantiq va uning umumiy-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik kabi kategoriyalari ishimizning tadqiq usullari va metodologik asosini tashkil etadi. Hokim aʼzosi otli birikmalarning struktural, formal-funksional va uslubiy nuqtayi nazarlardan tahlilida mazkur yoʻnalishlarning tadqiq usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Soʻz birikmasi sintaksisining substansial tadqiqi muammolari bilan bevosita aloqador otli birikmalarning lisoniy qurilishi va nutqiy imkoniyatlarini oʻrganish muammosining yechimlarini berishi ushbu tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyat kasb etishini koʻrsatadi. Shuningdek, mazkur ishning natijalari otli birikmalarning lingvopoetik va uslubiy tadqiqi masalalarini oʻrganishda nazariy ahamiyatga ega. Oliy taʼlimda “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” fani tarkibidagi “Sintaksis” boʻlimida soʻz birikmalarining lisoniy sintaktik qurilishi va nutqiy voqelanish imkoniyatlari masalalarini oʻrganishda va “Lingvopoetika”da poetik sintaksis muammolarini yechishda dissertatsiyaning qoʻshimcha manba sifatida xizmat qilishi uning amaliy ahamiyatga molikligidan dalolat beradi. Shuningdek, oʻzbek substansial tilshunosligi, sintaktik uslubiyat, matn lingvistikasida mazkur muammo bilan bogʻliq masalalarni oʻrganishda tadqiqot natijalaridan foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Oʻzbek tilshunosligida soʻz birikmalarining substansial tadqiqi muammolariga aloqador otli birikmalarning lisoniy sintaktik qurilish xususiyatlari va poetik-sintaktik imkoniyatlarini oʻrganish muammosi tahliliga bagʻishlangan ushbu dissertatsiyaning **ilmiy yangiligi:**

1) o`zbek tilida ot leksemalarining ismlar bilan birikuvida yuzaga chiqadigan lisoniy sintaktik imkoniyatlarning aniqlanishida;

2) hokim a`zosi otli birikmalar substansial nuqtayi nazardan [belgi-predmet] ma`noli so`z birikmalarini hosil qiluvchi $[I\sim O]=SB$, [qaratuvchi-qaralmish] ma`noli so`z birikmalarini yuzaga keltiruvchi $[I^{q.k.}\sim I^{e.k.}]=SB$ va [tur-jins] ma`noli so`z birikmalarini hosil qiluvchi $[O^{b.k.}\sim O^{e.k.}]=SB$ lisoniy sintaktik qoliplari hosilalari sifatida baholanishida;

3) otli birikmalarning lisoniy sintaktik qurilishi $[I\sim O]=SB$, $[I^{q.k.}\sim I^{e.k.}]=SB$ va $[O^{b.k.}\sim O^{e.k.}]=SB$ lisoniy sintaktik qoliplarida mujassamlashganligi to`g`risidagi tahlil natijalari substansial sintaksis nazariyasini mustahkamlashida;

4) $[I\sim O]=SB$, $[I^{q.k.}\sim I^{e.k.}]=SB$ va $[O^{b.k.}\sim O^{e.k.}]=SB$ lisoniy sintaktik qoliplarining poetik nutqda voqelanishi muammosining ilk marta maxsus tadqiq etilishi va bu sintaktik birliklar yuzaga chiqaruvchi poetik imkoniyatlar darajasining belgilanishida;

5) hokim a`zosi otli birikmalarning lingvopoetik tahlilida, ya`ni otli birikmalarga xos poetik-sintaktik imkoniyatlarning aniqlanishida;

6) o`zbek tili so`z birikmasi sintaksisida otli birikmalarning tizim sifatida tadqiq etilishida o`z ifodasini topadi.

Tadqiqotning tarkibi. Dissertatsiya ishning umumiy tavsifi, uch bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati kabi qismlardan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 84 sahifadan iborat.

I BOB. SO`Z BIRIKMALARINING LISON-NUTQ FARQLANISHIDAGI TAHLILI

Yurtboshimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch” asarida ona tilimiz va til madaniyati to`g`risida kuyunchaklik bilan aytilgan, ona tilining inson hayotidagi o`rni va ahamiyati ko`rsatilgan quyidagi fikrlar e`tiborga molik: “... fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o`ta muhim sohalarda ona tilimizning qo`llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug`atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so`z bilan aytganda, o`zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o`zlikni, Vatan tuyg`usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz” [3,86-87].

O`zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish maqsadi tilshunoslikda hozirgi kunga qadar shakllangan ilmiy yo`nalishlarning bosh maqsadi hisoblanadi. Ona tilimizning boy lisoniy leksik-semantik, morfologik va sintaktik imkoniyatlarini o`rganish hamda tilimizning milliy grammatik xususiyatlarini aniqlash vazifasini fanning yuksak – nazariy umumlashmalar shakllanuvchi idrok bosqichida amalga oshirgan va lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishini tahlil etishda ilmiy izlanishlarni davom ettirayotgan substansial yo`nalish Mustaqillik davrida o`zbek substansial tilshunosligi sifatida ommalashib bormoqda. Zotan, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga tatbiqi munosabati bilan bugun ta’limning turli bo`g`inlari Davlat ta’lim standartlari va dasturlarida o`z aksini topgan, G`arb tilshunosligiga o`zi ishlab chiqqan yangi ilmiy tushunchalarni qabul qildirayotgan o`zbek substansial tilshunosligi fanning sovet davri taraqqiyoti yutuqlariga tanqidiy yondashib, uni sovetizm ziddimilliyliги kamchiliklaridan – ta’lim yagonaligi bahonasida milliy tillar qurilishi ilmiy talqinini bir xillashtirish (milliy va rus tillari qurilishi ilmiy talkinlarini mumkin qadar o`zaro yaqinlashtirish) milliy tilning milliy ong, tafakkur va mafkurani shakllantirishdagi ahamiyatiga e`tibor bermaslik va hatto, uni inkor etish kabilardan tozalab, til qurilishi ilmiy talqini va til ta’limi

sohasida bozor iqtisodiyoti sharoitida erishilgan zamonaviy yutuqlar asosida tilshunoslikda va til ta'limida yangi ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi" [47,35]. Professor Hamid Ne'matovning ta'biri bilan aytganda, bu yo'nalish "mohiyatan sovet formal tilshunosligi doirasida shakllangan va o'zbek formal tilshunosligi bergan lingvistik talqinlarga tayanuvchi, lekin oldida tamoman yangi maqsad va vazifalarni qo'ygan yangi ilmiy maktabni" [47,35] dunyoga keltirdi.

O'zbek tili qurilishining sistemaviy tadqiqi va dialektik mantiq gnoseologik asoslarining metodologik birikuvi, ya'ni kesishuvi natijasida shakllangan formal-funksional tahlil kurtaklari fanimizda XX asrning 60- yillarida shakllana boshladi. O'zbek tilshunosligida yangicha tahlil va talqin usullarini izlash tilimiz tizimini yevropacha tahlil usullari bilan o'rganishning A.Fitrat, E.Polivanov, Munavvar Qori, Qayum Ramazon kabi fidoyilar boshlab bergan bosqichining F.Abdullayev, G'.Abdurahmonov, M.Asqarova, A.Kononov, F.Kamolov, Z.Ma'rufov, R.Sayfullayev, U.Tursunov, S.Usmonov, E.Fozilov, Sh.Shoabdurahmonov, Sh.Shukurov, A.G'ulomov va ularning yuzlab shogirdlari hamda izdoshlari tadqiqotlarida yuqori cho'qqilarga ko'tarilishi va o'zining mantiqiy nihoyasiga yetishi bilan bog'liqdir [36,3]. Shuning uchun o'tgan asrning 60-70-yillarida tilshunosligimizda yangicha tahlil va tadqiq omillariga qiziqish avj oldi. Ma'lumki, sistematik tahlil omillarining ilk tushunchalarini olib kirish va ularning ommalashishiga A.Abduazizov, Sh.Rahmatullayev, R.Yunusov, I.Qo'chqortoyev kabi olimlar o'z munosib hissalarini qo'shdilar.

Keyinchalik sistem-struktur tilshunoslikning turli maktab va yo'nalishlari tahlil usullarida o'zbek tili qurilishini tadqiq etish ommalasha bordi. Jumladan, o'zbek tilining sistem tahlili A.Berdialiyev, O.Bozorov, N.Mahmudov, H.Ne'matov, A.Nurmonov, R.Rasulov, R.Sayfullayeva kabi yirik tilshunoslar hamda ularning izdoshlari M.Abuzalova, Sh.Akramov, B.Mengliyev, I.Madrahimov, D.Nabiyeva, G.Ne'matova, L.Ne'matova, Sh.Orifjonova, L.Raupova, M.Saidova, Sh.Shahobiddinova, Z.Yunusova, B.Qilichev, M.Qurbonovalarning ishlarida ko'zga tashlanadi. Bunday tadqiqotlar ichida rus turkiyshunos olimi S.N.Ivanov boshlab bergan formal-funksional tahlil usuli

so`nggi yillarda alohida ilmiy yo`nalish sifatida shakllanganligini alohida qayd etish lozim.

Formal-funksional tahlil yo`nalishi tadqiq usullari bilan ish ko`rgan, hozirda o`zbek substansial tilshunosligi nomi bilan ommalashayotgan lisoniy ta`limotda o`zbek tili barcha sath birliklarining lison-nutq qarama-qarshiligida umumiy lisoniy mohiyati kashf etilib, til tizimidagi o`rni belgilangan va o`zbek tili substansial talqini nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Jumladan, tuzilishiga ko`ra sodda so`z birikmalarining lisoniy-sintaktik qurilish qolip (LSQ)lari, so`z birikmalarida so`zlarning birikish imkoniyatlari va usullari lison-nutq farqlanishi asosida o`rganilgan [17;47;28;58;36]. Hozirgi kunda ta`limning oliy, o`rta maxsus, umumiy o`rta bo`g`inlari o`quv adabiyotlarida tuzilishiga ko`ra sodda so`z birikmalarining formal-funksional tahlili natijasida qo`lga kiritilgan ilmiy yutuqlar o`z aksini topmoqda.

Modomiki, o`zbek substansial tilshunosligi oldida turgan barcha ilmiy muammolar hal qilingan va substansial tadqiq natijalari amaliyotda tatbiq etilayotgan ekan, o`zbek tilining substansial talqini nihoyasiga yetgan degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Tilshunos M.Qurbonova sintaktik sathning substansial talqinida o`z yechimlarini kutayotgan muammolarni nazarda tutib: “Qo`shma gap tizimining formal-funksional tahlili R.Sayfullayevaning doktorlik ishida umumlashtirilgan bo`lsa, sodda gap tizimi tadqiqi esa M.Abuzalova, Sh.Akramov ishlarida ilgari surilgan gapning eng kichik qolipini ajratish va shu yo`nalishda to`ldiruvchi va holning mavqeyini belgilash bilan cheklanib qolmoqda”,-deb yozadi [36,3]. Bu mulohaza o`zbek tilining substansial talqini nihoyasiga yetganligi to`g`risida qat`iy xulosa chiqarish noo`rinligini anglatadi. Chunki so`z birikmalarining substansial tadqiqida so`z birikmalarining nutqiy voqelanish imkoniyatlari va shu bilan bilan bevosita aloqador mazkur birliklarning poetik sintaktik tabiatini o`rganish o`zbek tili so`z birikmalari sintaksisida hozircha o`z yechimlarini topgan emas. Demak, o`zbek tilshunosligida so`z birikmalarining nutqiy voqelanish imkoniyatlarini aniqlash muammosi maxsus tadqiqotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Shunday ekan, ushbu tadqiqotda so`z birikmasining

muayyan ko`rinishi hisoblangan otli birikmalarning badiiy nutqda voqelanishini va bu birikmalarga xos poetik sintaktik imkoniyatlarni alohida o`rganish orqali mazkur muammoni yechish mumkin. Tabiiyki, tadqiqotning birinchi bobida so`z birikmalari tasnifi va undaotli birikmalarning alohida ajratilishi, otli birikmalarning lisoniy sintaktik qurilishi va otli birikmalarni hosil qiluvchi lisoniy sintaktik qoliplarni aniqlash kabi masalalar tahlil qilinadi. Bu masalalar tahlili substansial sintaksis nazariyasi asosida amalga oshiriladi.

1.1. So`z birikmalarining tasnifi

So`z birikmasi ilmiy atama sifatida lingvistik asarlarda formal grammatika shakllanishi bilan paydo bo`lgan. Muayyan shakldagi so`zning boshqa so`z bilan birikishi oqibatida ma`lum munosabat ifodalanishi, nutq birliklari o`z navbatida tugallanmagan nutq unsurlaridan tarkib topishi kabi hodisalarni kuzatish natijasida so`z birikmasi aniqlangan. Formal grammatika shakllangunga qadar so`zning shakliy xususiyatlari, muayyan shakliy butunliklarga qaraganda so`zning mazmuniga, so`z ma`nolari orasidagi munosabatga ko`proq e`tibor berildi. So`zlarning o`zaro bog`lanishi ularning ma`no xususiyatlari natijasi sifatida talqin etgan mantiqiy grammatika ma`lum shaklga xos ma`nolar vazifasini inobatga olmadi [19,6;43]. Ikki so`zning ma`lum shakl va qolip asosida birikishi esa masalaning ikkinchi tomoni bo`lib qolaverdi.

Formal grammatika mantiqiy grammatikadan farqli o`laroq, sintaktik hodisalar substansial asosini subyekt, obyekt, predmetning ma`no kategoriyalarida emas, balki nutq hosil qiluvchi so`zlarning morfologik xususiyatlarida ko`rdi. Shu tufayli so`zlarning birikishi ularning morfologik xususiyatlaridan kelib chiqishini, nutqning kichik birligi so`z birikmasi ekanligini ma`lum qildi [5;7;16;19;31;34; 39; 41].

So`z birikmasi sintaksisi rus tilshunoslari – A.X.Vostokov, A.A.Potebnya, M.N.Peterson, F.F.Fortunatov, A.M.Peshkovskiy, A.A.Shaxmatov, V.V.Vinogradov, V.P.Suxotin, N.K.Prokopovich, turkiyshunoslari – A.N.Kononov, N.A.Baskakov, S.N.Ivanov, shu bilan birga, o`zbek va boshqa turkiy tillarni tadqiq etgan olimlar – M.B.Balakayev, M.Z.Zakiyev, E.I.Ubryatova, A.A.Koklyanova,

Y.S.Seidov, A.G`ulomov, F.Abdullayev, X.Komilova, M.Asqarova, A.Abdullayev, A.Safoyev, F.Ibrohimova, X.Xoliyorov, I.Rasulov, M.Sharipovlar tomonidan o`rganilgan [19,7;55]. Bu olimlarning ishlarida so`z birikmasi nutqiy birlik hisoblanishi, nutqda mustaqil qo`llana olmasligi, ikki yoki undan ortiq so`zdan tashkil topishi, muayyan usullar asosida hosil bo`lishi, tuzilishi, shakl va ma`no munosabatlari alohida tadqiq etilgan. Shuningdek, so`z birikmasi fikr ifodalashning eng muhim vositasi – gapning “xom ashyosi” ekanligi ta`kidlangan [39;34].

So`z birikmasi nutqda alohida yuzaga chiqolmasligi tabiiydir. Chunki predikativlik, zamon, shaxs-son, harakat bajaruvchisi, modallik singari xususiyatlar gapga xosdir. Bu esa uzoq vaqt so`z birikmasining gap ichida olib qaralishiga sabab bo`ldi. Shuning uchun sintaksisning asosiy vazifasi so`zlovchi va tinglovchi orasidagi nutqni, aloqa-aralashuv vositasi – gap, uning qurilishi, tuzilishi, tarkibiy qismlarini tadqiq etish deb belgilandi. O`z navbatida, gapning sintaktik butunlik sifatida birdan ortiq so`zlar bog`lamasidan tashkil topishi shu so`zlarning bog`lanish xususiyatlarini o`rganishni taqozo etardi.

So`zlarning har qanday birikmasi esa so`z birikmasi tushunchasini tashkil etmaydi. Negaki, so`z birikmasi ikki yoki undan ortiq lug`aviy birliklarning mazmunan munosabatga kirishuvi va morfologik jihatdan muvofiqlashuvidan iborat sintaktik qurilmadir. Bu sintaktik qurilma atash vazifasi bilan so`zga yaqin turadi. So`zga xos borliqdagi narsa, hodisa, harakat, belgini nomlash va tushuncha ifodalash xususiyati ayni nutqiy jarayonda so`z birikmasi ko`rinishlarida ham yuzaga chiqishi mumkin. Faqat so`z birikmasi deganda, lug`aviy birlik sanalgan frazeologizmlar, shu kabi ikki yoki undan ortiq mustaqil so`zlardan kelib chiqqan yangi lug`aviy birlik – qo`shma so`zlar, mustaqil va yordamchi so`zlar birikmasi, tenglanish munosabatidagi har qanday so`zlar hamda subyekt va predikat munosabati keng ma`nodagina tushunilishi mumkin. Biroq bunda so`z birikmasi ilmiy atama sifatida o`z qimmatini yo`qotgan bo`ladi. So`z birikmasi borliqdagi barcha – narsa-hodisa, mavjudot orasidagi turli munosabatlar (obyekt va harakat, subyekt va obyekt, belgi va harakat, belgi va obyekt, belgi va subyekt)ni

soʻzlarning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarida namoyon etadi. “Real voqelikdagi hodisalar orasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi gap tarkibidagi eng kichik grammatik va mazmun butunligi soʻz birikmasi ekanligi” [31;8;9;12;5;7] soʻz birikmasi haqidagi tasavvurga birmuncha aniqlik kiritdi.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshiga qadar formal-grammatik tahlil asosida yaratilgan darsliklar va ilmiy grammatikamizda akademik V.V.Vinogradovning “soʻz birikmasi predmet, harakat (v.h.)ni ifodalash qobiliyatiga ega boʻlgan, yagona murakkab maʼnolarni anglatadigan va mazmunan bir butun hisoblangan ikki mustaqil soʻzning birikuvidir” [31,10] degan taʼrifiga asoslanildi. V.V.Vinogradovning taʼrifida soʻz birikmasi mohiyati ochilmagan. Ayni paytda, soʻz birikmasining hosil boʻlish usullari anglashilmaydi, soʻz birikmasi komponentlariaro munosabat ham oʻz aksini topmagan. Holbuki, soʻz birikmasi nutqda soʻzning maʼnolarini kengaytiruvchi va boshqa soʻzlar bilan birikish imkoniyatlarini koʻrsatuvchi lisoniy qolip asosida yuzaga keladi. Gap tarkibida vazifasi jihatidan soʻzshakllarga, gapdan tashqarida esa soʻzga teng boʻladi. Aytish mumkinki, soʻz birikmasi soʻzlarning maʼno talabi, muayyan shakliy muvofiqlashuvi negizidagi munosabatidan hosil boʻladi va tarkibidagi qismlar – soʻzshakllar tashqi tomondan sintaktik qurilma koʻrinishida boʻladi.

Soʻz birikmasi atash xususiyatiga koʻra soʻzga yaqin turadi, soʻz umumlashgan, soʻz birikmasi esa bir oz toraygan, yaʼni xususiy maʼnoni ifodalaydi. Chunonchi, soʻz birikmasi qismlaridan biri ikkinchisining belgi, harakat va shu kabi xususiyatini aniqlashtiradi. Soʻz birikmasining atash vazifasi uni tilning lugʻaviy birligiga tenglashtiradi, bu jihatdan soʻz birikmasi nutqiy atov birligi sifatida baholanadi [31;19;22;18;28].

Har bir soʻz maʼlum tushuncha bilan bogʻlangan boʻladi va tilda oʻsha tushunchani reallashtirish uchun xizmat qiladi. Soʻz orqali ifodalangan tushuncha soʻzning real maʼnosini tashkil etadi. Soʻzning nominativ funksiyasi deganda soʻz orqali biror predmet, voqea, hodisa, holat va shu kabilarning atalishi tushuniladi [19;28;25;31;22;21;26;38]. Soʻz birikmalari ham bu jihatdan soʻzlarga oʻxshaydi, chunki ular ham maʼlum bir maʼnoni ifodalaydi. Shunisi muhimki, soʻz va soʻz

birikmalarida ana shunday xususiyat bo'lishiga qaramay, ularni batamom bir-biriga tenglashtirib bo'lmaydi. So'z hamma vaqt bir tushuncha bilan bog'langani holda tilda doim tayyor holatda mavjud bo'ladi. Biroq so'z birikmalari bunday xususiyatga ega emas, ular tilda tayyor holda yashamaydi, demak, hamma vaqt ma'lum bir tushuncha bilan bog'langan bo'lmaydi. Balki nutq jarayonida ma'lum nutqiy ehtiyoj tufayli, fikr ifodalash talabiga ko'ra yuzaga keladi. Demak, so'z birikmalari tilning nominativ birliklari sirasida so'zlar kabi o'z o'rniga ega bo'lgan nutqiy atov birliklaridir.

So'z birikmalari til tizimida ma'lum bir qurilish qolipi(modeli)ning nutqiy voqelanishi natijasida hosil bo'ladi. Qizig'i shundaki, nutqda turli-tuman ma'noviy munosabatlarni cheklanmagan miqdorda ifodalaydigan so'z birikmalarining lisoniy-sintaktik qurilishi masalasi formal grammatikaning e'tiboridan chetda qoldi. Formal grammatika so'z birikmalarining faqat bevosita kuzatishda berilgan xususiyatlarini o'rganish bilan cheklandi. Natijada, so'z birikmalarining nutqiy o'zgaruvchan, tasodifiy, xususiy belgilari lisoniy umumiy, o'zgarmas, zaruriy belgilaridan ajratilgan holda tavsiflandi. Jumladan, so'z birikmalarining tasnifi masalasi ham shunday bir yoqlama ilmiy qarashlar ta'sirida tahlil qilingan.

So'z birikmalari tadqiqiga oid ma'lumotlarni ko'zdan kechirganda, lingvistik adabiyotlarda shunday tasniflarga duch kelamiz:

1. So'z birikmalarida hokim a'zo lug'aviy asoslarining muayyan so'z turkumlari bilan ifodalanishiga ko'ra tasnifi.
2. So'z birikmalari tarkibida tobe a'zoning sintaktik vazifasiga ko'ra tasnifi.
3. So'z birikmalarining tuzilishiga ko'ra tasnifi.
4. So'z birikmalarida so'zlarning tobelanish usullari asosidagi tasnifi.

Bunday tasniflash so'z birikmalarining formal-grammatik tadqiqi natijasida shakllangan bo'lib, hodisaning tashqi, o'zgaruvchan, kuzatishda berilgan xususiyatlari asosida yuzaga kelgan. Jumladan, hokim a'zoning muayyan so'z turkumiga mansubligi (belgisi) asosida so'z birikmalarining otli birikmalar, fe'lli birikmalar, ravishli birikmalar kabi turlari, chunonchi:

- 1) otli birikmalar;

- 2) fe'lli birikmalar;
- 3) ravishli birikmalar [39,27];

hamda soʻz birikmalari komponentlarining grammatik tabiatiga koʻra tasnifida, yaʼni:

- 4) modal soʻzli birikmalar;
- 5) sifatli birikmalar tarzida ajratilgan [16,166].

Biroq A.Gʻulomov va M.Asqarova soʻz birikmalari tarkibidagi hokim komponentning qaysi soʻz turkumiga tegishliligiga qarab, uch xil birikmani, jumladan, otli birikma, fe'lli va ravishli birikmalarni farqlashgan [39,27]. Chunonchi, hokim vaziyatda sifat voqelashgan birikmalarni “ot+ravish” birikuviga kiritishgan. Mualliflar “*ravishli birikma*” deb baholagan “*ovozdan tez*” va “*oʻqdan tez*” soʻz birikmalarida “*tez*” sifati ravish turkumiga tegishli soʻz sifatida talqin etilganligi bois, aslida, sifatli birikmalar hisoblangan “ravishli birikma” deb xulosalangan. Demak, bu tasnifda soʻz birikmalarining hokim aʼzosi muayyan turkumiy belgisi asosida *fe'lli, otli va sifatli birikmalargina* ajratilgan.

Soʻz birikmalarining tasnifi haqida fikr yuritar ekanmiz, tilshunos M.Sharipovning soʻz birikmalarining formal grammatik talqinini umumlashtiruvchi “Hozirgi oʻzbek tilida soʻz birikmalari sintaksisi masalasi” (T.,1978) nomli risolasidagi mulohazalari diqqatimizni tortdi. Olim soʻz birikmalarini tasniflash masalasida “soʻz birikmalarining hajmini belgilash soʻz birikmalariga xos xarakterli belgilarga ega boʻlgan eng kichik sintaktik birliklarni ajratish bilangina chegaralanmay, bu birliklar strukturasi qanchalik va qay darajada kengaya olishi, murakkablashishi mumkinligini aniqlash” masalasiga alohida eʼtibor qaratadi. M.Sharipovning fikricha, rus tilshunosligida soʻz birikmalari tipologiyasini ishlashda yakdillik yoʻq [31,61]. Turkiyshunoslikda ham yaqin vaqtga qadar bu masala maxsus tekshirish manbasi boʻlmagan. Oʻzbek tilida soʻz birikmalarining hajmi, tarkibiy qismlari, sodda va murakkabligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni zabardast tilshunos A.Gʻulomovning dastlabki ishlarida, xususan, “Hozirgi zamon oʻzbek tilidan konspektiv kurs” (IV boʻlim. Sodda gap. T.,1948) asarida uchratish mumkin [31,64]. A.Gʻulomov soʻz

birikmalari va ularning tarkibiy qismlarini maxsus tekshirmagan bo`lsa ham, murakkab tarkibli aniqlovchilar, ularning qanday so`zlar bilan ifodalanishi, tartibi, komponentlarining ma`noviy munosabati, murakkab aniqlovchili birikmalarning aniqlovchi ergash gapga munosabati haqida ma`lumot bergan. Uch va undan ortiq so`zlardan tuzilgan aniqlovchili birikmalarni “murakkab birikmalar” nomi bilan atagan.

O`z navbatida, professor M.B.Balakayev so`z birikmalarini sodda va qo`shma so`z birikmalariga ajratadi. Sodda so`z birikmalariga to`liq ma`noli ikki so`zdan iborat bo`lgan so`z birikmalarini kiritadi. Qo`shma so`z birikmalariga esa uch va undan ortiq mustaqil va yordamchi so`zlardan yoki qo`shma so`zlardan iborat bo`lgan so`z birikmalari kirishini ta`kidlaydi. Professor M.Z.Zakiyev ham an`anaviy tasnifga hamohang so`z birikmalarini sodda va qo`shma deb, ikkiga ajratadi. Ikkidan ortiq to`liq ma`noli so`zlardan iborat bo`lgan va sodda so`z birikmalariga bo`linmaydigan so`z birikmalarini qo`shma so`z birikmalari deb ataydi [31,64].

So`z birikmalarini tarkibiga ko`ra tasnif qilish boshqa ishlarda ham o`z aksini topgan. So`z birikmalarini tarkibiga ko`ra tasniflayotganda A.G`ulomov rus tilshunosi V.V.Vinogradov tasnifiga asoslangan. Chunonchi, A.G`ulomov, M.Asqarovalarning “Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis” (T.,1987) darsligida quyidagicha tasnif berilgan:

“So`z birikmalari struktura jihatidan ikki turga bo`linadi: sodda birikma va murakkab birikma” [39,27].

Bu mualliflarning fikricha, sodda birikma, odatda, ikki so`zdan tuzilgan bo`ladi: *oq qog`oz, ko`m-ko`k osmon* kabi. *Besh qavatli bino, o`n yashar bola, qilich bo`yin ot* tipidagi qo`shilishlar ham sodda birikma sanaladi. Murakkab birikma sodda birikmaning kengayishidan, birikmalarning qo`shilishidan tuziladi. Masalan: uch + o`rdak –havodagi + uch o`rdak; qora + qo`y – katta + qora qo`y – o`nta + katta qora qo`y [39,27-28].

Lingvistikaga oid ilmiy manbalarda so`z birikmalari ularning tarkibiga kirgan so`zlar miqdoriga va o`sha so`zlarning leksik-semantik munosabatlariga

ko`ra tasniflanganligi hech kimda shubha uyg`otmaydi. Chunonchi, M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulovlarning “O`zbek tili” (T.,1978) darsligida so`z birikmalari strukturasi ko`ra:

- 1) oddiy so`z birikmasi;
- 2) murakkab so`z birikmasiga bo`lingan [16, 167].

So`z birikmasining strukturasi (nechta so`zdan tuzilganligi) ko`zdan kechirilganda, nutqiy voqelikda tushuncha ifodalayotgan sintaktik birlik tarkibidagi mustaqil so`z miqdori inobatga olinganligi ma`lum bo`ladi. Haqiqatdan ham, so`z birikmalari tarkibi, hajmi – uning tarkibiga kiruvchi so`zlarning miqdori jihatidan bir xil emas. O`zbek tilida so`z birikmalari ikki leksik ma`noga ega bo`lgan so`zlar yoxud uch va undan ortiq so`zlardan tashkil topishi mumkin.

Shunday qilib, rus tilshunosligida so`z birikmalarining tuzilishi, tarkibi, hajmi va chegarasi masalasini o`rganish tajribasi o`zbek tilshunosligida so`z birikmalari tarkibidagi so`zlar miqdori va o`sha so`zlarning leksik-semantik munosabatlariga ko`ra formal-logik jihatdan tasnif qilinishiga asos bo`lgan. Buning yorqin dalili A.G`ulomov, M.Asqarovalar [39] hamda M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulovlarning [16] darslik va o`quv qo`llanmalaridagi tasniflardir.

So`z birikmalarini tasniflashda ularning asl mohiyatidan kelib chiqmoq zarur. So`z birikmalari, aslida, ikki yoki undan ortiq lug`aviy ma`noli birlikning o`zaro tobelanishidan hosil bo`ladigan va muayyan predmet, voqea-hodisa, harakat, belgi, turli jarayonni ifodalovchi sintaktik ma`noni reallashtiradigan til birliklaridir. Ana shu xususiyatdan kelib chiqadigan bo`lsak, so`z birikmalari tuzilishini uni tashkil etuvchi so`zlar belgilashi kerak. Shu bois so`z birikmalarining tipologik tasnifini ularning tarkibiga kiruvchi va lug`aviy ma`noga ega bo`lgan so`zlar miqdoriga qarab belgilash natijasida ikki guruh:

- 1) sodda so`z birikmalari;
- 2) murakkab so`z birikmalari ajratilgan.

Formal grammatik talqinda sodda so`z birikmalari ikki mustaqil, to`liq ma`noli so`zlarning leksik-semantik va grammatik jihatlardan birikuvidan hosil bo`lishi va bir butun ma`no ifodalashi aniqlangan. Demak, bevosita kuzatishda

berilgan sodda soʻz birikmalari ikki mustaqil lugʻaviy birlikdan tuzilgan nutqiy hosilalardir. Chunonchi: *shirin qovun, yaxshi qiz, sekin aytmoq, internet orqali yubormoq*.

Nutqiy sintaksis “murakkab soʻz birikmalari uch va undan ortiq soʻzlarning leksik-semantik va grammatik jihatlardan oʻzaro aloqaga kirishuvidan tashkil topadi” degan xulosaga asoslanadi. Buni turli nutqiy ehtiyoj tufayli hosil boʻladigan *guruhdagi eng faol oʻquvchi, togʻning yuksak choʻqqisi, moviy osmonda parvoz etayotgan qaldirgʻochlar, ulugʻ insonlardan ibrat olmoq* kabi murakkab soʻz birikmalari ham yaqqol tasdiqlaydi.

Tilshunos M.Sharipovning “soʻz birikmalarining asosini sodda soʻz birikmalari tashkil etadi, ular soʻz birikmalarining minimum chegarasi” degan xulosasi ham mohiyatan formal-grammatik tahlil natijasi boʻlib, nutq sintaksisi nazariy asoslarini toʻldiradi. Negaki, sodda soʻz birikmalarining ikki soʻzlilik, yaʼni binarlilik [31,70] xususiyati soʻz birikmalari chegarasi va hajmini belgilash omiliga aylangan. Shuning uchun nutq sintaksisida bevosita kuzatishda berilgan murakkab soʻz birikmalari sodda soʻz birikmalarining kengayishidan paydo boʻlishi toʻgʻrisida umumiy fikr shakllangan.

Soʻz birikmalarining tasnifida birikma tarkibiy qismlarining sintaktik vazifasi ham eʼtibordan chetda qolgan emas. Bu jihatdan soʻz birikmalari sintaktik mazmuniga koʻra atributiv, obyektli, relyativ, predikativ kabi tiplarga ajratilib oʻrganilgan. Bular aniqlovchli, toʻldiruvchili, holli, kesimli konstruksiyalar deb ham nomlangan [7,15]. Jumladan, shunday tavsif mavjud: “Soʻzlar sintaktik aloqaga kirishganda ular faqatgina formal bogʻlanib qolmay, unda biror voqelik, tushunchalar ifodalangan boʻladi (aniqlovchi+aniqlanmish kabi). Bundan birikma tarkibidagi komponentlarning oʻzaro maʼno munosabati, xususan, tobe komponentning sintaktik funksiyasi aniq boʻladi. Ana shu funksiyaga koʻra soʻz birikmalarining *predikativ, atributiv, obyektli va relyativ* birikmalarga boʻlinishi kelib chiqadi. Pedikativ, atributiv, obyektli, relyativ birikmalar *kesimli, aniqlovchili, toʻldiruvchili, holli birikmalar* deb ham nomlanadi.” [7,15].

Tabiiyki, bu tasnifda *aniqlovchili, to'ldiruvchili, holli birikmalar* sirasida nominativ vazifa bajaruvchi soʻz birikmalari nazarda tutilgan boʻlsa, *kesimli birikma* ostida kommunikativ vazifaga xoslangan gap anglashiladi. Zero, kesimlilik faqat gapga tegishli belgi-xususiyatdir. Gʻ.Abdurahmonov, A.Sulaymonov, X.Xoliyorov, J.Omonturdiyevlarning “Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Sintaksis” (T., 1979) darsligidagi ushbu tasnifda tobelanish asosida shakllanuvchi birikmalar sirasida alohida kategoriya sanalmish gap ham qamrab olingan boʻlishiga qaramay, tarkibiy qismlarining sintaktik funksiyasi hisobga olinganligi oʻrganilayotgan masala tahlili uchun gʻoyatda muhimdir. Shuning uchun bu tasnifda soʻz birikmalarining *aniqlovchili, to'ldiruvchili, holli birikmalar* sifatida ajratilishiga diqqatni qaratdik. Negaki, “Oʻzbek tili grammatikasi”(2-tom.T., 1976)da soʻz birikmalarining *aniqlovchili, to'ldiruvchili, holli birikmalar* kabi tasnifi oʻz aksini topmagan va baʼzi oʻrinlarda bitishuvli, boshqaruvli va moslashuvli birikmalar tavsifida aniqlovchi-aniqlanmish, qaratuvchi-qaralmish va obyektli birikmalar tilga olingan [34. Mazkur holat akademgrammatikamizda xoh u formal-grammatik yoʻsinda boʻlsin, soʻz birikmalari komponentlarining sintaktik vazifasiga koʻra tasniflanmaganligidan dalolat beradi.

Soʻzlarning oʻzaro bogʻlanib, erkin birikma hosil qilishi tobelanishning uch usuli asosida kechishi haqidagi xulosa formal tilshunoslik qoʻlga kiritgan ilmiy yutuq sanaladi. Soʻz birikmalarini *moslashuvli birikmalar, bitishuvli birikmalar* va *boshqaruvli birikmalar* kabi uch turga ajratilishi ham masalaga formal-grammatik yondashuvning natijasidir.

Soʻz birikmalari tasnifi masalasining tahlili oʻzbek tili sintaksisida ularning nutq bosqichidagi talqinida 4 xil belgi-xususiyatga asoslangan formal-grammatik tasnif shakllanganligini koʻrsatadi. Demak, formal sintaksisda soʻz birikmasi bevosita kuzatishda beilgan belgilar asosida tasniflangan.

Shuni taʼkidlash kerakki, soʻz birikmalarining tasnifi masalasida kuzatilgan maʼlumotlar anchagina va ular bir-biriga mos kelmaydigan jihatlarga ega. Bu esa masalaga tegishli ilmiy dalillarni sistemalashtirish va zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan baholashni talab etadi. Substansial tilshunoslik nuqtayi

nazaridan yondashilganda, soʻz birikmalari tasnifi masalasi qanday yechimlarni berishini aniqlash bizning ishimizda belgilangan vazifalar sirasiga kirmaydi. Chunki bu masalani yechish uchun alohida tadqiqot olib borish zarur.

Soʻz birikmalarining tasnifida ishimizning tadqiq manbayiga tegishli muhim xususiyat diqqat markazini egallaydi. Negaki, tasnifda hokim komponentning muayyan turkumga tegishlilik belgisi soʻzlarning lisoniy (birikuvchanlik) imkoniyatlarini aniqlash jihatidan ahamiyatli boʻlib, soʻz birikmalarining *ismli va feʼlli birikmalar* kabi turlarga ajratilishi substansial nuqtayi nazardan maqsadga muvofiqdir [28, 313].

Ishimizda tadqiq etilayotgan otli birikmalar aynan soʻz birikmasidagi hokim komponentning muayyan turkumga tegishlilik belgisiga koʻra tasnifda ismli birikmalarining muayyan koʻrinishi sifatida ajratiladi. Bunga sabab shuki, ot soʻz turkumi ism umumiy nomi ostida birlashuvchi turkum tarkibiga kiradi.

Ismlar yoki ism turkumi keng maʼnoda predmet nomi – otni, predmet belgisi – sifatni, predmet miqdorini atovchi sonni, payt, oʻrin, daraja, miqdor, tarz, sabab, maqsad maʼnosini bildirgan ravishlarni, shaxs, narsa, predmet, hodisalarga ishora qiluvchi olmoshlarni, harakatlanayotgan predmet belgisini ifodalovchi sifatdoshlarni, harakat nomini, predmet, harakat, holatga taqlidni bildiruvchi soʻzlarni oʻz mohiyatida umumlashtiradi. Substansial morfologiyada soʻz turkumlarini dastavval ismlar va feʼllarga ajratish jahon tilshunosligi, xususan, hind, arab tilshunosliklarida mavjud morfologik tasniflarga hamohang boʻlib, anʼanani nazariy bosqichda yangilashdir. Zero, substansial tilshunoslik nazariy asoslari tatbiqidan dalolat beruvchi oʻquv adabiyotlarida ham ot, sifat, son, ravish, olmosh, harakat nomi, sifatdosh, taqlid kabi soʻz turkumlariga tegishli soʻzlarning keng maʼnoda ismlar deb yuritilishi fikrimizning yorqin isboti boʻla oladi.

Chunonchi, hokim aʼzoning ifodalanishiga koʻra soʻz birikmalarining turlari tasnifida soʻz birikmalari tarkibidagi hokim aʼzoning muayyan soʻz turkumiga kirishiga qarab, quyidagi koʻrinishlarga ega boʻladi:

Islmi birikmada hokim a'zo ot, sifat, son, olmosh turkumidan ifodalanadi: *keng dala* (ot), *tuxumdan kichik* (sifat), *ovozdan tez* (sifat), *odamlarning biri* (son), *o`quvchilarning hammasi* (olmosh).

Fe'lli birikmada hokim a'zo fe'ldan bo'ladi: *vazifani bajarmoq*, *tez o`qish*, *uyalgani uyalgan* [28, 313].

Anglashiladiki, o`zbek substansial sintaksisida otli birikmalar alohida ajratilmagan, aksincha, hokim a'zoning leksik-semantik jihatdan keng ma'noda predmetlik va uning nomini ifodalovchi lug`aviy birliklardan tashkil topganligini ko`rsatuvchi ismli birikmalar tarkibiga kiritilgan. Shunga ko`ra, tadqiqotda hokim a'zosi ot bilan ifodalangan so`z birikmalariga nisbatan otli birikmalar atamasi qo`llaniladi.

Bu tasnifda ismli birikmalar tarkibida ravish, harakat nomi, sifatdosh, taqlidlar o`rin olmagan. Sanab o`tilgan so`zlarning o`quv adabiyotidagi tasnifga kiritilmaganligiga sabab masalaning munozarali tomoni bo`lsa kerak. Zero, oldinroq qayd etganimizdek, payt, o`rin, daraja, miqdor, tarz, sabab, maqsad ma'nosini bildirgan ravishlar, harakatlanayotgan predmet belgisini ifodalovchi sifatdoshlar, harakat nomlari va predmet, harakat, holatni tasvirlovchi taqlidlar ot, sifat, son kabi turkumlarga semantik yaqinligi va ularning qurshovida turishi mohiyatan ismlar ekanligini tasdiqlaydi. Ammo bu masala so`z birikmalari tasnifi va unda otli birikmalarning o`rni masalasidan yiroqlashtirishini hisobga olib, ishimizda ravish, harakat nomi, sifatdosh, taqlidlarning ismlik tabiatini atroflicha yorita olmaymiz. Shuning uchun ushbu bo`limda tavsiflangan so`z birikmalari tasnifi va unda otli birikmalarning o`rni masalasi tahliliga yakun yasab, quyidagi xulosa bilan cheklanamiz:

- 1) o`zbek tilida hokim a'zosi ot leksemalari bilan ifodalangan so`z birikmalari otli birikmalar deyiladi;
- 2) hokim a'zoning ifodalanishiga ko`ra so`z birikmalarining turlari tasnifida otli birikmalar ismli birikmalar tarkibiga kiradi va ismli birikmalarning bir ko`rinishi sifatida alohida ajratiladi;

- 3) soʻz birikmasi tarkibida hokim aʻzo ot leksemalari bilan ifodalanadigan nutqiy hosilalar keng maʼnoda ismli birikmalar, tor maʼnoda esa otli birikmalar sanaladi;
- 4) otli birikmalar aksariyat lingvistik adabiyotlarda hokim aʻzosi otli birikmalar atamasi bilan yuritiladi.

1.2. Otli birikmalar ismli birikmalarning bir turi sifatida

Otli birikmalar ismli birikmalarning alohida koʻrinishi hisoblanishi oldingi boʻlimning nazariy umumlashmasiga aylandi. Ismli birikmalarning bu turi oʻzbek tilida soʻzlashuvchi jamiyat aʼzolari nutqida reallashuvi va mazkur masala bilan bogʻliq qator masalalarni tahlil qilish navbatdagi boʻlimda amalga oshiriladigan vazifadir. Shuning uchun tahlilni dastlab otli birikmalarning nutq voqeligida mavjudligini kuzatishdan boshlash ayni muddaodir. Nutqda tobe aʼzosi ismlardan va hokim aʼzosi ot leksemalardan iborat soʻz birikmalarining rang-barang koʻrinishlarini kuzatish mumkin. Chunonchi, *asal bola, shakar qovun, yaxshi qiz, katta hovli, oʻnta kitob, bir piyola choy, doʻstona uchrashuv, turkona talqin, allaqanday sharpa, oʻsha kun, shildir-shildir suv, duv-duv gap* kabi nutqiy hosilalar nutq jarayonida turli kommunikativ maqsadlarda shakllangan jumlar tarkibida voqelashadi.

Bu soʻz birikmalarida tobe aʼzo mavqeyidagi ismlar va hokim aʼzo mavqeyidagi ot leksemalar qanday lugʻaviy birliklardan tarkib topganligi, bu lugʻaviy birliklar qanday lisoniy maʼnoviy hamda lisoniy morfologik imkoniyatlarga egaligini aniqlash zaruriyati tugʻiladi. Zero, soʻzlarning bu imkoniyatlari birikish omillarini belgilashga, birikish omillari esa birikish usulini aniqlashga va ayni paytda, otli birikmalarning lisoniy sintaktik qurilish mohiyatini belgilashga xizmat qiladi. Shunday ekan, birinchi navbatda, tahlil manbayi hisoblanmish soʻz birikmalarida tobe va hokim aʼzolar mavqeyidagi leksemalarning lugʻaviy maʼnoviy hamda morfologik xususiyatlarini tavsiflash lozim.

O`zbek tili morfologiyasida so`z turkumlarining subtansial talqini har bir turkumga xos belgi-xususiyatni aniq ajratish imkonini berdi. Bu esa an`anaviy so`zlarning mustaqil va yordamchi so`z turkumlariga ajratilishidan farqli o`laroq, lisoniy birlik, ya`ni leksemaning serqirraligi qonuniga muvodiq leksemalarni tasniflashning yangi mezonlari bo`lib, o`zbek tilida lug`aviy birliklarining tasnifi o`zgacha ekanligini ko`rsatdi.

Bu muammo ustida ilmiy tadqiqot olib borgan tilshunos I.Madrahimovning xulosalariga ko`ra, leksemalar birinchi bosqichda ma`noviy jihatdan yordamchi va mustaqillar tiplariga, ikkinchi bosqichda tasvirlovchi va atovchi sinflarga, uchinchi bosqichda ishora va nomlar to`plariga va to`rtinchi bosqichda ot, sifat, son, fe`l, ravish, modal, undov, taqlid kabi 8 ta turkumga bo`linadi [52]. Demak, bosqichma-bosqich ma`noviy tasniflash mezoni asosida o`zbek tilida leksemalar sakkiz turkumga ajratilgan.

Ma`lumki, dialektik mantiqning har bir hodisaga bir necha mezon asosida bosqichma-bosqich, birma-bir yondashuvigina aniq, ratsional xulosalarni berishi haqidagi ilmiy-metodologik tavsiyasiga tayanib ish ko`rish o`zbek subtansial morfologiyasining muhim nazariy masalalaridan biri – so`zlarni turkumlarga ajratishning yangi tasnif tamoyillarini ishlab chiqish uchun keng yo`l ochib berdi. Shuning uchun o`zbek tilida sakkizta semantik so`z turkumi, hatto modal, taqlid, undov leksemalar turkumlarining ajratilganligi aynan dialektik tadqiq usullarining tatbiqi natijasi, deb baholanadi.

Borliqda mavjud narsa-hodisa, shaxs yoxud keng ma`noda predmetlarning nomini bildirgan leksemalar turkumiga ot deyiladi. Barchaga ayonki, ot leksemalar borliqdagi narsa-hodisalarning umumiy va xususiy nomini atashiga ko`ra ikkiga bo`linadi:

- 1) turdosh otlar;
- 2) aniq otlar.

Turdosh otlar bir turdagi predmetlarning nomini umumlashtirib atasa, atoqli otlar bir turdagi predmetlarning alohida ajratib qo`yilgan nomlari hisoblanadi.

Boshqacha aytganda, atoqli otlar bir marta nomlangan predmetlardan birini ajratish uchun qayta nomlaydigan ikkilamchi nomdir [18].

Biz tahlil qilayotgan birikmalarning shakllanishida atoqli otlar emas, balki turdosh otlar va ularning lug`aviy-ma`noviy guruhlari sirasiga tegishli ot leksemalar muhim o`ringa egaligi bois ot turkumiga tegishli turdosh otlar va ularning turlari haqida mulohaza yuritamiz.

Bizga ma'lumki, turdosh otlar ifodalangan tushunchaning xarakteriga ko`ra muayyan (aniq) va mavhum (abstrakt) ma'noli otlarga, xayolan haqiqiy deb tushuniladigan mavjudotlarni atovchi otlar (dev, pari, ajdarho)ga ajratiladi. Muayyan otlar ushlar, ko`rish, o`lchash, sezish mumkin bo`lgan shaxs, narsa-buyumlarni atovchi leksemalardir [18;30].

Chunonchi, muayyan otlar shaxs nomlari; hayvon nomlari; o`simlik nomlari; modda-ashyo nomlari; narsa- buyum nomlari; o`rin-joy (makon) nomlari; payt (zamon) nomlari; miqdor nomlari kabi lug`aviy-ma`noviy guruh(LMG)larni o`z ichiga oladi [18;30]. Muayyan otlarning sakkiz xil LMGi yana o`z ichki ma`no guruhlarga bo`linishi va bu bo`linish yuqoridan quyiga tomon yo`nalishda leksemalarning muayyan matnda nutqiy voqelanishlariga qadar davom ettirilishi mumkin. Shuningdek, muayyan otlar sanalish xususiyatiga ega. Shuning uchun bunday otlar sanoq son bilan munosabatga kirishadi [28,223].

Mavhum otlar turli narsada mavjud bo`lgan bir xil yoki o`xshash sifatni bir alohidalik tarzida ifoda etadi. Masalan, *olma*, *qovun*, *shakar*, *qand* otlarining muhim sifat belgisi "shirinlik" bo`lsa, *shirinlik* mavhum otida yuqoridagi narsalarda mavjud bo`lgan umumiy belgi bir alohidalik sifatida beriladi. Shuning uchun muayyan va mavhum otlarning farqli tomoni faqatgina ularning haqiqiy yoki xayoliy, umumiy va yakka narsani ifodalashi emas, balki belgi, sifat ma`nosining qay usulda talqin etilishi ham [30,224].

O`zbek tilida ism va otlarning o`zaro bog`lanishidan yuzaga keladigan so`z birikmalarini o`rganar ekanmiz, e`tiborimiz muayyan va mavhum otlarga bejiz qaratilgani yo`q. Negaki, biz o`rganayotgan so`z birikmalaridagi hokim a`zoning lug`aviy asosi muayyan va mavhum otlardan iborat. Shu bilan birga, tobe

vaziyatdagi ismlar qanday leksemalardan tashkil topganligini ham aniqlashtirish lozim. Chunki, yuqorida ta’kidlaganimizdek, “ism” atamasi ostida lingvistik adabiyotlarda qadimgi hind, arab va turkiy tilshunoslik an’anasiga ko’ra, ot, sifat, son, olmosh, ravish va taqlidlar umumlashtiriladi [19;22;30;32;36;42]. Demak, ismlar deganda, ot, sifat, son, olmosh, ravish va taqlidlar tushuniladi. Tadqiq manbayi sifatida tanlangan soʻz birikmalarida ot, sifat, son, olmosh, ravish, taqlidlar lisoniy ma’noviy va lisoniy sintaktik imkoniyatlari asosida tobe vaziyatni egallaydi. Biroq tobe va hokim vaziyatda voqelashgan leksemalarning lisoniy ma’noviy ko’lamini, uning kengligi yoki torligini tahlil qilish tadqiqotning kun tartibida turgan bosh masala emas. Shunday bo’lsa ham, tobe vaziyatdagi ismlar va hokim vaziyatdagi otlarning ma’noviy imkoniyatlarini tekshirish jarayonida bu leksemalarga xos lisoniy ma’noviy imkoniyatlarning ko’lami, kenglik darajasi va chegarasi haqida tasavvurga ega bo’lish mumkin.

Nutqda *asal bola, katta hovli, o’nta kitob, do’stona uchrashuv o’sha kun, duv-duv gap* kabi hosilalar cheksiz miqdorda voqelana oladi. Bundan anglashiladiki, tobe vaziyatda ismlar reallashgan soʻz birikmalarida hokim vaziyatni otlar egallaydi. Bunday soʻzlarning birikuvi natijasida [belgi-predmet] ma’noli hosilalar yuzaga keladi. Zero, atrof-muhitga nazar tashlasak, bizni o’rab turgan barcha predmetlar qandaydir yasalish usuli, vositasi, moddiy asosi va o’z tabiatiga mos belgi-xususiyatlarga ega. Masalan, kitobni olaylik. U ma’lum bir texnologiya asosida, muayyan modda-ashyodan tayyorlanadi va o’z mohiyatida predmetlik tabiatiga xos xususiyatlarni mujassamlashtiradi. Shunga ko’ra, nutqimizda *badiiy kitob, yaxshi kitob, muqovali kitob, yuzta kitob, ko’p kitob, ana shu kitob, qancha kitob* kabi atov birliklari mavjud.

Nutqimizda qo’llaniladigan millionlab atov birliklari, ya’ni soʻz birikmalari muayyan ismlar va otlarning ma’lum LMGlarga tegishli leksemalardan tuzilgan. Demak, muayyan belgi-xususiyatga ega bo’lgan predmet ma’nosini voqelantirish uchun ismlar muayyan va mavhum otlar LMGlarga tegishli lug’aviy birliklar bilan birikishi va ta’kidlangan ma’noviy munosabat hosil bo’lishi kerak. Shunday ekan, ismlar bilan sintaktik munosabat hosil qiluvchi muayyan va mavhum otlar

LMGlariga tegishli leksemalar quyi bosqichda boshqa leksemalar bilan sintaktik aloqaga kirishganda, aniq ma'noviy munosabatni yuzaga chiqaradi. Mazkur ma'noviy munosabat alohida olingan leksemaning lisoniy ma'noviy imkoniyatlaridan biri voqelanganligini ko'rsatadi. Bu esa har bir leksik-semantik variant muayyan semasi asosida nutqiy atov birligi hosil qilishini anglatadi. Demak, navbatdagi vazifa [belgi-predmet] ma'noli so'z birikmalarini, aniqrog'i, ism va otlarning birikuvi natijasida yuzaga keladigan nutqiy hosilalarning lisoniy sintaktik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

1.3. O'tli birikmalarning lisoniy sintaktik xususiyatlari

Ismlar va otlarning birikuvidan hosil bo'ladigan [belgi-predmet] ma'noli so'z birikmalarining lisoniy sintaktik qurilishini aniqlash zaruriyati bu so'z birikmalarining lisoniy sintaktik qurilishi masalasini alohida o'rganishni talab etadi. Shuning uchun mazkur bo'limda o'tli birikmalarning lisoniy sintaktik xususiyatlarini tahlil qilish vazifasi belgilangan. Tabiiyki, bu masalaning tahlili nazariy asoslarni aniqlashtirishdan boshlanadi.

O'zbek tilida so'z birikmalarining lisoniy sintaktik qurilishi substansial tahlil usullari asosida o'rganilgan. Professor H. Ne'matov til tizimi va uni tashkil etuvchi birliklar mohiyatini aniqlashda tatbiq etilgan substansial yondashuvni quyidagicha tavsiflaydi:

“Yevropa tilshunosligida endi tarqalayotgan substansial yondashuv o'zbek tilshunosligi bag'rida funksional lingvistika (Praga strukturalizmi) tahlil tamoyillarini dialektik mantiqning ilmiy tushunchaga qo'yadigan talablari asosida shakllangan bo'lib, voqelikdagi (jumladan, uning parchasi bo'lmish nutqdagi) har bir narsada umumiylik, mohiyat, imkoniyat va sabab(UMIS)ni va yakkalik, hodisa, voqelik, oqibat(YHVO)ni farqlaydi. UMISlarni invariant, YHVOlarni – variantlar sifatida baholab, bevosita kuzatishda berilgan YHVOlarni bevosita kuzatishda berilmagan, idrokiy tahlil asosidagina ochiladigan UMISlarning moddiy shaklda yuzaga chiqishi, ko'rinishi deb biladi” [47,7]. Sintaksis bobida substansial yondashuv UMISlar sifatida faqat sintaktik qurilish qoliplarini tan oladi va ularning mohiyatini, umumiy ma'nosini va tizimiy qiymatini modellararo

paradigmatik munosabatlardan keltirib chiqaradi. Mana shu tomoni bilan substansial yondashuv modellarni tan oladigan, lekin ularning paradigmatikasiga e'tibor bermaydigan formal yondashuvdan tubdan farq qiladi.

O'zbek tilida [belgi-predmet] ma'noli so'z birikmalari sintaktik sathning boshqa birliklaridan lisoniy qurilish xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Jumladan, boshqa so'z birikmalaridan tobe-hokimlikning yuzaga chiqish tarzi, usuli bilan ajralib turadi. Aynan shu o'ziga xoslik nimadan iboratligini aniqlash uchun [belgi-predmet] ma'noli so'z birikmalarining sintaktik qurilishini tahlil qilish zarur. Zero, tadqiqotdagi asosiy maqsad – otli birikmalarining poetik nutqda voqelanishini o'rganish ham mazkur birliklarning lisoniy mohiyatini aniqlashni taqozo etadi. Hokim a'zosi otli birikmalarining lisoniy sintaktik qurilishini o'rganmay turib, bu birikmalarining nutqiy voqelanishi va qo'llanilishi haqida fikr yuritish mantiqqa ziddir. Shunga muvofiq, o'zbek tilida otli birikmalarining lisoniy sintaktik qurilishini tahlil qilish, [belgi-predmet] ma'noli so'z birikmalarining lisoniy qurilish qolipi hamda uning variantlarini ajratish vazifasi ushbu bo'lim zimmasiga yuklangan.

O'zbek tilshunosligida so'z birikmalari va gaplarning sistemaviy tahlili asosida olib borilgan tadqiqotlardan ma'lumki, so'z birikmasi ham, gap ham lison-nutq farqlanishi negizida yechiladigan lisoniy hamda nutqiy tomonlarning o'zaro ichki ziddiyatidan iborat [18;20;22;50;54;36;58]. Jumladan, o'zbek tilida so'z birikmalarining substansial tadqiqi xulosalariga ko'ra, so'z birikmasi bevosita kuzatishda beriladigan xususiyatlarning ifodachisi sifatida nutqiy hosila va ularning barchasida takrorlanuvchi sintaktik qurilishning ongdagi umumlashmasi hisoblangan lisoniy sintaktik qolip (LSQ) orasidagi ichki ziddiyat va bu tomonlarning o'zaro muvofiqlashuvidan tashkil topgan.

So'z birikmasi nutq bosqichida nutqiy hosilaga teng bo'lib, lison bosqichida sintaktik qurilishning umumiy, o'zgarmas qirralarini birlashtiruvchi lisoniy qolip mohiyatini belgilaydi. Bunga ishonch hosil qilish uchun o'zbek struktural sintaksisi nazariy asoslari bayon etilgan manbalardagi [22;18;30;36;50;52;53;54;58] so'z birikmasi LSQi to'g'risidagi ma'lumotlar zarur.

Sintaktik qoliplar mohiyatan g`isht quyuvchi ustaning qolipi (uskunasi)ga o`xshaydi [22,6]. Ammo “bizning ongimizda lisonda so`zlash, nutqni shakllantirish uchun xilma-xil maqsadlarga xizmat qiluvchi leksemalarni so`z birikmalari sifatida bog`lash, leksema yoki so`z birikmalariga gap shaklini berish qoliplari bor” [22,6]. So`z birikmalari va gaplarni hosil qiluvchi qolip (qurilma, model)lar sintaktik qoliplar hisoblanadi. Sintaktik qoliplar, ya`ni LSQlar til jamiyati a`zolari ongida tayyor holda, lisoniy shakl va mazmun aloqadorligini in`ikosi sifatida mavjud bo`ladi.

Tilshunos B.Mengliyev “LSQlar jamiyat a`zolari ongida yashaydi va moddiy qiyofaga ega emas, uni sezgi a`zolari asosida his qilib bo`lmaydi” deb ta`riflaydi [18,8-9]. LSQlar bir kishi tomonidan emas, balki shu tilda so`zlashuvchi jamiyatning barcha a`zolari tomonidan uzoq vaqt davomida shakllantirilishi, LSQlarning ijtimoiy tabiatga egaligi, LSQ har bir so`z birikmasida takrorlanishi o`zbek tilida SB hosil qiluvchi 18 ta ustuvor qolipning aniqlangan [54]ligi, demak, LSQlar miqdoran cheklanganligi va oqibatda, SB tuzishga ehtiyoj sezgan o`zbek, istaydimi, istamaydimi, mazkur SB LSQining 18 turidan foydalanishga majbur ekanligi ham qayd etiladi [18, 8-10].

Shunga ko`ra, so`z birikmasi LSQi muayyan turdagi so`z birikmasini hosil qiluvchi, bevosita kuzatishda berilmagan, o`z mahsuli orqali moddiylasha oladigan, nutqda cheksiz takrorlanish imkoniyatiga ega bo`lgan, o`z hosilalari sintaktik qurilishining umumiy, o`zgarmas xususiyatlarini qamrab olgan lisoniy birlik degan xulosa kelib chiqadi. Binobarin, so`z birikmasi LSQi va muayyan so`z birikmasi, ya`ni nutqiy hosila orasida ziddiyat aynan shu xususiyatlari tufayli yuzaga keladi. Zero, so`z birikmasi nutqiy hosila sifatida bevosita kuzatishda berilganligi, moddiyligi, betakrorligi, miqdoran cheklanmaganligi va ixtiyoriyligi bilan mazkur ziddiyatda so`z birikmasi LSQiga qarama-qarshi turadi.

Sintaktik sathga tegishli barcha lisoniy sintaktik birliklar singari so`z birikmasi LSQi ham yuqori (lisoniy) bosqich birligi sanalganligi uchun quyi (nutqiy) bosqich birliklari bilan pog`onali bog`lanish hosil qiladi. So`z birikmasi

LSQi tilning yuqori bosqich birligi sifatida quyi bosqich birliklari, ya'ni nutqiy hosilalarning voqelanish imkoniyatlari va sababiyatini belgilaydi.

Bizga ma'lumki, LSQ tub mohiyatiga ko'ra riyoziy tenglamaga o'xshaydi va ikki qismdan iborat bo'ladi: tenglik belgisidan chap tomon va bu belgidan o'ng tomon [22,10].

Muayyan [belgi-predmet] ma'noli so'z birikmalarini voqelantiruvchi [I~O]=SB LSQi ham riyoziy tenglama ko'rinishiga ega bo'lib, tenglikdan chap tomonda lisoniy sintaktik qurilish tarzini ifodalovchi [I~O] qism va tenglikdan o'ng tomonda birikish usulining natijasi hisoblangan mazkur birikish mahsuli – [SB]ni ifodalovchi qism joylashadi. Bu LSQning to'liq ifodasi quyidagi lisoniy tenglama ko'rinishida bo'ladi:

$$[I \sim O] = [\text{belgi-predmet}] SB.$$

Oldin ta'kidlab o'tganimizdek, LSQ qandaydir mavhum shakl yoxud qurilma emas, aksincha, u aniq va muayyandir. [I ~ O]=[belgi-predmet] SB qolipi o'zbek tilida mavjud muayyan belgisi aniqlanayotgan predmetni bildiruvchi yuz minglab so'z birikmalarining hosil bo'lishini lisoniy sintaktik qurilish nuqtayi nazaridan umumlashtiruvchi lisoniy birlikdir. Zero, qolip tarkibidagi [I] ramziy shakli tobe bo'lak mavqeyida voqelashgan ism umumiy nomi ostida birlashuvchi leksemalarni ixcham tarzda umumlashtirib ko'rsatadi.

[O] ramziy shakli hokim bo'lak mavqeyida reallashgan ot leksemalarni ixcham va umumiy tarzda ifodalaydi. Tobe bo'lak mavqeyida ismlarga mansub lug'aviy birliklar, hokim bo'lak mavqeyida esa ot semantik turkumiga mansub lug'aviy birliklar voqelanishi ta'kidlanadi. Demak, umumlashtirish xususiyati qolip va uning tarkibiy qismlariga xos. Chunki mazkur LSQ mohiyatini belgilovchi [belgi-predmet] ma'no munosabatida tobe bo'lak mavqeyidagi ismlarning hech bir grammatik vositasiz, ma'noviy va joylashuv omillari asosida hokim bo'lak mavqeyida reallashgan ot leksemalarga birikish usuli yaqqol, ammo umumlashgan holda aks etadi. Bu LSQning [I ~ O] qismi orqali namoyon bo'ladi. Tabiiyki, mazkur umumiy lisoniy shaklda [I]ning tobeligini nafaqat ma'noviy omil orqali, balki [O]dan oldin kelishi, ya'ni joylashish xususiyati asosida belgilash mumkin.

Chunki bu til birligi tobelanish qonuniyatining ikki lisoniy imkoniyatini uyg'un holda voqelantiradi.

Bulardan birinchisi ma'noviy omil orqali yuzaga chiqayotgan imkoniyat bo'lib, u lug'aviy birliklarning ma'noviy birikuvchanlik xususiyati asosida yuzaga keladi. Birikuvchanlikning bu turi bir leksemaga xos lug'aviy ma'noning ikkinchi leksemaga xos shunday ma'no bilan birikish va biriktirish qobiliyatlariga tayanadi [22; 54].

Ikkinchi imkoniyat esa sof sintaktik tabiatga ega bo'lib, turkiy tillarda (jumladan, o'zbek tilida ham) tobe bo'lakning hokim bo'lakdan oldin joylashishi qonuniyati asosida yuzaga chiqadi [20;26;22;54;37;39;43]. Bu sintaktik qurilishni umumlashtiruvchi qolipda hokim bo'lak mavqeyida yuzaga chiqqan ot leksemalar hokimlik belgisini o'zining shakliy birikuvchanlik xususiyati bilan emas, tobe bo'lakdan keyin joylashish xususiyatiga asoslangan joylashuv omili orqali namoyon qiladi.

Tobe bo'lak ismlardan va hokim bo'lak ot leksemalardan tuzilgan bunday birikmalarda so'zlarning qo'shnichilik munosabati birikishning [belgi-predmet] munosabatini shakllantiruvchi o'ziga xos usuli ekanligini ko'rsatadi. Bunday sintaktik birikish usuli atributiv birikmalar sirasida, ya'ni [aniqlovchi-aniqlanmish] sintaktik ma'no tarkibiga kiruvchi [qaratuvchi-qaralmish] va [izohlovchi-izohlanmish] munosabatlarini shakllantiruvchi so'z birikmalaridagi birikish tarzidan keskin farqlanadi. Chunki ismlar va ot leksemalar o'zaro tobelanar ekan, faqat ma'noviy va joylashuv (sintaktik) imkoniyatlarini yuzaga chiqarish asosida [sifatlovchi-sifatlanmish] munosabatini ifodalovchi so'z birikmalarini hosil qiladi. Natijada, sintaktik qurilma [belgi-predmet] ma'noviy munosabatini yuzaga chiqarish uchun lisoniy bosqichda umumiy lisoniy shakl sifatida tayyor bo'ladi.

Aniqrog'i, [I~O]=[belgi-predmet] SB qolipida har bir tarkibiy qism o'zining eng asosiy munosabatlari ichida berilgan bo'ladi. Shuning uchun dialektik mantiq yuzasidan lisoniy sintaktik qolipning har bir tarkibiy qismi muayyan, konkret sanalishi lozim [57,16]. Substansial tadqiqning asosiy tahlil usuli dialektik mantiq hisoblanganligi uchun LSQning shakliy tomoni sifatida ajratilgan [I ~ O] qismi

dialektik nuqtayi nazardan nisbiy muayyan deb qaraladi. Mazkur lisoniy shaklning muayyanligi uning nutqiy, moddiy voqelanishi orqali yorqin namoyon bo`ladi.

O`zbek tilida hokim a`zosi ot leksemalaridan tuzilgan so`z birikmalari yuqorida tavsiflangan [I ~ O]=[belgi-predmet] SB LSQi mahsuli sifatida mavjud, deb xulosa qilib bo`lmaydi. Chunki bevosita kuzatishda berilgan *bahorning havosi, uyning tomi, bolaning uyqusi, Salimanning kitobi, qo`yning erkagi, o`zbekning odati, do`stning xiyonati, ko`ngilning istagi, kapalakning umri, mening oilam, birovning yordami, yaxshining so`zi, kichikning hurmati, ikkovining uchrashuvi, millionning ta`siri, sotmoqning foydasi, chekishning asorati, o`qimaganning maslahati, davolanuvchining shikoyati, hozirning huzuri, jo`rtaganing natijasi, gumbur-gumburning vahimasi, bidir-bidirning sababi, dod-voyning oqibati, salomning javobi* singari nutqiy hosilalar ham otli birikmalar sirasiga kiradi. Qizig`i shundaki, bu hosilalar [I~O]=[belgi-predmet] SB LSQi mahsuli emas. Bu hosilalar sintaktik qurilish jihatidan ham, semantik jihatdan ham [I~O]=[belgi-predmet] SB LSQi mahsuliga o`xshamaydi. Birinchidan, mazkur so`z birikmalarida tobe bo`lak qaratqich shaklida, hokim bo`lak esa egalik shaklida ifodalanganligi a`zolarining birikich tarzi va usuli [I~O]=SB LSQidan farq qilishini tashqi tomondan aks ettirsa, ikkinchidan, tobe so`zning hokim so`zga bog`lanishidan vujudga keladigan tegishlilik, egalik, [butun-bo`lak], [tur-jins], umuman, qarashlilik ma`nosi [belgi-predmet] umumiy mazmuniga singmasligini ichki tomondan ifodalab turadi. Demak, yuqorida sanab o`tilgan nutqiy hosilalar lisoniy sintatik qurilishi va mazmuniga ko`ra, alohidalik, o`ziga xoslik kasb etdi. Bu alohidalik va o`ziga xoslik otli birikmalarning yana bir turi mavjudligidan dalolat beradi. Faqat bu turning o`ziga xosligi nimadan iboratligi va uning alohidalik sababi noma`lum. Buni aniqlash tahlilni davom ettirishni talab etadi.

Turkiyshunoslik adabiyotlarida “turkiy izofa” (S.Mayzel, A.N.Kononov, N.A.Baskakov, N.K.Dmitriyev), “[qaratqich+qaralmish]li birikmalar” (A.G`ulomov, F.Abdullayev, Sh.Rahmatullayev, M.Sharipov), “egalikli birikmalar” (A.Choriyev, A.M.Shcherbak) atamaları bilan ommalashgan [qarashlilik], [butun-bo`lak], [tur-jins], [ajratish-saralash], [obyekt-harakat],

[predmet-belgi] singari ko`plab ma`noviy bo`yoqlar va turlarga ega bo`lgan so`z birikmalarining umumiy lisoniy sintaktik qolipi $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ dir [19;53].

O`zbek tili sintaksisining formal-funksional tahlili asosida [qaratuvchi-qaralmish] sintaktik ma`nosini bildirgan so`z birikmalarini yuzaga chiqaruvchi $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ LSQi aniqlangan [21,7-9].

Qaratqichli birikmalarni voqelantiruvchi $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ LSQI ham riyoziy tenglama ko`rinishiga ega bo`lib, tenglikdan chap tomonda lisoniy sintaktik qurilish tarzini ifodalovchi $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}]$ qismi va tenglikdan o`ng tomonda birikish usulining natijasi hisoblangan mazkur birikish mahsulini ifodalovchi [SB] qismi joylashadi. Mazkur lisoniy sintaktik qolipining to`liq ifodasi quyidagi lisoniy tenglama ko`rinishida bo`ladi:

$$[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = [\text{qaratuvchi-qaralmish}] SB.$$

Tavsiflayotganimiz $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = [\text{qaratuvchi-qaralmish}] SB$ qolipi o`zbek tilida mavjud [qaratuvchi-qaralmish] munosabatini bildirgan yuz minglab so`z birikmalarining hosil bo`lishini lisoniy sintaktik qurilish nuqtayi nazaridan umumlashtiruvchi lisoniy birlikdir. Aynan shu xususiyati uni lisoniy invariant birlik deb hisoblashga imkon beradi. Zero, qolip tarkibidagi [I] ramzi ismlarni, ya`ni predmet nomi – otni, predmet belgisi sifatni, predmet miqdorini atovchi sonni, payt, o`rin, daraja, miqdor, tarz, sabab, maqsad ma`nosini bildirgan ravishlarni, harakatlanayotgan predmet belgisini ifodalovchi sifatdoshlarni, harakat nomini, predmet, harakat, holatga taqlidni bildiruvchi so`zlarni ixcham tarzda umumlashtirib turadi.

$[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = [\text{qaratuvchi-qaralmish}] SB$ qolipida tenglamaning chap qismi, ya`ni $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}]$ qismi lisoniy-sintaktik qurilish qolipining shakliy tomonini tashkil etadi. Qolipning har bir tarkibiy qismining munosabatlari $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = [\text{qaratuvchi-qaralmish}] SB$ LSQida o`z aksini topgan. [I] ramzi ostida sintaktik aloqaga kirishayotgan qaratuvchi va qaralmishning lug`aviy asoslari ifodalanadi. Shu bilan birga, nutq jarayonida bu ramz lug`aviy asoslar o`rnida istalgan ism mohiyatli, ammo muayyan leksemalar voqelana olishini bildiradi. Ushbu ramzning o`ziyoq

bu tarkibiy qism ism soʻzlar turkumiga aloqador boʻlishi zarurligiga (yaʼni tuslanuvchi feʼl yoki yordamchi soʻzlarga mansub emaslikka) ishora qiladi.

Demak, umumlashtirish xususiyati qolip va uning tarkibiy qismlariga xos. Chunki mazkur lisoniy sintaktik qolip mohiyatini belgilovchi [qaratuvchi-qaralmish] munosabati tobe boʻlak tarkibidagi [-ning] qaratqich kelishigi shakli va hokim boʻlak tarkibidagi [-i/-si] egalik koʻrsatkichi orasidagi sintaktik birikish usulida yaqqol, ammo umumlashgan holda aks etadi. Bu lisoniysintaktik qolipning [I^{q.k.} ~I^{e.k.}] qismi orqali namoyon boʻladi. Tabiiyki, [I^{q.k.}] umumiy lisoniy shakli tobe boʻlak mavqeyida turganligini, [I^{e.k.}] umumiy lisoniy shakli esa hokim boʻlak mavqeyini egallaganligini anglatadi. Mazkur umumiy lisoniy shaklda qaratqich kelishigidagi ismning tobeligini morfologik shakl va joylashish tartibi omillari asosida belgilash mumkin. Zero, bu lisoniy birlik tobelanish qonuniyatining ikki lisoniy imkoniyatini uygʻun holda voqelantiradi. Bulardan birinchisi – morfologik omillar orqali yuzaga chiqayotgan imkoniyat boʻlib, u kelishik kategoriyasining keyingiga tobelanish xususiyatiga tayanadi. Negaki, kelishik kategoriyasi oldingi soʻzni keyingiga tobelash vazifasini bajaradi [23; 14].

Ikkinchi imkoniyat esa sof sintaktik tabiatga ega boʻlib, turkiy tillarda (jumladan, oʻzbek tilida ham) tobe boʻlakning hokim boʻlakdan oldin joylashishi qonuniyati asosida yuzaga chiqadi [5;6;10;34]. Mazkur sintaktik qurilishni umumlashtiruvchi qolipda qaratqich kelishigidagi ismlar oʻzidan keyingi boʻlak egalik shaklida boʻlishini talab qilganligi uchun hokim boʻlak mavqeyida egalik shaklidagi ismlar voqelashadi.

Sintaktik mohiyatiga koʻra egalik kategoriyasi keyingi soʻzshaklning oldingi soʻzshaklga munosabatini ifodalash yoxud soʻzshaklning “oldingisi bilan” aloqasini koʻrsatish vazifalarini bajaradi. Shu boisdan ham egalik koʻrsatkichi qaratqich kelishigida turgan “oldingi” soʻzga aloqadorligini taʼkidlagan holda, “keyingi” soʻzshakl tarkibida hokimlik belgisi bilan voqelashadi. Natijada, sintaktik qurilma [qaratuvchi-qaralmish] munosabatini yuzaga chiqarish uchun lisoniy bosqichda umumiy lisoniy shakl sifatida tayyor boʻladi.

mavjud. Biroq bu hosilalar $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = [\text{qaratuvchi-qaralmish}]$ SB LSQ asosida voqelashmaydi. Bunday birikmalardagi tobe bo`laklarning barchasi bosh kelishikda bo`lib, ularni $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = \text{SB LSQidagi } [I^{q.k.}]$ qismning varianti, ya'ni $[O^{q.k.}]$ ning belgisiz ko`rinishi deb bo`lmaydi. Chunki bosh kelishikdagi tobe bo`lak egalik shaklidagi hokim bo`lakka birikishning o`ziga xos, ya'ni $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}]$ birikish tarzidan farqli usulini belgilaydi. Bu usulning o`ziga xosligi shundaki, tobe vaziyatni egallagan bosh kelishikdagi ot leksemalar hokim vaziyatdagi egalikli ot leksemalarga bog`lanishi natijasida $[\text{tur-jins}]$ ma'noli so`z birikmalari yuzaga keladi.

Boshqacha aytganda, bu xil so`z birikmalarida tobe bo`lak– $[O^{b.k.}]$ va hokim bo`lak, ya'ni $[O^{e.k.}]$ orasidagi birikish usuli aks etadi. Birikish mahsuli esa $[\text{tur-jins}]$ ma'noli so`z birikmalari hisoblanadi. Demak, *kuz fasli, mehr tuyg`usi, san`at muzeyi, suv sporti, musiqa maktabi, tinchlik siyosati, mart oyi, Navro`z bayrami* tipidagi so`z birikmalari $[O^{b.k.}]$ va $[O^{e.k.}]$ ning o`zaro birikish usulini namoyon etadi.

So`z birikmalarining substansial tadqiqi natijasida o`zbek tilida mavjud $[\text{tur-jins}]$ ma'noli so`z birikmalarining lisoniy sintaktik qurilishi $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = [\text{tur-jins}]$ SB qolipida aks etishi aniqlangan [19;56]. Demak, tahlil qilinayotgan nutqiy hosilalarning lisoniy sintaktik va semantik xususiyatlari $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = [\text{tur-jins}]$ SB qolipi asosida izohlanishi lozim.

Keltirilgan misollardan ma'lum bo`ladiki, $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = \text{SB}$ qolipidagi tobe va hokim bo`laklar mavqeyida faqat ot leksemalar voqelashadi. Bosh kelishikdagi ot so`z turkumi bilan ifodalangan leksemalarning egalik shaklidagi ot leksemalar bilan sintaktik aloqasi natijasida $[\text{tur-jins}]$ ma'no munosabatini yuzaga keltiruvchi so`z birikmalari ro`yobga chiqadi [45]. Bu birikmalarda tobe bo`lak mavqeyida voqelashgan bosh kelishikdagi ot leksema hokim bo`lak mavqeyida yuzaga chiqqan egalik shaklidagi ot leksemalarning “nomi”ni, turini bildiradi. Egalik shaklli ot leksemalar esa “nomi”, turi aniqlanayotgan “jins” ma'nosini anglatadi.

Tobe bo`lak bosh kelishik shaklidagi ot leksemalarning egalik shaklidagi ot leksemalarga tobelanishini o`z joylashuv imkoniyati orqali ifodalaydi. Bunda

leksemaning lugʻaviy manosi bosh kelishikning semantik jihatdan “nom”ni ifodalash va sintaktik jihatdan “keyingi”ga uzluksiz bogʻlanish vazifalari bilan uygʻunlashadi. Tobe belgili bunday soʻz shakli keyingi soʻz tarkibiga “singib ketgandek” hokim belgili soʻz shakli bilan butunlik hosil qiladi. Shu bois *Pomir togʻi* soʻz birikmasi orqali “muayyan togʻning nomi” tushunchasi bir butun holda anglashiladi. Lekin *Pomirning ulkan togʻi* birikmasi mantiqan nima nimaga tegishli ekanligini yoki nimani atayotganligini aniqlashga imkon bermaydi [45]. Demak, bunday soʻz birikmalarida tobe soʻzni hokim soʻzdan “ajratib boʻlmaydi”. Boshqacha ifodalaganda, [tur-jins] maʼno-munosabatini bildirgan soʻz birikmalarida tobe boʻlakning hokim boʻlak bilan yonma-yon, uzluksiz bogʻlanishi bu birikmalarning lisoniy sintaktik qurilishida kuzatiladigan oʻziga xos xususiyatdir. Qolipda umumlashtirilgan birikish usuli [tur-jins] maʼnoli barcha nutqiy hosilalarda yuzaga chiqadi. Shunday ekan, $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipi til sathida lisoniy sintaktik birlik maqomida turadi va eng asosiysi, otli birikmalarning [tur-jins] maʼnosini ifodalovchi turini hosil qilish vazifasini bajaradi.

Ushbu boʻlimda belgilangan masalalar tahlili natijasida quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

- 1) oʻzbek tilida hokim aʼzosi ot leksemalaridan tuzilgan soʻz birikmalari $[I \sim O] = SB$ LSQi, $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ LSQi va $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipi mahsuli sifatida mavjud;
- 2) nutqda [belgi-predmet] umumiy maʼnosiga tegishli rang-barang qirralarni ifodalovchi otli birikmalarning umumiy lisoniy sintaktik qurilish xususiyatlari $[I \sim O] = SB$ LSQida mujassamlashgan;
- 3) $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ LSQi otli birikmalarning [qaratuvchi-qaralmish] mazmuniga tegishli maʼno qirralarini voqelashtiruvchi turiga xos lisoniy sintaktik qurilish xususiyatlarni oʻz mohiyatida aks ettiradi;
- 4) [tur-jins] maʼnosini ifodalovchi soʻz birikmalari otli birikmalar sirasida oʻz orniga ega boʻlib, bu birikmalarning lisoniy sintaktik qurilishi $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipida umumlashtirilgan;

- 5) o'zbek tilida hokim a'zosi ot leksemalaridan tuzilgan so'z birikmalarining uch turi: a) [belgi-predmet] ma'nosini ifodalovchi otli birikmalar; b)[qaratuvchi-qaralmish] ma'nosini ifodalovchi otli birikmalar; d) [tur-jins] ma'nosini ifodalovchi otli birikmalar ajratiladi.

Bob bo'yicha xulosalar:

1. O'zbek tilida otli birikmalar deganda, aslida, hokim a'zosi ot leksemalari bilan ifodalangan so'z birikmalari tushuniladi. Hokim a'zoning ifodalanishiga ko'ra so'z birikmalarining turlari tasnifida otli birikmalar ismli birikmalar tarkibiga kiradi va ismli birikmalarning bir ko'rinishi sifatida alohida o'ringa ega.

2. So'z birikmasi tarkibida hokim a'zosi ot leksemalaridan tuzilgan nutqiy hosilalar keng ma'noda ismli birikmalar, tor ma'noda esa otli birikmalar deyiladi.

3. O'zbek tilida hokim a'zosi ot leksemalaridan tuzilgan so'z birikmalari $[I \sim O]=SB \text{ LSQi}$, $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}]=SB \text{ LSQi}$ va $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]=SB$ qolipi mahsuli sifatida mavjud.

4. Nutqda [belgi-predmet] umumiy ma'nosiga tegishli rang-barang qirralarni ifodalovchi otli birikmalarning umumiy lisoniy sintaktik qurilish xususiyatlari $[I \sim O]=SB \text{ LSQida}$ mujassamlashgan.

5. $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}]=SB \text{ LSQi}$ otli birikmalarning [qaratuvchi-qaralmish] ma'nosini voqelashtiruvchi turini yuzaga keltiradi va mazkur turning lisoniy sintaktik qurilishini o'z mohiyatida aks ettiradi.

6. Otli birikmalar sirasiga kiruvchi [tur-jins] ma'noli so'z birikmalarining lisoniy sintaktik qurilishi $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}]=SB$ qolipida umumlashtirilgan bo'lib, mazkur qolipning voqelanishi natijasida yuzaga keladi.

7. O'zbek tilida hokim a'zosi ot leksemalaridan tuzilgan so'z birikmalarining uch turi ajratiladi:

- a) [belgi-predmet] ma'nosini ifodalovchi otli birikmalar;
- b) [qaratuvchi-qaralmish] ma'nosini ifodalovchi otli birikmalar;
- d) [tur-jins] ma'nosini ifodalovchi otli birikmalar.

II BOB. POETIK NUTQNING ILMIIY TALQINI

Inson til orqali o`z fikrini bayon qiladi, ya`ni boshqalarga axborot beradi va shu vosita bilan boshqalarning fikrini ham anglaydi. Kishilar orasidagi aloqalaralashuv jarayonini uyushtiruvchi ijtimoiy hodisa sifatida tilning ahamiyati behad kattadir. Zero, zukko tilshunos Alibek Rustamiy ta`biri bilan aytganda: “Til inson hayotida oddiy tus olganligi tufayli kishi uning qanchalik muhim ekanligini yetarli darajada anglay olmaydi. Holbuki, insonni inson qilgan ilmu fan va iqtisod-u madaniyatni rivojlantirgan hamda dunyoni obod qilgan vositalarning asosiysi mana shu tildir. Kishilar til vositasida bir-biridan bilim va hunar deb atalgan haqiqiy boylikni avloddan-avlodga til xazinasini tufayli topshirib boradilar” [23,12].

Til mohiyatan tabiiy hodisa ham, yakka shaxsga xos hodisa ham emas. Til faqat bir jihati, ya`ni tovush tomoni bilan tabiiy, yana bir jihati – nutqiy qobiliyat tomoni bilan yakka shaxsga xos. Ammo mohiyat e`tibori bilan jamiyat mahsulidir. Kishilar biror hodisa, fikr, istak, so`roq yoki hayajonni til bilan ifodalaydilar, ifodalanmish narsani bir-biriga bildiradilar. Demak, til ifoda va aloqa vositasidir. “Shunday qilib, tilning mohiyati uning ijtimoiyligi, ifoda va aloqa vositasiligidan iborat”, - deb hisoblaydi A.Rustamiy.

Binobarin, kishilar har qanday sharoitda va faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda bir-birlaridan ma`lum darajada farq qiladilar [35, 9].

O`zbek adabiy tilida so`zlovchi yoki yozuvchi odam nutqiy sharoit taqozosiga ko`ra bu tilda mavjud so`zlarning grammatik shakllari, so`z birikmalari va gap tuzilishining ma`lum qismidagina foydalanadi. Muayyan bir ma`ruza yoki maqola egasi, ilmiy asar yoxud biror bir badiiy asar muallifi, shu bilan birga, har qanday shaxs ham tilning barcha so`z boyliklaridan, grammatik vositalaridan, imloviy va talaffuz imkoniyatlaridan to`lig`icha foydalana olmaydi. Hatto eng mashhur va ulkan yozuvchining ijodida ham o`zbek tilining boy imkoniyatlari amalda qisman ishga solinadi. Mana shu ma`noda tilning potensial imkoniyatlari kollektiv doirasida ham hech qachon to`lig`icha ishga solinadi, deb bo`lmaydi [12,11].

Tilning imkoniyatlari bu imkoniyatlarning amalda qo'llanayotgan holatidan doimo ortiq va keng bo'ladi. Har bir tildagi mana shunday boy imkoniyatlar bu tilning vositalar sistemasini tashkil etadi. Jamiyat a'zolarining til vositalaridan foydalanish jarayoni, ya'ni nutq murakkab va ko'p qirralidir. Shu bilan birga, nutq ko'rinishlari konkret sharoit va maqsad, ijtimoiy muhitga ko'ra ham farqlanadi. Ayni paytda, nutq so'zlovchi shaxslarning turmush tarzi, kasb-kori, dunyoqarashi, aytmoqchi bo'lgan fikri, maqsadi, nutqiy sharoit, so'zlovchining psixik, fiziologik holati, adabiy tilni qanchalik egallaganligi yoki egallamaganligi, ma'lumoti va shunga o'xshash juda ko'p omillar bilan chambarchas bog'liqdir [12,12].

Individual nutqda ham, kollektiv nutqida ham til vositalaridan sanab o'tilgan ko'p sonli omillarni hisobga olgan holda, ma'lum ko'nikma va malakaga ko'ra tanlab foydalaniladi. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keldi [35, 9].

Nutqning vazifaviy uslublarini tadqiq etish, ularning lingvistik belgilarini aniqlash, nutq uslublarida lisoniy birliklar funksional xususiyatlarini ochish va lisoniy dalillar asosida ularni ajrata bilish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan muhim masalalardan biridir. Bu masalalarning tadqiqi bo'yicha jahon va rus tilshunosligida anchagina ishlar bajarilgan. Stilistikaning fan sifatida shakllanishi va taraqqiyoti V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, O.S.Axmanova, O.D.Mitrofanova, D.E.Rozental, O.B.Sirotina, D.N.Shmelev, B.N.Golovin, V.N.Yarseva, A.A.Xolodovich, R.A.Budagov kabi olimlarning asarlarida o'z aksini topgan. Turkiyshunoslikda X.Kurbatov, A.Nurmaxanova, O.A.Nechayeva, shu jumladan, o'zbek tilshunosligida G'.Abdurahmonov, A.Mamajonov, R.Qo'ng'urov, Y.Tojiyev, B.O'rinboyev, E.Qilichev, X.G'afurov, E.Xo'janiyazov, M.Hakimov, Sh.Iskandarova tadqiqotlarida tilimiz uslublariga xos turli xususiyatlar tadqiq etilgan. Ammo tadqiqotchilarni stilistikaning umumiy masalalaridan ko'ra uning xususiy jihatlari, ya'ni yozuvchi va shoirlarimiz asarlarining til xususiyatlari ko'proq qiziqtirgan.

Tilshunoslikda ilmiy-texnik adabiyot tili funksional-uslubiy birlik sifatida, ilmiy uslub va uning boshqa uslublar bilan qiyoslanishi, uslublarning

differenziatsiya muammosi, grafik uslubiy vositalar, soʻz birikmalari stilistikasi, koʻchirma va oʻzlashtirma gaplarning uslubiy qoʻllanish xususiyatlari masalasi va shu kabi bir qancha masalalar tadqiq etilgan. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, soʻz birikmalarining baʼzi turlari, sodda va qoʻshma gaplarning turli vazifaviy uslublarda qoʻllanish masalalari ayrim ilmiy asarlarda tadqiq etilgan. Lekin mazkur masalalar hali yetarli darajada oʻrganilmagan.

Jahon tilshunosligida, jumladan, turkiyshunoslikda sintaktik birliklarning uslubiy xususiyatlari tadqiq etilgan. Shunday boʻlsa ham, bu sohada amalga oshirilishi zarur boʻlgan ishlar juda koʻp. Ayniqsa, badiiy uslubda sintaktik birliklar, xususan, soʻz birikmalarining oʻziga xos qoʻllanilishi hozirgacha yetarlicha tahlil etilmagan. Shuning uchun ishimizda otli birikmalarining badiiy uslubda qoʻllanilishi bilan aloqador poetik sintaktik imkoniyatlarini oʻrganish maqsadi kun tartibiga qoʻyilgan.

Nutqning xilma-xil koʻrinishlari, ularning uslubiy xususiyatlari, asosiysi, poetik nutq va uning vositalarini tahlil qilish mazkur bob oldida turgan muhim vazifadir. Shuning uchun tadqiqotning ushbu bobi poetik nutqning xususiylari va poetik nutq vositalarini tahlil qilishga bagʻishlanadi. Shunga koʻra, dastavval badiiy uslub, badiiy nutq va uning oʻziga xos xususiyatlari toʻgʻrisida fikr yuritiladi. Demak, navbatdagi vazifa oʻzbek adabiy tili uslublari orasida badiiy uslubning oʻziga xosligini aniqlash boʻlib, bu vazifa mazkur bobning birinchi boʻlimida amalga oshiriladi.

2.1.Badiiy nutq adabiy tilning voqelanish turi sifatida

Nutqning xilma-xil koʻrinishlari nutq uslublari hisoblanishi, aslida, nutq uslublari ifoda vositalari sistemasining muayyan aloqa doirasida maqsadga muvofiq tanlash natijasida tarixan tashkil topgan nutq koʻrinishlari ekanligi [35,9] hammaga ayon. Til oʻz vazifasini alohida-alohida nutq koʻrinishlarida, maʼlum uslublar doirasida bajarishi ham isbot talab qilmaydi.

Uslubshunoslarning fukricha, nutq uslublarining har biri alohida yagona bir sistemani tashkil qiladi. Zero, nutq uslubining bir-biriga aloqador elementlar sistemasini tashkil etishi tilning aloqa-aralashuv quroli sifatida xizmat qilishi bilan

bog`liq ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi. Tabiiyki, tilning fonetik tuzilishi, lug`aviy birliklar tarkibi va grammatik qurilishi ham har biri alohida bir tizimni tashkil etadi va yaxlit holda bir butun til tizimi ichida sistema-element munosabati asosida joylashadi. Tilning vazifaviy uslublari mana shu fonetik, leksik, grammatik tizimlarga xos barcha vositalarning ma'lum kommunikativ maqsadga ko`ra birlashuvi tufayli vujudga keladi. Demak, nutq uslublari tilning vazifasi bilan bevosita bog`liq. Shuning uchun ular “funktional stillar” deb nomlanadi [35,11]. Bizningcha, bu atamaga qaraganda “vazifaviy uslublar” atamasi ma’qulroq. Chunki so`nggi yillarda ommalashib borayotgan ilmiy manbalarda bu atama “vazifaviy uslublar” ko`rinishida qo`llanmoqda. Endi bu atamaning ilmiy izohini aniqlashtirish lozim.

Professor Y.Tojiyev: “Stilistika – fikrni ifodalash yo`llari, til vositalarini – materiallarini saylash haqidagi ta’limot – uslublar ilmi bo`lib, tilning vazifalariga mos ravishda bir necha vazifaviy uslublarga bo`linadi”,- deb yozadi [33,90]. Ayni fikrga hamohanglik professor E.Qilichev va dotsent B.Qilichevlar tomonidan yozilgan “Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari” o`quv qo`llanmasida ham sezilib turadi. Buni quyidagi ilmiy mulohaza tasdiqlaydi: “Uslubiyat fikr va emotsiyalarni bildirishda tilning turli vositalaridan saylab foydalanish yo`llarini o`rgatadi. Demak, uslub fikr va hodisalarni shunga mos vositalar orqali ifodalash yo`lidir” [38,31].

Uslub til materiallarini nutqning mundarijasiga – mavzusiga, qaysi sohaga xosligiga, so`zlovchining maqsadiga, aytilayotgan fikrga, janriga qarab saylashning umumlashirilish natijasidir. Masalan, ilmiy uslubda maxsus leksikaning qo`llanilishi, tarixiy romanlarda istorizm va arxaizmlarning ko`proq uchrashi, badiiy asarlarda poetik metaforalarning voqelanishi kabilar buning yorqin dalilidir. Uslub tilning jamiyat ijtimoiy faoliyatining ma'lum tomoni bilan bog`langan o`ziga xos lug`ati, frazeologik birliklari, grammatik qurilmalari bilan nutqning xuddi shunday boshqa turlaridan o`z ichki xususiyatlari bilan tafovut qilib turuvchi kenja sistemasidir [33,90]. Bu uslub haqidagi so`nggi xulosa emas. Chunki uslubga berilgan ta’riflar xilma-xil. Jumladan, akademik

G`Abdurahmonov: “Uslub – bu ma’lum so`z, so`z birikmasi yoki gapning (ko`proq frazeologiya, sodda gapning so`roq, buyruq, undov turlari, intonatsiya va morfologik kategoriyalar va boshqalar) badiiy bo`yoq olishi – tezkorligi, ta’sirchanligi, shaxsiy munosabat bildirishidir”,-deb yozadi [48,28]. Olim “uslub – gapiruvchining, yozuvchining ifodalanayotgan fikrga, xabarga, voqea-hodisaga, shaxs yoki predmetga shaxsiy yoki boshqa bir shaxs (yoki predmet)ning munosabati, jumladan, ifodalangan qo`shimcha subyektiv fikrdir” degan ta’rifi orqali uslubning ilmiy asosini belgilagan. Shuningdek, “Uslub filologiya fanining toji – tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining yuqori bosqichi (A.V.Stepanov), “har bir taraqqiy etgan tilning qalbi” (R.A.Budagov), “Uslub – bu talant” (V.G.Belinskiy) kabi ta’riflar ham mavjud [48,28].

Tilning uslubi haqidagi ilmiy ta’rif va tavsiflar bu hodisaning serqirraligi bilan bog`liq. Zero, uslubni tor ma’nodan tushunish uni “biror yozuvchi yoki shoirning yozish (ijod qilish) tarzini ifodalovchi hodisa”ga tenglashtirsa, (masalan, A.Qodiriy, Oybekning uslubi buning yorqin dalili bo`la oladi), ushbu hodisani keng tushunish esa “uslub til ifoda vositalarining maqsadga muvofiq uyushgan sistemasi” [38,33] degan umumlashmani keltirib chiqaradi.

O`z navbatida, uslub tilning asosiy vazifalari (fikir bildirish, ekspressivlikni ifodalash va boshqalar)ga mos ravishda bir qancha turlarga bo`linadi [33;35,38]. Shunga ko`ra, ular vazifaviy uslublar deb yuritiladi. Ayni paytda, vazifaviy uslublar deganda, tildan farq qiluvchi qandaydir alohida hodisa tushunilmaydi, balki shu aniq adabiy til tizimining ichida qaraladigan, o`ziga xos xususiyatlari, xizmat qilish doirasi bilan bir-biridan farq qilib turadigan kichik tizim anglashilishi[33,90]ni qayd etish lozim. Chunki vazifaviy uslublar tarixan shakllangan adabiy tilning turli ko`rinishlari bo`lib, ular fikrni ifoda etish jarayonida nutq tuzilishining o`ziga xosligi bilan o`zaro tafovutlanadi.

Uslubiyatning katta bir tarmog`i sifatida vazifaviy uslublar turli olimlar tomonidan turlicha tasnif qilingan. Tadqiqotda ularning tasniflanishi bilan bog`liq masalaning tahlilini chetlab o`tib, lingvistik manbalarda qat’iylashgan va ilmiy jamoatchilik orasida ommalashgan tasnifdan foydalanamiz. Binobarin, o`zbek

tilida neytral uslubga qarama-qarshi turadigan nutq uslublarining asosiy besh ko`rinishi ajratiladi: 1) so`zlashuv uslubi; 2) rasmiy uslub; 3) ilmiy uslub; 4) publitsistik uslub; 5) badiiy uslub [38;35;33;41].

Hozirgi o`zbek tilining so`zlashuv uslubi ikki asosiy turga ajratiladi: a) adabiy so`zlashuv uslubi; b) oddiy so`zlashuv uslubi. Adabiy so`zlashuv uslubi tilning adabiy me'yorlariga mos, tartibga solingan va ishlangan bo`lishi bilan xarakterlanadi. U jargon va sheva elementlaridan xoli bo`ladi. Adabiy so`zlashuv uslubi jamiyat a'zolarining kundalik hayotida keng qo`llanadigan aloqa-aralashuv vositasi bo`lib, ommaviy axborot tarmoqlari, ta'lim sohasidagi ishlar shu uslubda olib boriladi [33,14]. Oddiy so`zlashuv uslubi uchun betakalluflik bilan erkin muomala qilish xarakterli xususiyatdir. Unda so`zlashuv nutqiga xos emotsionallik yaqqol sezilib turadi. Bu uslub nutqi g`ayri rasmiyligi, ekspressivligi, bayonning erkinligi va asosan, dialogik xarakterdaligi bilan izohlanadi [38,36].

Rasmiy uslub "Rasmiy yozishma va hujjatlar stili iqtisodiy, yuridik va diplomatik munosabatlarda davlat idoralari, sudlar, savdoga doir o`zaro muomalalarda aloqa qilish uchun ishlatiladi" [35,20]. Shunga ko`ra, bu uslubda yuridik qonun moddalari, diplomatik murojaatnomalar, hukumat idoralari qorarlari, instruksiyalar, buyruqlar, shartnomalar, rasmiy e`lon va xabarlar, yozishmalar va shu kabi hujjatlar yoziladi. Mazkur uslubning xarakterli belgilari: u kitobiy uslubga kiradi, ma'muriy idoraning ish usuliga mos, maxsus (qisqa, ixcham) standart shakli, turg`un iboralari, qisqartma so`zlar, maxsus sintaktik qurilmalarning "tayyor" qolipda bo`lishi bilan aloqa-aralashuv uchun qulay keladi [33,93].

Ilmiy uslubda rasmiy uslubdan farqli o`laroq, tabiat va ijtimoiy hayotdagi hodisalar aniq ta'riflanadi. Bu uslub ilmiy terminologiya bilan bevosita aloqador bo`lganligi uchun atamalar ilmiy uslubning leksekasini tashkil qiladi. Ilmiy uslubning grammatik qurilishi mantiqiy bog`liqlikni, izchillikni, sintaktik aniqlikni talab etadi. Muhim jihati shundaki, ilmiy uslubda yozilgan asarlar, odatda, ilm-fanga oid ma'lumotlar berish bilan mutaxassislariga mo`ljallangan bo`ladi [38,34].

Obrazlilik (emotsionallik) kategoriyasi agar ilmiy uslubda “so`ngan, nursiz” holda ko`rinsa, badiiy adabiyotda esa “jonli” tarzda namoyon bo`ladi. Masalan, “*uchar yulduz*”, “*somon yo`li*” astronom uchun, avvalo, atama vazifasini o`taydi, yozuvchi uchun esa bu so`z birikmalari o`xshatish yoki obrazli ifoda manbayi bo`lishi mumkin [35,25].

“Publitsistik uslubda qisqalik (lakonizm) markaziy o`rinlardan birini egallaydi, ya`ni qisqa, lo`nda, tushunarli, yorqin, ixcham tilda yozish asosiy talablardan hisoblanadi”,-deb ta`riflaydi Yormat Tojiev [33,94]. Publitsistik nutq jamoatchilikning fikri va yuragiga hissiy ta`sir o`tkazish xususiyatiga ega. Bu uslubning xarakteriga ko`ra unda turli siyosiy atamalar, neologizmlar, professionalizmlar, so`zlashuv nutqiga xos elementlar (ozodlik, do`stlik, tenglik, sharaf v.h) uchraydi [38,35]. Bundan tashqari, antiteza va nutqda ohangdorlikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi ritorik so`roq, ritorik murojaat, teng bog`lanishli va tobe tarkibli qo`shma gaplar, sintaktik parallelizmlarning ishlatilishi bu uslubni boshqalaridan ajratib turadi.

Vazifaviy uslublarning bir turi sifatida badiiy uslub inson amaliy san`ati, ijodiy faoliyati va hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umumga taalluqliligi, jamiyatning barcha a`zolariga tegishliligi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Akademik G`.Abdurahmonov badiiy uslubni shunday ta`riflaydi: “Badiiy uslub badiiy adabiyotda, uning turli janrlarida qo`llaniladigan o`ziga xos til ifodasidir. So`zni badiiy asar g`oyasiga, mazmuniga, yo`nalishiga moslab ishlatish badiiy uslubni keltirib chiqaradi” [48,33].

Badiiy uslub adabiy ijod namunalari– asarlarning tili, ya`ni, til vositalarining majmuyidir. Badiiy uslub badiiy adabiyot bilan chambarchas bog`liq. Badiiy adabiyot insonlar hayotini barcha qirralari bilan qamrab oladi. Shuning uchun adabiyot turli xil kasb egalarining, har xil toifadagi kishilarning fikr-o`ylari, his-hayajonlarini tasvirlabgina qolmay, ularning ichki dunyosini, jamiyatdagi faoliyatini ham to`la aks ettiradi. Aynan shu sababli bu uslubda til vositalari boshqacharoq – o`ziga xos xarakterda qo`llanadi:

“Agar nutqning boshqa vazifaviy uslublari faqat u yoki bu hodisaning mazmunini xabar qilish uchun xizmat qilsa, badiiy uslub esa bundan tashqari, o`quvchi yoxud tinglovchiga estetik va emotsional ta’sir ko`rsatishni ham maqsad qilib qo`yadi. Demak, estetik ta’sir etish vazifasi badiiy nutqning o`ziga xos xususiyatidir” [35,30].

Badiiy uslub xilma-xil ko`rinishlarda namoyon bo`ladi. Mazkur uslub ijodkorlarga asarning estetik ta’sirini kuchaytirish uchun tilning barcha leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, mohirona tanlash, shuningdek, yangidan-yangi ifoda vositalarini yaratish imkonini beradi. Binobarin, til badiiy nutq uslubida obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun badiiy uslub o`zining obrazlilik bilan adabiy tilning boshqa vazifaviy uslublardan farq qiladi.

Obrazlilik so`zlashuv uslubida ham kuzatiladi. Biroq so`zlashuv uslubidagi obrazlilik o`ziga xos turg`un, “shablonlashgan” holatda bo`ladi. Badiiy uslubda esa har bir obrazli ifoda, so`z muayyan sharoitda individuallik belgisiga, ya’ni biror muallif takrorlamagan ko`rinishda birinchi marta qo`llaganlik “ohori”ga ega bo`ladi [35,31]. Umuman olganda, obrazlilik nafaqat adabiyotning, balki san’atga xos barcha turlar va butunlay san’atning o`ziga xos xususiyatidir. Shunday ekan, obrazlilikni badiiy uslub orqali namoyon bo`ladigan fikrlash va uning mahsulini belgilaydigan asosiy kriteriy, mezon, tamoyil sifatida baholash to`g`ri bo`ladi.

Badiiy uslubda obrazlilik tamoyili polisemantik so`zlar, ko`chma ma’noli so`zlar, sinonimlar, omonimlar, antonimlar, eskirgan va yangi so`zlar (neologizmlar), jargon va vulgarizmlar, ibora, maqol va matallardan o`rinli foydalanishni talab etadi. Zero, bu vositalar obraz yaratishga, hayotiy manzaralarni tasvirlashga xizmat qiladi.

Chunonchi, otlardagi ko`plik shakli [-lar]ning turli semantik-uslubiy maqsadlar uchun ishlatilishi, kichraytirish-erkalash shakllarining ko`p qo`llanilishi va fe’lning nisbat, zamon, shaxs-son shakllarining ishlatilishi badiiy uslubning morfologik xususiyatidir [38;41]. Uslubshunos E.Qilichev ta’kidlaganidek, “Sintaktik jihatdan badiiy uslub turli qurilishdagi gaplarning bo`lishi, ko`chirma va

o`zlashtirma gaplarning chegaralanmaganligi, sinonimik gaplar, perefrazalarning ko`p uchrashi, so`zlarning tartibi va inversiyadan istagancha foydalanish mumkinligi bilan xarakterlanadi”[38,37]. Xulosa qilib aytganda, badiiy uslub adabiy tilning boshqa vazifaviy uslublaridan quyidagi asosiy xususiyatlariga ko`ra tafovutlanadi:

birinchidan, o`quvchi yoki tinglovchiga estetik ta'sir etishni maqsad qilib qo`yadi;

ikkinchidan, badiiy tasvir vositalari va obraz yaratish imkoniyatlariga ega boladi;

uchinchidan, unda adabiy tilning barcha uslublariga xos elementlar aralash holda qo`llanilishi mumkin;

to`rtinchidan, til vositalaridan individual – ijodiy foydalanish, ularni tanlab ishlatish imkoniyati mavjud va bu jihati uning o`ziga xosligini ta'minlaydi.

2.2. Poetik nutq vositalari

Badiiy til deganda badiiy asarlar yozishda ishlatiladigan til tushuniladi. Tabiiy bir savol tug`iladi: badiiy asarlar yozishda ishlatiladigan til “umumxalq tili”, “milliy til”, “adabiy til” atamaları bilan yuritiluvchi, kundalik aloqa-aralashuvda foydalaniladigan tildan nimasi bilan farqlanadi? Savolga javob berish uchun har ikki til vazifalaridagi farq va mushtaraklikka diqqat qilish zarur. Kundalik muloqotda ishlatiluvchi til ham, badiiy til ham axborot yetkazish va axborot olishga xizmat qiladi. Biroq bu o`rinda yetkazilayotgan axborotning tabiatini hisobga olish zarur. Muloqot tili yetkazgan axborot oddiy axborot bo`lsa, badiiy til badiiy axborotni yetkazadi, shunga ko`ra, muloqot tili aloqa-aralashuv vositasi bo`lsa, badiiy til badiiy muloqotning amalga oshishiga xizmat qiladi.

Badiiy til axboroti qanday qilib badiiy axborotga aylanadi? Bu savolga javobni poetik tilning xususiyatlaridan izlash kerak. Poetik tilning o`ziga xosligini belgilovchi eng muhim xususiyatlari sifatida obrazlilik va emotsionallikni ko`rsatish lozim.

Poetik til deyilganda ko`pchilik go`zal tashbehu istioralar yoxud boshqa tasvir va ifoda vositalari (o`xshatish, metafora, ramz va h.) ishlatilgan, bezakdor,

jimjimador tilni tushunadi. Suhbat davomida sal chiroyli va jimjimador gapirgan kishiga nisbatan ba'zan "ja-a badiiy qilib gapirarkan" qabilidagi ta'nalarni eshitib qolishimiz ham shu xil tushunishning natijasidir. Aslida, bu yanglish tasavvurdir. Zero, ayrim asarlar borki, ularda bu xil vositalar ishlatilmasligi yoxud juda kam bo'lishi mumkin, biroq bu bilan shu asar tili badiiylikdan mahrum bo'lib qolmaydi. Masalan, A.Oripovning "Xotiro" she'ridan olingan bir parchaga e'tibor qilaylik:

Uydan ketganimga o'n yil bo'libdi,

O'n yil qishlog'imdan yuribman uzoq.

Men yurgan yo'llarda o'tlar unibdi,

Ko'milib bo'libdi men kezgan so'qmoq.

Mazkur parchaning badiiy asardan olingani, uning badiiy tilda insho etilgani shubhasiz. Biroq undagi til unsurlari kundalik muloqotda ishlatiladigan unsurlardan farq qilmasligi, badiiy vositalar ishlatilmaganligi ko'rinadi. Tajriba uchun shu parchada berilgan axborotni kundalik muloqot tiliga o'girib ko'raylik. Tasavvur qilaylik, bu gaplarni kundalik muloqotda bizga kimdir gapirmoqda: "Uydan ketganimga o'n yil bo'libdi. O'n yil qishlog'imdan uzoq yuribman. Men yurgan yo'llarda o'tlar unib, men kezgan so'qmoq ko'milib bo'libdi".

Biz bu matnda she'rdagi so'zlarni aynan keltirdik, unda birorta so'z o'zgartirilgani yo'q. Agar o'zgartirilgan parchadagi gaplarni kimdir kundalik muloqotda aytyapti, deb faraz qilsak, bu parcha badiiylikdan mahrum bo'lgani, endi u badiiy axborot yetkazmayotgani aniq anglashiladi. Nega bir xil so'zlardan iborat ikki parchaning birini badiiy tilda yozilgan deymiz-u, ikkinchisini badiiylikdan mahrum hisoblaymiz? Chunki keyingi parchadagi gaplarni eshitganimizda o'zga odam yetkazayotgan axborotni tushuncha shaklida va uning ayni paytdagi his-tuyg'larini axborot shaklida qabul qilamiz. Endi she'rdan olingan parchaga qaytaylik. She'r o'qishni boshlaganimizda birinchi satrdanoq o'quvchiga mahzunlik kayfiyati inadi, uning tasavvurida uzoq vaqt qishlog'idan ayro yurgan, endi qishlog'iga qaytib mahzun kezinayotgan va hayot haqida o'ylarga cho'mgan lirik qahramon gavdalanadi. O'quvchi o'sha o't bosgan yo'llarni, ko'milib bo'lgan

so`qmoqni ko`radi, lirik qahramon bilan birga yoki o`zini uning o`rniga qo`ygan holda o`sha so`qmoqda kezinadi, uning kechinmalarini qalbdan o`tkazadi. Ya'ni, u yangi bir olamda – til unsurlari vositasida yaratilgan badiiy reallikda yashaydi. Badiiy reallik esa voqelikning oddiygina aksi emas, balki uning ijodkor qalbi-yu ongida qayta yaratilgan aksi –badiiy obrazdir. Bu obrazda esa ijod onlarida shoir qalbida kechgan his-tuyg`ular-u o`y-fikrlar badiiy til vositasida muhrlandi, o`quvchini o`sha holatga olib kiruvchi tashqi bir manzara tasvirlandi. Boshqacha aytsak, ijodkor tasavvurida yaralgan obraz badiiy so`z vositasida moddiylashadi, shu bois ham badiiy til obraz yaratish vositasi sanaladi. Agar ilmiy, rasmiy va boshqa uslublarda yetkazilgan axborot tushunchalar orqali berilsa, badiiy asarda yetkazilayotgan axborot obrazli, hissiyotga yo`g`rilgan axborotdir. Demak, badiiy tilni belgilovchi (spesifik) xususiyatlari obrazlilik (tasviriylik) va emotsionallik ekan.

Badiiy til umumxalq tiliga asoslanadi, uni butkul yangi hodisa deb qaramaslik kerak. Biz kundalik muloqotda ishlatib yurgan odatiy so`zlardan badiiy so`z paydo bo`ladi. So`zning odatiy ma'nosi badiiy asar matnida yangidan-yangi qirralarini namoyon qiladi, uning ma'no sig`imi benihoya kengayadiki, buni badiiy asarda tasvirlangan xususiy faktdan katta bir badiiy umumlashma kelib chiqishiga o`xshatsa bo`ladi. Bunga “Men kezgan so`qmoq ko`milib bo`libdi” jumlasini bilan “Ko`milib bo`libdi men kezgan so`qmoq” satri yetkazayotgan badiiy axborotni qiyoslash orqali amin bo`lish mumkin. Birinchi holda odam yurmay qo`yganidan so`qmoqni o`t bosib ketgani nazarda tutilayotgani, ya'ni, tinglovchi axborotni faqat o`z ma'nosida qabul qilayotgani ravshan. She'r satri esa ma'no sig`imi, o`quvchi xayolida qo`zg`ayotgan assotsiativ ma'nolar jihatidan benihoya keng. Chunki bu satr badiiy matn ichida kelib, butunning qismiga aylangan. Demak, uning ma'no ottenkalari va hissiy bo`yog`i ham butun bilan bog`liqlikda namoyon bo`ladi. Shu bois “ko`milib bo`lgan so`qmoq” lirik qahramon xayolida u bilan bog`liq xotiralarni jonlantiradi, beg`ubor va betashvish bolalik yoxud yoshlik sog`inchini, umrning o`tkinchiligini o`ylashdan kelgan mahzunlikni ifodalaydi.

Badiiy tilning tasviriyligi nasriy (epik) asarlarda yanada yorqinroq namoyon bo`ladi. Lirik asarlarda tasvirlangan tashqi manzara lirik qahramon ichki olamiga olib kiruvchi vositagina bo`lsa, epik asarlarda tasvirlangan badiiy voqelik o`zicha mustaqil, obyektivlashgan manzaradir. Shu bois epik asarlarda tasvirlangan ijodkor ko`zi bilan ko`rilgan voqelik o`quvchi xayolida ham jonlanadi. O`quvchi asar voqealari yuz berayotgan joy, qahramonlarning xatti-harakatlarini go`yo ko`rib turadi. Lirik asar tilining emotsionalligi ko`proq lirik qahramonning muayyan paytdagi kayfiyati, holati, kechinmalari bilan bog`liq bo`lsa, epik asarda emotsionallikning namoyon bo`lishi o`zgacha kechadi. Bundagi emotsionallik birinchi galda tasvirlanayotgan predmet mohiyati bilan bog`liqdir. Epik asarda tasvirlanayotgan narsa, voqeaning o`zgarishi barobarida emotsionallik ham o`zgarib boradi. Buni tasavvur qilish uchun “O`tgan kunlar”dan olingan bir necha parchaga diqqat qilaylik:

Og`ir tabi`atlik, ulug` gavdalik, ko`rkam va oq yuzlik, kelishkan qora ko`zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit... (Otabek)

“... uzun bo`ylik, qora cho`tir yuzlik, chag`ir ko`zlik, chuvoq soqol, o`ttiz besh yoshlarda bo`lg`on ko`rimsiz bir kishi... (Homid)

... qora zulfi par yostiqlarning turlik tomonig`a tartibsiz suratda to`zib, quyuq jinggila kiprik ostidagi tim qora ko`zlari bir nuqtag`a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko`rgan kabi... qop-qora kamon, o`tib ketgan nafis, qiyiq qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho`chigan kabi... to`lg`an oydek g`uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg`a aylangan-da, kimdandir uyalg`an kabi... (Kumush)

O`n etti yashar chamaliq, kulchalik yuzlik, oppoqqina, o`rtacha husnlik Zaynab qayin onasining tilak va sha`niga loyiq tavozi`-odoblar bilan bitta-bitta bosib dasturxon yoniga keldi... (Zaynab)

Roman voqeligiga ilk bor kirib kelgan qahramonlarini A.Qodiriy o`quvchisiga shu yo`sinda taqdim qiladi. Tabiiyki, ularning har biriga nisbatan yozuvchining o`z hissiy munosabati bor va tasvirda bo`rtib turgan bu munosabat o`quvchi shuuriga singadi, uning qahramonlarga munosabatini belgilaydi. Otabek haqida gapirganda sezilib turuvchi ichki bir hurmat, Kumush tasviridagi

shaydolik, Homid tasviridagi jirkanishga yaqin bir his, Zaynab tasviridagi ozroq kinoya – bularning bari tasvir predmeti bilan hissiy munosabatning ham mutanosib o`zgarishidan dalolat beradi. Shu parchalarning o`ziyiq Zaynabni Kumush bilan qiyos qilgan kitobxonda “Zaynab – o`rta-miyona bir qiz, kelinbop qiz”, degan fikr uyg`onishi mumkin. Ammo “firoqida ikki yillab sarson-sargardon yurishga, uni deya o`limga tik borishga, nihoyat, ko`yidagi o`limni-da yuksak saodat deb bilishga arzigulik qiz” degan fikr aslo kelmaydi.

Ko`rinadiki, til vositasida yaratilgan tasvirda bo`rtib turgan hissiy munosabat yozuvchiga o`quvchining qahramonlariga o`zi istagandek munosabatda bo`lishini, asarining o`zi istagandek tushunilishini ta`minlash imkonini beradi. Demak, epik asarda emotsional tonallik muttasil o`zgarib, tovlanib turadiki, bu narsa mazmunning ifodalanishida ham, asarning qabul qilinishida ham muhim ahamiyatga ega.

Badiiy asar tili haqida fikr yuritganda uning yana bir jihati – differentsiyalanganligiga (farqlanganligiga) alohida to`xtalish zarur.

Albatta, “badiiy asar tili” deganda, aslida, gap badiiy nutq haqida borayotgani ma`lum, chunki til unsurlari ma`lum matnni hosil qilgach, nutq hodisasiga aylanadi. Badiiy nutqning farqlanganligi shuki, unda muallif nutqi va qahramonlar nutqi ajratiladi. Ta`kidlash kerakki, mazkur farqlanish asosan epik va liro-epik xarakterdagi asarlarga xosdir. Bu xil asarlarda voqea, voqea kechayotgan joy yoki sharoit tasviri, qahramonlarga berilayotgan ta`rif, muallifning fikr-mulohazalari kabilar bevosita muallif tilidan beriladi. Muallif obrazi asarda tasvirlangan badiiy voqelikni yaxlitlashtiruvchi subyektiv asos bo`lganidek, avtor nutqi asarning moddiy tarafini yaxlitlashtiruvchi unsurdir. Muallif nutqi vositasida asar qismlari, voqealar, tafsilotlar yaxlit bir organizmga – badiiy matnga birikadi. Muallif nutqi grammatik jihatdan adabiy til me`yorlariga yaqinlashadi, biroq uning adabiy til me`yorlariga to`la muvofiq bo`lishini talab qilish xato bo`lur edi. Zero, yozuvchi milliy til imkoniyatlarini kengaytirishga, o`z his-kechinmalarini, o`y-hislarini imkon qadar yorqin ifodalashga intilarkan, adabiy til me`yorlaridan

chekinishi mumkin. Ayni shu chekinishlar vaqti kelib adabiy til me'yoriga aylanishi mumkinligi ham ehtimoldan yiroq emas.

Badiiy nutq ikki shaklda: sochma (nasr) va tizma (nazm) shakllarda mavjuddir.

Nasriy nutq tuzilishi jihatidan kundalik muloqot tiliga o'xshash bo'lsa, she'riy nutq muayyan bir o'lchovga solingan, hissiy to'yintirilgan nutq sanaladi. Nasriy nutq epik va dramatik asarlarning asosiy nutq shakli hisoblanadi. Shu bilan birga, she'riy yo'lda ham epik va dramatik asarlar yaratilishi mumkinligini unutmash kerak. She'riy nutq esa lirik asarlarning asosiy nutq shaklidir.

Badiiy nutqning monologik va dialogik shakllari ham farqlanadi. Monologik nutq shakli bir odam tilidan aytilayotgan nutqni bildirsa, dialogik nutq shakli suhbat-muloqot chog'idagi bir necha kishining nutqini anglatadi. Lirik asarlarda monologik nutq, dramatik asarlarda dialogik nutq yetakchilik qilsa, epik asarlarda ularning har ikkisi ham keng o'rin tutadi. Bunda muallif nutqi, asosan, monologik shaklda bo'lsa, personajlar nutqi dialogik shakldadir.

Navbatdagi masala – “badiiy til”, “adabiy til” va “milliy til” munosabati. Ma'lumki, umumxalq tili (milliy til) deganda o'zbek tilida so'zlashuvchilarning barchasi – yashash hududi, ijtimoiy tabaqaga mansubligi, mashg'ulot turidan qat'i nazar, foydalanadigan til tushuniladi. Adabiy til deganda esa umumxalq tilining grammatik, imloviy va orfoepik jihatlardan me'yorlashtirilgan shaklini tushunamiz. Badiiy til umumxalq tili bazasida shakllanadi va qisman adabiy til me'yorlariga yaqinlashadi. Shu bilan birga, badiiy til adabiy til me'yorlaridan o'rni bilan chekinadi.

Badiiy til o'zida milliy adabiyotimizda uzoq davrlardan beri shakllanib kelgan an'analarning davomchisi sanaladi va shu bois ham unda uning o'zigagina xos bo'lgan unsurlar (an'anaviy sifatlashlar, ramz va majozlar, o'xshatishlar v.h.) majmuyi ham mavjuddir.

Badiiy tilning eng muhim spetsifik xususiyatlari sifatida obrazlilik va emotsionallikni ko'rsatdik. Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalar

umumlashtirilib, “badiiy tasvir va ifoda vositalari” deb ataladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat bo’lmish obrazlilik va emotsionallikni kuchaytiruvchi unsurlardir. Aytish kerakki, bu tushuncha adabiyotshunoslikda “poetik vositalar”, “sintaktik figuralar”, “stilistik figuralar” kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Shuni ham yodda tutish lozimki, bu vositalarning bunisi tasvir, bunisi ifoda vositasi deyish ham nomaqbul, chunki badiiy adabiyot soʻz vositasida tasvirlaydi va shu tasvir orqali ifodalaydi. Ya’ni, koʻp hollarda bitta vositaning oʻzi ham tasvir, ham ifodaga xizmat qiladi. Faqat lirik asarlarda qoʻllaniluvchi ayrim vositalar borki, ular asosan ifodaviylikni kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Badiiy til umumxalq tili bazasida yuzaga keladi. Yozuvchi umumxalq tilidan foydalanar ekan, umumodatlangan me’yordan ogʻadi (ya’ni, til unsurlarini odatdagidan oʻzga shakl, ma’no, tartib, munosabat va shu kabilarda qoʻllaydi) va shu “ogʻish”dan ma’lum badiiy-estetik maqsadni koʻzda tutadi. Bu xil ogʻishlar tilning turli sathlarida – fonetik, morfologik, leksik, semantik, sintaktik sathlarda kuzatilishi mumkin. Badiiy tasvir va ifoda vositalari ijodkorning muayyan badiiy-estetik maqsadga erishish uchun umumodatlangan me’yordan ogʻishi natijasida yuzaga keladi. Ular tasvirning jonli va toʻlaqonli boʻlishiga, ifodaviylikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Leksik sathdagi me’yordan ogʻish yozuvchining umumxalq tili bazasidagi leksik vositalardan foydalanishida koʻrinadi. Ma’lumki, umumxalq tilidagi soʻzlar nominativ vazifani bajarish holatida ham tasviriylik va ifodaviylik imkoniyatlari jihatidan farqlanadi. Ya’ni, ijodkor ifoda va tasvirni soʻz ma’nosiga daxl qilmagan holda, mavjud soʻz hazinasidan “soʻz tanlash” hisobigagina kuchaytirishi mumkin boʻladi.

Yozuvchining umumxalq tilida mavjud soʻzlardan umumodatiy holatdan oʻzgacharoq foydalanishi quyidagicha badiiy-estetik maqsadlar bilan yuz beradi:

1. Davr koloritini (ruhini) berish uchun. Lugʻatdagi eskirgan soʻzlar – arxaizm va istorizmlar odatdagi soʻzlashuvda ishlatilmasligi ma’lum. Biroq ular tarixiy mavzudagi badiiy asarlarda davr koloritini berish uchun juda zarur. Deylik,

o`z asarida o`n to`qqizinchi asr voqeligini tasvirlayotgan ijodkor, tabiiyki, o`sha davrga xos voqelikni tasvirlashi lozim bo`ladi. Ya`ni, o`sha davr koloritini o`sha davrga xos bo`lgan narsa-buyumlar, hodisalar, tushunchalar nomlarisiz to`la tasvirlab bo`lmaydi. Ikkinchi tomonidan, o`n to`qqizinchi asr muhitida harakatlanayotgan personaj tili ham shunga mos bo`lishi, uning nutqida o`sha davrga xos so`zlar va so`zshakllar ishlatilishi obrazning ishonarli va to`laqonli bo`lishiga xizmat qiladi.

2. Adabiy tilda kam qo`llaniluvchi dialektizmlar badiiy asarda joy koloritini berish uchun qo`l keladi. O`zbek tilida so`zlashuvchilar tarqalgan xududlarda umummilliy xususiyatlar bilan bir qatorda o`sha xudud kishilarigagina xos bo`lgan jihatlar (urf-odatlar, tasavvurlar, aqidalar, narsa-buyumlar) ham mavjudki, bular birinchi galda sheva tilida o`z aksini topadi. Shunday ekan, asarda tasvirlanayotgan xududga xos bo`yoqlarni berish, unda harakatlanayotgan personaj xarakterini to`laqonli badiiy talqin etish uchun dialektizmlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi.

3. Badiiy obraz muayyanlik xususiyatiga ega. Asar personaji muayyan muhitda harakat qiladi. Muhitga mansublikni ifodalashda varvarizmlar, vulgarizmlar, argo va jargonlarning ahamiyati katta. Muhit koloritini ifodalash bilan birga, ular personaj nutqini individuallashtirish, ruhiyatini ochish va umumiy qiyofasini yaratishda ham muhim ahamiyatga ega.

4. Tasvir predmetiga munosabatni ifodalash. Tilimizda mavjud so`zlar emotsional bo`yog`i nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qiladi. Yozuvchi tasvir predmetiga munosabatini ifodalash uchun mavjud so`zlardan zarurini tanlashi lozim bo`ladi. Masalan, sinonim so`zlar qatoridan ijobiy bo`yoqqa yoki salbiy bo`yoqqa ega so`zning tanlanishi yozuvchining tasvir predmetiga munosabatini yorqin ifodalab berishi mumkin.

Shu o`rinda semantik sathdagi og`ishlarga ham e`tibor qaratish lozim. Ma`lumki, nutq jarayonida biz so`zlarni o`z ma`nosida yoki ko`chma ma`noda qo`llashimiz mumkin. So`zning odatiy ma`nosidan o`zga ma`noda qo`llanishi semantik sathdagi og`ish sanaladi. Ko`chma ma`noda qo`llangan so`zlarning

umumiy nomi trop (ko`chim) deb yuritiladi. So`z ma`nosi ko`chishining, tropning metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya singari bir qator ko`rinishlari mavjud. Badiiy asarda qo`llanilgan ko`chimlar ishlatilish darajasi, badiiy bo`yoqdorligi, ta`sirchanlik darajasi kabi jihatlaridan bir-biridan jiddiy farqlanadi:

a) ko`chimlarning bir qismi allaqachon til hodisasiga aylanib ulgurgan. Masalan, *kun botdi, soat yuryapti* kabi birikmalarda so`z ma`nosi ko`chganligi aniq. Biroq biz ularga shu darajada ko`nikkanmizki, hatto ularga ko`chim sifatida qaramaymiz ham. Badiiy asar matnida mazkur ko`chimlar qo`llanganida, tabiiyki, muallif muayyan badiiy-estetik maqsad bilan semantik sathda og`ishga yo`l qo`ygan, deya olmaymiz. Zero, yozuvchi ularni tayyor holda olgan. Demak, bu xil ko`chimlar matnda estetik funksiya bajarmaydi, ularni badiiyat hodisasi sifatida talqin qilib bo`lmaydi;

b) asar matnida badiiy adabiyotda an`anaviy tarzda ishlatilib kelayotgan ko`chimlar ham ko`p uchraydi.

Masalan, *shakar lab, gul yuz, bulbul, sarv qomat, qoshi kamon, nargis ko`z* va hokazo. Bu xil ko`chimlar ham yuqoridagilar kabi tayyor holda olinadi, biroq ulardan farqli o`laroq, matnda estetik funksiya bajaradi: tasviriylkni, ifodaviylkni kuchaytiradi;

d) badiiy-estetik funksiyadorligi, tasviriylk va ifodaviylkni kuchaytirishi jihatidan muayyan matndagina ko`chma ma`noda qo`llangan, muallifning assotsiativ fikrlashi mahsuli sifatida dunyoga kelgan ko`chimlar alohida o`rin tutadi. Ularni shartli ravishda “xususiy muallif ko`chmlari” deb atashimiz mumkin. Shu xildagi ko`chmlargina yozuvchining muayyan badiiy-estetik maqsadni ko`zlab yo`l qo`ygan semantik sathdagi og`ishi natijasidir. Uning badiiy til bobidagi mahorati xususida gap borganda, avvalo, shu xil ko`chimlar e`tiborga olinishi kerak. Voqelikdagi narsa-hodisalar orasidagi bizga ko`rinmagan, biroq san`atkorona o`tkir nigoh bilan ilg`angan o`xshashlik, aloqadorlik asosidagi ko`chimlar o`quvchini hayratga soladi, unga zavq bag`ishlaydi.

Badiiy asarda eng ko`p qo`llanuvchi ko`chim turlaridan biri metaforadir.

Metafora usulidagi ma'no ko'chishida narsa-hodisalar orasidagi o'xshashlikka asoslaniladi. Tabiatan, metaforani yashirin o'xshatish deb atash mumkin. Yashirin o'xshatish deb atalishiga sabab shuki, metaforada o'xshatilayotgan narsa tushirib qoldirilgani holda o'xshayotgan narsa uning ma'nosini bildiradi. Bunda o'xshatilayotgan narsalardan aynan o'xshashlik talab qilinmaydi, ikki narsa-hodisaga xos belgilardan birortasi asos uchun olinadi. Chunonchi, *oltin kuz, oltin davr* birikmalarining birinchisida “rang”, ikkinchisida “qimmat” asos uchun olingan. Keltirilgan misol metaforaning eng sodda ko'rinishlaridan bo'lib, quyida o'xshashlik aloqalari birmuncha murakkabroq namoyon bo'luvchi xususiy muallif metaforalaridan bir nechasini mushohada qilib ko'ramiz. R.Parfining *Suv ostida yaltiraydi tosh, Xarsanglarda sinadi suvlar* satrlarida metaforaning ma'nosi ikki bosqichda namoyon bo'ladi. Shoir tilimizda ancha keng qo'llaniluvchi suvning oynaga o'xshatilishiga tayanadi (1-bosqich) va shu asosda suvning xarsangga urilib parchalanishini oynaning sinishiga o'xshatadi (2-bosqich). Shoirning *Derazamga uriladi qor, Jaranglaydi jarangsiz kumush* satrlarida metaforaning ma'no assotsiatsiyalari yanada kengroq. Ma'lumki, qorning kumushga (rang o'xshashligi jihatidan) o'xshatilishi ancha keng qo'llanadi. Shoir shu asosda “kumush”ning yana bir assotsiatsiyasini uyg'otadi: qorning yog'ishini “kumush tangalarning sochilishi”ga o'xshatadiki, go'yo kimdir hayr-ehson qilib tanga sochayotgandek. Xalqimizda “qor yog'ishi to'kinlikdan, barakotdan” degan naql bor. Ko'ramizki, qor shoirning assotsiativ fikrlashida avvalo “kumush”ni, keyin xalqimizning maishiy tafakkurida muqim o'rinishgan fikrni uyg'otadi.

Ko'rinadiki, leksik metaforaning mazmuni bir so'z doirasida anglashilishi mumkin bo'lsa, matn ichidagi metaforaning ma'nosi matndagi boshqa so'zlar bilan aloqada oydinlashar ekan. Masalan, shoir yozadi:

Eng dahshatli baqirig – soqovning baqirig'i.

O', qanday kuch bilan baqirar qabrtoshlar...

Albatta, bu o'rinda metaforaning ma'nosi turlicha tushunilishi, u turli o'quvchining ongida turlicha assotsiatsiyalarni uyg'otishi mumkin. Parchadagi birinchi misra ikkinchisining anglanishiga asos bo'ladi. *Soqovning baqirig'idagi*

dahshatli jihat shuki, uni kamdan-kam odam eshita oladi. Qabrtoshlar ham bizni juda ko'p narsalardan ogoh etadi, faqat ularning baqirig`ini doim ham "eshitolmaymiz". Baqirig`ini yonidagi odam eshitmayotganini bilib turgan soqovning holatini tasavvur qilasiz-da, bizni ogoh etib unsiz baqirayotgan qabrtoshlar, ular ortidagi o'tganlar ruhini tasavvur etasiz. Ayni shu nuqtada she'r dilingizni titratadi, boshda tushunarsizdek ko'ringan satrlar qatidagi ma'no ongingizga o'chmas bo'lib muhrlanadi.

Ma'no ko'chishining keng tarqalgan turlaridan yana biri metonimiyadir.

Metonimiya (grekcha "o'zgacha nomlash", "boshqa narsa orqali atash") usulida ma'no ko'chganida narsa-hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik asos qilib olinadi. Bu aloqadorlik turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'lib, bunda narsa-hodisa, holat yoki harakat bilan ular egallagan joy ("stadion hayqirdi", "butun shahar qatnashdi"), vaqt ("og'ir kun", "omadli yil"); harakat bilan u amalga oshiriladigan vosita ("achchiq til"); narsa va uning egasi, yaratuvchisi ("Fuzuliyni o'qimoq"); narsa va yasalgan modda, xom-ashyo ("barmoqlari to'la tilla"); ruhiy holat, xususiyat va uning tashqi belgisi ("ko'z yummoq") kabi aloqalarga asoslaniladi.

Badiiy adabiyotda, ayniqsa, metaforik tafakkur yetakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyotda metonimiya metaforaga nisbatan kamroq uchraydi, o'zining estetik funksiyadorligi jihatidan ham u metaforadan quyiroq turadi. Shunday bo'lsa-da, badiiy matnda metafora bilan yondosh qo'llangan holda u katta badiiy samara beradi, fikrni lo'nda va ta'sirli ifodalashga xizmat qiladi. Misol uchun A.Oripovning "Bahor" she'ridan olingan *Qaydadir yurtini eslab ingrar nay* satrini olib ko'raylik. Cholg'u asbobi orqali kuy ma'nosining berilishi—metonimiya, biroq u *ingrar* metaforasi bilan qo'shilib, kuchli badiiy samara beradi. Yoki *Faryod chekkanim yo`q el ichra taqir, O`ch ham olganim yo`q na qalamimdan* satrlarida ham yana vosita orqali jarayon nazarda tutiladi va u ham *o`ch olmoq* metaforasi bilan baqamti qo'llanadi. Bu ikkisi birgalikda esa "butun vujudim bilan ijodga berilib, alamlarimni unutishga harakat qilmadim" degan ma'noni beradi. Muhimi, shu mazmuni obrazli, ta'sirli ifodalashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi misollarda vosita-harakat aloqasi asosidagi ko`chimni ko`rgan bo`lsak, Usmon Azimning:

Ko`zlarini ochib-yumar

Mitti qushcha – yarador.

Falak, unga najot yubor,

O`lim, bo`lma xaridor satrlarida joy metonimiyasini ko`ramiz. Zero, bundagi *falak* so`zi tafakkurimizda o`rinlashgan ishonch asosida “yaratgan”ni anglatadi.

Ba`zi hollarda obrazni yaratishda metafora va metonimiyaning qorishiq holda kelishi, birgina so`zning ham metonimik, ham metaforik asosdagi ko`chma ma`nolari qo`llanishi kuzatiladi. Shu jihatdan Sh.Rahmonning quyidagi she`riga diqqat qilaylik:

Xazonga aylandi kunlarim...

Motamda turganday boqaman.

Fasllar to`qnashgan lahzada

xazonlar to`pini yoqaman.

She`rning lirik qahramoni – kechmishini sarhisob qilayotgan, o`tgan kunlaridan qoniqmaslik tuyayotgan odam. Shoirning assotsiativ tafakkuri *xazon*da metonimik asosda kuzni, ayni paytda uning o`zida metaforik asosda yana o`tgan, hayot daraxtidan go`yo uzilib tushgan kunlarini ko`radi. She`rning kayfiyatini his qilishda, uni tushunishda *xazon* yetakchi sifatida ahamiyat kasb etadi, go`yo kalit vazifasini bajaradi.

Tropning yana bir turi sinekdoxa bo`lib, u mohiyat e`tibori bilan metonimiyaning bir ko`rinishidir. Sinekdoxaning metonimiya ko`rinishi sifatida qaralishiga sabab shuki, bunda ham aloqadorlik asosida – butun va qism, yakka va umum aloqasi asosida ma`no ko`chishi yuz beradi. Shu bois ham mutaxassislar sinekdoxani metonimiyaning miqdoriy ko`rinishi deb qaraydilar. X. Davronning “Kulol muhabbati” she`rida:

Sahardan to oqshomga qadar,

Ko`kda porlab yonmaguncha oy,

Ertak so`ylar sarxush barmoqlar,

Ertak tinglar qizil rangli loy...

Bu o`rinda ham *ertak so`ylar* metafora bo`lsa, *barmoqlar* sinekdoxadir. *Ertak so`ylar* deganda kulolning o`z ishiga butun mehri bilan berilgan ijodning sehrli onlari nazarda tutiladi. Tabiiyki, ertak so`ylayotgan *barmoqlar* – qism va u butunni – kulolni anglatadi. Yoki M.Yusuf *Faqat shu yer yaqin yurakka, Faqat shunda quvonar ko`zlar* deganida ko`z odam ma`nosini bildirishi ham sinekdoxaga misol bo`la oladi. Yakka narsa nomi bilan umumni nazarda tutish ham sinekdoxa sanaladi. Sh.Rahmon bir she`rida *Qadimda mevalar yetilgan paytda savob deb yashagan komil ajdodim musofir chanqog`in bossin deb atay buzib qo`yar ekan bog`lar devorin* deb yozar ekan, *qadim ajdodim* birikmasi ostida ajdodlarni, butun xalqni nazarda tutadi.

Badiiy asarlarda atoqli otlarning turdosh ot ma`nosida qo`llanilishi ham sinekdoxaning bir ko`rinishi deb qaraladi. Masalan, shoir “*faqat Jumavoyi bo`lgani uchun havaslaring kelar robinzonlarga*” deganida Robinzonga o`xshash hayot kechiruvchi kishilarni – ko`pchilikni nazarda tutadi.

Ma`no ko`chishining yana bir turi “kinoya” (ironiya) bo`lib, u teskari o`xshatishga asoslangan ko`chimdir. Masalan, A.Qodiriy Kalvak maxzumning badbashara qiyofasini chizib bergach, boshqa bir o`rinda uni *husni Yusuf* deb ataydiki, bu birikmaning teskari ma`noda qo`llangani bizga ravshan.

Kinoya qahramonlar tilida ham keng qo`llanadi. Biroq bu holda u ko`chim sifatida emas, ko`proq konkret hayotiy holatga, sog`lom mantiqqa yoxud so`zlovchining maqsadiga muvofiq kelmaydigan gap sifatida ko`rinadi. Kinoya asosidagi bu usul antifrazis deb yuritiladi. Antifrazis tasvir predmetiga yozuvchi munosabatini ifodalashda ayniqsa qo`l keladi. Murod Muhammaddo`stning “Iste`fo” asarida bu usuldan keng foydalanilgan. Masalan, Binafshaxon qizini himoya qilib: “*Qizimiz kimdan kam? O`zi husndor bo`lsa, diplomi yaqin qoldi, aqli odobi joyida. O`zbekcha gapirishniyam biladi...*” - deydi, bu muallif kinoyasi qahramon ma`naviy qiyofasini ochishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ko`chimning yana bir turi allegoriya bo`lib, bunda mavhum tushunchalar konkret narsa-hodisalar orqali ifodalanadi. Badiiy adabiyotda allegoriyalar ko`proq an'anaviy tarzda qo`llanib, ular turg'un holatga kelib ulgurgan. Masalan, badiiy asarlarda *tulki* ayyorlik, *bo`ri* vahshiylik, *eshak* farosatsizlik, *jibljibon* qo`nimsizlik, *buqalamun* tuturuqsizlik kabi ko`chma ma'nolarda qo`llanadi. Badiiy adabiyotda mohiyatan allegoriyaga yaqin bo`lgan ko`chimning bir turi sifatida simvol (ramz) ham qo`llanadi. Simvolning allegoriyadan farqi shundaki, u muayyan matn doirasida ham o`z ma'nosida, ham ko`chma ma'noda qo`llanadi. Masalan, Cho`lpon she'riyatidagi *yulduz*, *bulut*, *bahor*, *qish* obrazlari buning yorqin misoli bo`la oladi. Ramzning tabiati haqidagi fikrlarni R.Parfi she'ridan olingan tubandagi parcha misolida ham ko`rishimiz mumkin:

Yana keldim mahzun go`shaga

Bunda bir nay yotibdi sinib.

Qo`y sig`inma ortiq o`shanga,

Qo`y sig`inma unga sevgilim...

Parchadagi *singan nay* ramzdir. Mazkur ramzni o`z ma'nosida ham, lirik qahramonning yo`qotilgan hislari, armonga aylangan orzulari ma'nosida ham tushunish mumkin. Ikkinchi holatda *singan nay* ramz sifatida qabul qilingan bo`ladi. Muhimi shundaki, *singan nay* bilan "yo`qotilgan hislar, armonga aylangan orzular" orasida hech qanday, ya'ni, metaforadagi kabi o`xshashlik yoki metonimiyadagi kabi aloqadorlik asosidagi munosabat mavjud emas. Ya'ni, *singan nay* faqat shu matn doirasidagina shartli ravishda o`sha mazmunni ifodalashi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, birgina tadqiqot doirasida badiiy tasvir va ifoda vositalarini atroflicha tavsiflab bo`lmaydi. Buning imkoni yo`q. Chunki poetik tasvir va ifoda vositalarini atroflicha tahlil qilish alohida tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

Bob bo'yicha xulosalar:

1. Badiiy uslub adabiy tilning boshqa vazifaviy uslublaridan 1) o'quvchi yoki tinglovchiga estetik ta'sir etishni maqsad qilib qo'yishi; 2) badiiy tasvir vositalari va obraz yaratish imkoniyatlariga egaligi; 3) unda adabiy tilning barcha uslublariga xos elementlar aralash holda qo'llanilishi; 4) til vositalaridan individual – ijodiy foydalanish, ularni tanlab ishlatish imkoniyati mavjudligi kabi asosiy xususiyatlariga ko'ra tafovutlanadi.

2. Til badiiy nutqda obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi sifatida xizmat qiladi. Badiiy til o'zining obrazlilik bilan adabiy tilning boshqa ko'rinishlaridan farq qiladi. Badiiy til umumxalq tili bazasida shakllanadi, qisman adabiy til me'yorlariga yaqinlashadi va o'zni bilan adabiy til me'yorlaridan chekinadi.

3. Poetik tilning o'ziga xosligini belgilovchi eng muhim xususiyatlar obrazlilik va emotsionallikdir. Ijodkor tasavvurida yaralgan obraz badiiy so'z vositasida moddiylashadi, shu bois ham badiiy til obraz yaratish vositasi sanaladi.

4. Badiiy nutq ikki – sochma (nasr) va tizma (nazm) shaklda mavjuddir. Nasriy nutq tuzilishi jihatidan kundalik muloqot tiliga o'xshash bo'lsa, she'riy nutq muayyan bir o'lchovga solingan, hissiy to'yintirilgan nutq sanaladi.

5. Badiiy asarda narsa-hodisani jonli tasvirlash, qahramon his-tuyg'u va kechinmalarini yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalar “badiiy tasvir va ifoda vositalari” deyiladi. Badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat bo'lmish obrazlilik va emotsionallikni kuchaytiruvchi unsurlardir.

6. Poetik nutqda so'z ma'no ko'chishi – tropning metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya singari bir qator ko'rinishlari mavjud. Poetik nutqda ishlatilish darajasi, badiiy bo'yoqdorligi, ta'sirchanlik darajasi bilan farqlanuvchi a) bir qismi allaqachon til hodisasiga aylanib ulgurgan ko'chimlar; b) an'anaviy tarzda ishlatilib kelayotgan ko'chimlar; d) muallifning assotsiativ fikrlashi mahsuli sifatida dunyoga kelgan “xususiy muallif ko'chimi” alohida o'rin tutadi. Badiiy asarda eng ko'p qo'llanuvchi ko'chim turlaridan biri metaforadir.

III BOB. HOKIM A'ZOSI OTLI SO`Z BIRIKMALARINING POETIK-SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Badiiy tasvirning leksik vositalarini tadqiq etgan professor E.Qilichev “So`z – badiiy tasvirning asosiy vositasi, obraz yaratishning, uni induviduallashtirishning muhim omillaridan biri” degan xulosaga keladi [31]. Shunday ekan, so`z birikmalari ham so`zlar singari badiiy tasvirning o`ziga xos vositasi, eng asosiysi, obraz va obrazli ifoda yaratish usuli hamda nutqiy omili bo`la oladi. Fikrimizning isboti uchun ushbu masalaga aloqador ba`zi ilmiy dalillarni keltirish o`rinlidir. Chunonchi, E.Qilichev “konnotativ ma`noga nisbatan neytral bo`lgan *po`lat* so`zining *po`lat iroda* birikmasida kuchli konnotativ ma`noga ega bo`lishi uning denotativ ma`nosini o`zgartiradi” degan [31,14] mulohazani bildirar ekan, *po`lat iroda* so`z birikmasidagi *po`lat* so`zining konnotativ ma`nolari faqat nutqda, ma`lum bir kontekstda mavjudligini, ichki konnotativ ma`nodan farqli o`laroq, nutqiy hodisa bo`lib, so`zning semantik strukturasi, uning paradigmatic ma`nosiga kirmasligini qayd etadi. Zero, *po`lat iroda* birikmasida tobe so`z, ya`ni *po`lat* metallning bir turini ifodalashga xizmat qilmaydi. Bu kontekstdagi *po`lat* so`zi “kuchlilik, pishqlik, mustahkamlik” umumiy semasi asosida birlashadigan *mustahkam, bukilmay, sinmay, qattiq, kuchli* so`zlari paradigmasida teng huquqlidir. Shu sababdan nutqiy ehtiyoj va sharoitga qarab *iroda* so`zi mazkur so`zlar qurshovidan birini tanlab birikadi va so`z birikmasi mazmunida mujassamlashgan tushuncha aniqlashadi. Biroq nutqiy ehtiyoj tufayli *po`lat iroda* birikmasi hosil qilinsa va lisoniy sintaktik imkoniyat tasviriy vosita sifatida voqelashsa, unda tushuncha nafaqat aniq, balki yorqin, ta`sirchan ifodalangan, ayni paytda, til sohibi ko`z o`ngida yaqqol gavdalanadigan obrazga teng bo`ladi. Demak, so`z birikmalari so`zga qaraganda tushunchani aniq va muayyan ifodalashi barobarida tushuncha asosidagi obrazni ham yaqqol gavdalanantira oladi. Buni tadqiq manbayi sifatida tanlangan so`z birikmalarining bir turi – otli birikmalarining badiiy nutqda qo`llanilishi orqali kuzatish mumkin.

3.1.Otli birikmalarning poetik nutqdagi ko`rinishlari

Ushbu bo`lim otli birikmalarning poetik-sintaktik imkoniyatlarini aniqlash vazifasini amalga oshirishda muhim o`rin tutadi. Zero, o`zbek tilining poetik qudratini o`z ijodida namoyon etgan shoirlar – Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon va Eshqobil Shukur she`riy asarlarida qo`llangan otli birikmalarning tahliliga bag`ishlanadi.

Otli birikmalarning poetik nutqda qo`llanilishini o`rganish uchun Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon va Eshqobil Shukur she`riyati bejiz tanlanmagan. Negaki, bu shoirlarning har biri o`zbek adabiyotida salmoqli o`rin egallaydi.

Ta`kidlash joizki, A.Oripov XX asr o`zbek she`riyatida “so`zning sehri va jilvalarini ilohiy bir sezim bilan his etgani va namoyon eta olgani, so`z dalasidagi ellik yillik zahmatlari bilan chin shoir” degan nomga musharraf bo`lgan. Sh.Rahmon she`rlarida ijtimoiy voqelik tabiat hodisalari bilan uyg`unlashgan bo`lsa, E.Shukur ijodida xalqona ohanglar zamon ruhiga singdirilgan. Lingvopoetik jihatdan yondashganda bu shoirlar ijodi poetik yetuk namunalarga boyligi bilan ajralib turadi.

Aslida, ijod – bu kashfiyot, yaratish zavqi, o`z-o`zini anglash namoyon qila bilish, o`z haqiqatiga o`zgalarni ishontirish va ergashtirish, butun bir muhitni o`zgartirishga intilish qudrati ilohiy ilm va zehn, olam va odamni ichdan chuqur bilish san`ati hamda mas`uliyati. A.Oripovning o`z ta`biri bilan aytganda “ehtiyoj farzandi”. Doniyor Begimqulov ta`riflaganidek, A.Oripov she`rlari “uning tilga nisbatan zargarona munosabatidan guvohlik berib turadi”. Bizningcha, bu ta`rif Sh.Rahmoh, E.Shukurga ham daxldor. Buning qanchalik dahldorligi Sh.Rahmoh, E.Shukur she`rlarida voqelashgan otli birikmalarning tahlili natijasida o`z isbotini topadi.

Har qanday nutq kabi poetik nutq ham individuallik xususiyatiga ega. Shuning uchun poetik nutq individual nutq hisoblanadi. Yana shuning uchun ham individualki, u shoir yoki yozuvchi ijodiy imkoniyatlarining mahsulidir. Zero, ijodkor shaxsiga xos badiiy tafakkur tarzi va lisoniy ong imkoniyatlari poetik

nutqda voqelashadi va uni individual ijod mahsuliga aylantiradi. Aynan ijodiy individuallik aks etganligi tufayli poetik nutq betakror va alohida hodisadir.

O`zbek tilining poetik sintaktik imkoniyatlarini o`z ijodi mahsulida namoyon etgan uch shoir – Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon va Eshqobil Shukur she`riyati poetik nutqning uch ko`rinishi bo`lib, har biri alohida betakror hodisa, desak yanglishmaymiz. Chunki o`ziga xoslik va betakrorlik nafaqat poetik nutq ko`rinishlarida, balki poetik mahorat belgisi o`laroq badiiy so`z va ifoda vositalar tanlovida ham namoyon bo`ladi. Xususan, badiiy tasvirda qo`llangan so`z birikmalarining hokim a`zosi ot leksemali turlari bu uch shoir yaratgan poetik nutq namunalarida ijodkor individualligini ta`kidlovchi o`ziga xos ko`rinishlariga ega bo`lib, ular bir-birini takrorlamaydi.

Chunonchi, quyidagi hosilalar otli birikmalarning A.Oripov poetik nutqiga xos ko`rinishlaridir:

qonli sahna, sirli sukunat, shirin tush, kichkina hasrat, suluv tilim, kunduz mash`alasi, musaffo chiroy, ilhom guli, kumush shabnam, osmon gumbazi [59; 60].

Otli birikmalar poetik nutqda rang-barang variantlariga ega. Jumladan, hokim a`zosi otli birikmalarning Shavkat Rahmon poetik nutqiga xos qirqdan ortiq ko`rinishlari mavjudligini aniqladik:

daryo dil, jodugar navo, yop-yorug` xayollar, fosiq dunyo, zumrad g`o`ralar, bolakay shamol, qari tog`, yuvosh nurlar, yetim yalpizlar, homilador bog`, ulug` o`lim, o`ychan daryo, o`jar sochlar, shu`laviy qo`llar, majnun ko`zlar, qip-qizil qanor, temir pardalar, sangin saltanat, jez kallalar, yorug` anduh, go`l yer, olov shamol, qushlar faryodi, g`amlar bulog`i, tong ko`ylagi, osmon olmazori, yerning yuragi [61].

Quyida berilgan nutqiy hosilalar otli birikmalarning Eshqobil Shukur poetik nutqiga xos ko`rinishlari mazkur so`z birikmalarining poetik variantlari sifatida voqelashgan:

moviy shamol yollari, muzliklar kulgusi, shoyi shafaqlar, oying nikoh to`yi, muzlagan ovoz, yam-yashil ohanglar, yam-yashil so`zlar, yashil raqs, moviy

cheksizlik, sariq daryolar, to`rt unsur go`zali parivash olov, tabassum tovushi, yig`i ziyosi, suyak qadahlar, po`lat til, havo so`z [62].

Keltirilgan nutqiy dalillar otli birikmalarning poetik ko`rinishlari bo`lib, har bir poetik nutqning alohidaligi, o`ziga xosligi, betakrorligidan darak beradi. Ulardagi alohidalik, o`ziga xoslik va betakrorlik shundaki, har bir birikma o`z ijodkori tilning badiiy obraz yaratish imkoniyatlarini qay tarzda, qanday usulda voqelashtirganligini aniq ifodalaydi. Chunki A.Oripov poetik nutqiga xos otli birikmalar Sh.Rahmon va E.Shukur poetik nutqidagi variantlaridan va aksincha, otli birikmalarning Sh.Rahmon poetik nutqiga xos ko`rinishlari A.Oripov va E.Shukur yaratgan variantlardan butkul farqlanadi. Buni oddiygina samoviy kenglikning badiiy ifodasiga aylangan *osmon gumbazi* (A.Oripov), *osmon olmazori* (Sh. Rahmon), *moviy cheksizlik* (E.Shukur) birikmalarini qiyoslash orqali ham aniqlash mumkin. Farqlanish birikmani shakllantiruvchi lisoniy vositalar va imkoniyatlarning tanlovi hamda o`rinli qo`llanishi, asosiysi, obraz yaratish mahoratida aks etadi. Bu jihatdan hech bir ijodkor boshqasiga o`xshamaydi va o`xshamasligi lozim.

Otli birikmalar biz kuzatgan poetik nutqdagi variantlariga qaraganda ko`proq rang-baranglik va betakrorlik qirralari bilan moddiylasha oladi. Zero, poetik nutq voqelikka aylanar ekan, nutq muallifi yuzaga keltirgan muayyan otli birikma so`z birikmalarining shu turiga tegishli poetik variant alohida, yakka, betakror hodisa sifatida moddiylashadi. Demak, uch ijodkor she`riy asarlarida reallashgan otli birikmalar uch xil poetik nutqni farqlab turadi va har bir poetik nutq alohida, yakka va betakror hodisa ekanligidan dalolat beradi.

Yuqorida otli birikmalarning A.Oripov, Sh.Rahmon va E.Shukur poetik nutqlariga xos ko`rinishlarida alohidalik, o`ziga xoslik qay tarzda, qanday usulda voqelanganligini o`rganish masalasi keyingi bo`limda tahlil qilinishi rejalashtirilgani bois ochiq qoldirildi. Bu masala atroflicha tahlil qilinishi lozim. Shundagina otli birikmalarning poetik nutq individualligi va betakrorligini belgilashdagi o`rni va ahamiyatini aniqlash mumkin.

3.2. Otli birikmalar – poetik nutq vositasi

Soʻz birikmalarining poetik imkoniyatlarini otli birikmalarning badiiy nutqda voqelanishi asosida oʻrganish mazkur birliklarning poetik-sintaktik imkoniyatlari haqida maʼlumot bera oladi. Navbatdagi vazifa soʻz birikmalari orasida koʻp va keng qoʻllanilishiga koʻra ajralib turadigan otli birikmalarning badiiy tafakkur mahsuli – poetik asarlarda voqelanishini tahlil qilishni taqozo etadi. Shunga kora, ushbu boʻlim oʻzbek tilining badiiy imkoniyatlarini oʻz ijodi orqali namoyon etgan shoirlar –Abdulla Oripov, Eshqobil Shukurning asarlarida qoʻllangan otli birikmalarning tahliliga bagʻishlanadi. Tabiiyki, bu shoirlarning poetik asarlari toʻliq qamrab olinmaydi. Chunki bir tadqiqotda ularning barcha poetik asarlarini toʻliq qamrab olishning imkoni yoʻq. Shuning uchun otli birikmalarning poetik nutqda qoʻllanilishini tahlil qilish maqsadida Abdulla Oripovning “Yillar armoni”, “Menga xush xabar ayt” sheʼriy toʻplamlaridagi, Shavkat Rahmonning “Saylanma”sidagi, Eshqobil Shukurning “Hamal ayvoni” nomli toʻplamidagi sheʼriy asarlari tanlab olingan.

Mazkur boʻlimda Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon va Eshqobil Shukurning asarlarida qoʻllangan otli birikmalarini tahlil qilish belgilangan ekan, birinchi navbatda, poetik nutq koʻrinishlarida otli birikmalarga tegishli nutqiy variantlar voqelashganligini kuzatish zarur. Poetik asarlar matni bilan tanishar ekanmiz, unda tadqiq manbayi hisoblangan soʻz birikmalarining xilma-xil koʻrinishlari koʻp miqdorda qoʻllanganligiga guvoh boʻldik. Muhim jihati shundaki, Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon va Eshqobil Shukur sheʼrlari matnida kuzatilgan $[I \sim O]=SB$, $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}]=SB$ LSQlarining badiiy nutqda voqelanishini tasdiqlovchi nutqiy dalillar koʻpchilikni tashkil etadi. Bu nutqiy dalillar rang-barang boʻlib, bir-biriga oʻxshamaydi:

1. *Borliq jim kuzatar **qonli sahnani**,*

*Har yonda vahmkor, **sirli sukunat**. [60,5]*

2. *Ne chogʻlik sehrlikсан*

Sen oʻzing, yupanch soʻzi?

*Sen goʻyo **shirin tushsan***

Yoki umid yulduzi. [60,7]

3. *Kichkintoy nabiram labi pirpirab,*

Kichkina hasratin ochdi bir kuni. [60,35]

4. *Tanidim yurtimni, qadim elimni,*

Alisher so`zlagan suluv tilimni. [60,46]

She'riy parchalarda *qonli sahna, sirli sukunat, shirin tush, kichkina hasrat, suluv til* birikmalari [I~O]=SB qolipining nutqiy voqelanishi asosida yuzaga chiqqan. Muallif tilimizda sifat va ot birikuvining yorqin dalillari oqrali [I~O]=SB qolipi obrazli ifodalar hosil qilish imkoniyatini ko`rsata olgan. Zero, bu obrazli ifodalarda xususiyat, holat, rang-tus, maza-ta'm, o`lchov bildiruvchi sifatlarning joy, narsa, hodisa, mavhum otlar bilan birikish imkoniyatlari voqelashgan. Chunonchi, *qonli sahna* birikmasida xususiyat sifati va joy nomi; *sirli sukunat* hosilasida xususiyat sifati va mavhum ot; *shirin tush* birikmasida maza-ta'm sifati va hodisa nomi; *kichkina hasrat* birikmasida o`lchov sifati va mavhum ot; *suluv tilimni* hosilasida esa xususiyat sifati va hodisa nomi o`zaro sintaktik aloqaga kirishgan. Ayrim so`z birikmalarida sifat va ot adabiy til me'yoriga zid holda birikkan bo`lsa ham, bu badiiy nutq qonuniyatiga muvofiqligini ta'kidlash lozim. Masalan, *shirin tush* birikmasida maza-t a'm sifati hodisa nomi bilan, *kichkina hasra* birikmalasida esa o`lchov sifati mavhum ot bilan birikishi adabiy til me'yoriga zid. Chunki adabiy tilning sintaktik me'yoriga ko`ra, *tush* oti maza-ta'm sifati *shirin* bilan yoki *hasrat* oti o`lchov sifati *kichkina* bilan sintaktik munosabat hosil qilmaydi. Biroq poetik nutq adabiy tildan farqli o`laroq, poetik sintaksis qonuniyati asosida maza-ta'm sifatining shu sifatga ega bo`lmaydigan hodisa nomi bilan yoxud o`lchanmaydigan mavhum otning o`lchov sifati bilan sintaktik aloqa hosil qilishiga imkon beradi. Shu bois poetik nutqda *shirin tush, kichkina hasrat* kabi birikmalar me'yoriy sanalib, obrazli ifodalarni hosil qiladi. Muhimi, shoirning lisoniy imkoniyatlarni poetik nutq vositalariga aylantirish mahoratidir. [I~O] qurilmali so`z birikmalari A.Oripov poetik sintaksisiga xos obrazli ifodalarga aylanganligi ijodkor mahoratidan dalolat beradi.

Shoirning boshqa she'rida *shirin* sifati umumiy belgini emas, balki predmetga qiyoslanayotgan belgini ifodalagan. Ammo bunda *shirin* leksemasi otli birikmani emas, balki hokimlik mavqeyida sifatli birikmani hosil qiladi. Bu ijodkor tilning boshqa, ya'ni $[I^{m.v} \sim I] = SB$ qolipining nutqiy voqelanish imkoniyatidan foydalanganligini ko'rsatadi:

Barg aro shu'lalar kaftlarmikan u,

Bahor tetapoya go`dakday shirin. [59, 131]

Shoirning "Yulduzlar" she'rida *musaffo chiroy, ilhom guli, kumush shabnam, osmon gumbazi* birikmalarini kuzatish mumkin:

Yulduzlar, o bo`shliq, musaffo chiroy!

Sen ilhom gulida kumush shabnamday.

Ucharman siz bilan bir kun paydar-pay,

Osmon gumbazida bahsga tushganday. [59, 29]

Matnda lisoniy qurilish mohiyati $[I \sim O] = SB$ va $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ LSQlarida umumlashadigan otli birikmalarning ikki xususiy ko`rinishi reallashgan. Ularning birinchi ko`rinishi $[I \sim O] = SB$ LSQi asosida yuzaga kelgan *musaffo chiroy, kumush shabnam* hosilalari bo`lsa, ikkinchisi $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ LSQi asosida vujudga kelgan *ilhom guli, osmon gumbazi* birikmalaridir. Ko`rinadiki, Abdulla Oripov otli birikmalarning lisoniy qurilish xususiyatiga ko`ra farqlanadigan ikki turidan poetik obrazlar hosil qilgan. Koinot va yulduzlarning insonga noma'lum tabiati bo`shliq hosil qilishi tabiiy. Anglanmagan tabiat inson uchun hamisha sirli va go`zal. Shuning uchun bu sirli olam go`zalligini muallif *musaffo chiroy* birikmasi orqali obrazli ifodalagan. Ayni paytda, yulduzlarga nisbatan qo`llangan *kumush shabnam*, olamni qiyofalantirgan *ilhom guli* tashbehlarida otli birikmalarning poetik nutqda ochilajak imkoniyatlari badiiy voqelikka aylantirilganligi hayratlantiradi.

Yana bir misolni ko`zdan kechiraylik:

O, nahot shu ko`zlar yotdir men uchun

Kunduz mash'alasi porlab turganda. [59, 47]

Poetik nutq ijodkor badiiy-estetik olamini bir butunlik sifatida tashkil etuvchi obrazlarlar bilan tanishtiradi. A.Oripov badiiy-estetik olamida *kunduz*

mash'alasi koinotda mavjud son-sanoqsiz galaktikalardan biri bizning galaktikamizning yadrosi hisoblanmish eng yirik osmon yoritqichi – quyoshning poetik obrazidir. Faqat biz uchun muhimi, uning kunni mash'ala misoli yoritib turishiga o'xshashligi hosil qilgan metafora va metaforani shakllantirgan otli birikmadir. Birikmada tobe a'zo (*kunduz*) egalik shaklidagi hokim a'zo (*mash'ala*) talabi bilan bosh kelishik shaklida yuzaga chiqqan. Tobening bosh yoki qaratqich shaklida voqelanish imkoniyatlaridan biri reallashib, sintaktik [qaratuvchi-qaralmish] ma'noli so'z birikmasi [I^{q.k.}~I^{e.k.}]=SB LSQi asosida hosil bo'lgan. Demak, [I^{q.k.}~I^{e.k.}]=SB LSQi ham, [I~O]=SB LSQi ham poetik nutqda obrazlar yaratish, metaforani yuzaga chiqarishga imkon bera oladi. Shunga ko'ra, ularni poetik sintaksisda badiiy tasvir vositalarini shakllantiruvchi lisoniy sintaktik omil sifatida baholash mumkin.

Shavkat Rahmonning “Saylanma”si[61]da jamlangan she'rlarini ko'zdan kechirganimizda, qirqdan ortiq otli birikmalar reallashganligiga guvoh bo'ldik. Xususan, [I~O]=SB LSQi asosida yuzaga kelgan *daryo dil, oq sukunat, jodugar navo, yop-yorug` xayollar, yorug` lahza, fosiq dunyo, yorug` bosh, zumrad g`o`ralar, bolakay shamol, qari tog`, yuvosh nurlar, yalang`och shamol, sayoq shamol, nuroniy tog`, yetim yalpizlar, homilador bog`, ojiza bog`, ulug` o`lim, yot o`lim, o`ychan daryo, o`jar sochlar, shu'laviy qo`llar, majnun ko`zlar, qip-qizil qanor (anor), temir pardalar, hur fikr, sangin saltanat, jez kallalar, mangu anduh, yorug` anduh, go`l yer, olov shamol* birikmalari qo'llanganligini aniqladik. Bu qolip hosilalari Sh.Rahmon poetik sintaksisida metafora usulida hosil bo'lgan ko`cimlarni shakllantirgan.

Masalan, “Manzara” she'rida shaharning kundalik hayot manzarasi *oq sukunat* metaforasi bilan tasvirlanadi:

*Oq sukunat portlar saharda,
kun nurida yonib, yaraqlab,
chopib kirar sovuq shaharga...* [61,10]

Poetik nutq borliqdagi narsa-hodisalarni shoir tafakkuri qanday obrazlarda aks ettirishini ko'rsatadi. Sh.Rahmon tafakkur ko'zgisida aks etgan borliq

g`ayritabiiy, favqulodda belgi-xususiyatlari bilan namoyon bo`ladi. Shuning uchun shoir poetik sintaksisida *navoning* sehri **jodugar**; *xayollar* sofligi **yop-yorug`**; *lahzaning izi* va *bosh* faoliyati **yorug`**; *dunyo* mohiyati **fosiq**; *g`o`ralar* rangi **zumrad**; *shamolga* xos odatlar **bolakay**, **yalang`och** va **sayoq**; *tog`ning surati* **qari** va **nuroniy**; *nurlarning tabiati* **yuvosh**; *yalpizlarning holati* **yetim**; *bog`ning qiyofasi* **homilador** va **ojiza**; *o`limning tavsifi* **yot** va **ulug`**; *daryoning holati* **o`ychan**; *sochlarning fe`li* **o`jar**; *qo`llarning atvori* **shu`laviy**; *ko`zlarning mazmuni* **majnun** sifatleri bilan gavdalanadi. Bu bejiz emas, albatta. Agar matnda *jodugar* navo sehrliligi, *fosiq dunyo* bo`hton-u yolg`onlar ko`paygan dunyo yoki fisq-fasod makoni kabi birikmalar bilan ifodalanganda edi, biz Sh.Rahmonga xos poetik uslubni, qolaversa, shoirning “men”ini ilg`ab ololmas edik.

Oddiygina misol, anorga “Qasida” she`ridagi *qip-qizil qanor* birikmasi shoirning uslubi – “o`zligi” haqida yetarli ma`lumot beradi:

Tutilgan oy, qadimgi fanorsan, anor.

yoqut to`la qip-qizil qanorsan, anor.[61, 152]

Anor poetik nutqda badiiy qiyofasi ko`p va o`zi ham turli-tuman tasvir vositasiga aylangan obrazdir. Lekin Sh.Rahmon yaratgan anor – *qip-qizil qanor* obrazi betakror. Uni ijodkorning poetik mushohada kuchi va lisoniy tafakkur qudratini o`zida mujassam etgan ramz desak, yanglishmaymiz. Chunki birgina sifat va ot birikuvidan vujudga kelgan birikma butun boshli ijodkor iste`dodi, uslubi va shoir siymosi aks etadi. Poetik ramzlarga evrilgan bunday otli birikmalar shoir sintaksisida ko`pchilikni tashkil etadi. Aynan *daryo dil*, *bolakay shamol*, *sangin saltanat*, *jez kallalar*, *mangu anduh*, *tong ko`ylagi* kabi obrazli ifodalar Sh.Rahmon so`z san`atini boshqa shoirlardan farqlab turadi.

Shuningdek, [I^{q.k.}~I^{e.k.}]=SB LSQi yuzaga keltiruvchi *qushlar faryodi*, *g`amlar bulog`i*, *muhabbatning asri*, *tong ko`ylagi*, *osmon olmazori*, *istibdodning tug`lari*, *yerlarning zo`ri*, *yerning yuragi* singari birikmalar ham shoir poetik sintaksisiga xos ifoda vositalarini shakllantirgan. Chunonchi, “Bashorat” she`rida mazkur LSQ *istibdodning tug`lari* hosilasini voqelashtirgan:

Surilar bu temir pardalar,

*istibdodning tug`lari qular,
mog`or bosgan qora qa`rlardan
milyon ozod ruhlilar turar.*[61,155]

Hukmronlik belgisini anglatuvchi *tug`* leksemasi *istibdodning tug`lari* birikmasida sho`ro hukumatining, umuman, zo`rlik, qaramlik siyosatining nishoni sifatida hokim–qaralmish mavqeyida kelgan. Ma’naviy qullik va moddiy qaramlikni anglatuvchi *istibdod* leksemasi tobe – qaratuvchi mavqeyini egallab, [qaratuvchi-qaralmish] munosabati poetik-sintaktik mazmun kasb etganligidan dalolat beradi. Bu mazmun birikma she’r matnida reallashtirgan xususiy, ya’ni “hukmronlik va unga xos belgi” ma’nosida ko`zga tashlanadi. Demak, [qaratuvchi-qaralmish] ma’nosini ifodalovchi otli birikmalar poetik nutqda badiiy tasvirni shakllantiradi va Sh.Rahmon poetik sintaksisini tashkil etgan [I^{q.k.}~I^{e.k.}]=SB LSQi hosilalari buning dalili bo`la oladi.

Bundan tashqari, Sh.Rahmon poetik nutqida [tur-jins] ma’nosini ifodalovchi otli birikmalar, ya’ni [O^{b.k.}~O^{e.k.}]=SB qolipi hosilalarini ham uchratish mumkin:

1. *G`am so`zin elimdan avvalroq aytdim,
baxt so`zin aytaman eldan keyinroq.* [61,201]
2. *Sabr daraxtiday o`sgan odamlar–
saksovul singari chidamli, chayir...*[61,223]
3. *It bazmi qizigan oysiz shomlardan
qizg`onib obqochdim daryo dilimni.* [61,5]

G`am so`zi, baxt so`zi, sabr daraxti, it bazmi birikmalari [tur-jins] ma’noli so`z birikmalarining poetik ko`rinishlari bo`lib, goh insoniy tuyg`ularning, goh inson matonati va gohida ayrim kimsalar yig`inini ifodalovchi kuchli obrazlarga aylangan.

Poetik sintaksisda otli birikmalarining obrazli ifodalarni shakllantirishi ilm ommasiga ayon haqiqat. Ayni paytda, har bir ijodkor sintaksisi otli birikmalar obraz yaratish vositasiga aylanishini tasdiqlash uchun alohida tadqiqot olib borishni talab qiladi. Tadqiqotimizdagi kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, Sh.Rahmon she’riy asarlarida q`ollangan otli birikmalar ijodkor poetik sintaksisiga xos obrazlar

silsilasini hosil qilishga xizmat qilgan va muallif uslubini belgilovchi metaforalarni shaklantirgan. Buning isboti uchun *zumrad g`o`ralar, sayoq shamol, yetim yalpizlar, homilador bog`, qip-qizil qanor (anor), majnun ko`zlar, osmon olmazori, istibdodning tug`lari* ham yetarli deb o`ylaymiz.

Eshqobil Shukurning “Hamal ayvoni” to`plamiga [62] kirgan she`rlarda otli birikmalarning uchala guruhiga mansub nutqiy dalillarni kuzatdik. Chunonchi, birgina “Hayotga qasida” she`ri otli birikmalar miqdoran ko`pligi va xilma-xilligini tasdiqlay oladi:

1. Qara, qanday *moviy shamol yollari*,

Qanday shirin uxlar momaqaldiroq.

Muzliklar kulgusi qanday otashin,

Qanday so`zanalar to`qiydi chaqmoq. [62, 5]

Poetik nutq parchasida voqelashgan birikmalar *moviy shamol yollari*, *muzliklar kulgusi* ko`rinishida bo`lib, oldingi birikma murakkab so`z birikmasi va keyingisi sodda so`z birikmasi hisoblanadi. *Moviy shamol yollari* lisoniy qurilishiga ko`ra [TB~SB]=MSB qolipi hosilasi o`laroq badiiy nutqda voqelanish imkoniyatini yuzaga chiqargan. Buni ta`kidlashdan maqsad murakkab so`z birikmalari ham sodda so`z birikmalari kabi badiiy nutqda cheklanmagan miqdorda voqelanish imkoniyatiga egaligidir. Ifodamlanmish predmet yoki belgi-xususiyatning o`quvchi ko`z o`ngida aniq tasvirlash niyati ijodkorni tilning sintaktik birliklar va lisoniy sintaktik imkoniyatlar zahirasidan unumli foydalanishga undaydi. Natijada, shoir yoki so`z ustasi nafaqat so`zni to`g`ri va o`rinli tanlash, balki so`zlarning birikish usullari va til sathida tayyor model(qolip)lardan mosini tanlash qobiliyatini namoyish qiladi. Shu jihatdan yondashganda, E.Shukur poetik nutqda *moviy shamol yollari* birikmasini [TB~SB]=MSB qolipi va *muzliklar kulgusi* so`z birikmasini esa [I^{q.k.}~I^{e.k.}]=SB qolipi asosida hosil qilganligini qayd etish kerak. Muhimi shundaki, shoirning maqsadi murakkab yoxud sodda so`z birikmalarini hosil qilish va o`zbek tilida aynan shu qoliplargina so`z birikmasi hosil qilishini ko`rsatish emas. Ehtimol, shoir *moviy shamol yollari* birikmasi [TB~SB]=MSB qolipi va *muzliklar kulgusi*

birikmasi [I^{q.k.}~I^{e.k.}]=SB qolipi asosida yuzaga kelishi haqida tasavvurga va bu lisoniy qoliplarning tilda mavjudligi to`g`risida lingvistik bilimga ham ega emasdir? Balki, ijodkordan lingvistik bilimni talab qilish mantiqqa ziddek tuyular? Nima bo`lganda ham, bu kabi savollarning tug`ilishi tabiiy. Chunki ijodkor til vositalaridan foydalanar ekan, badiiy tasvirni shakllantiruvchi til birliklarining lisoniy mohiyatini bilishga ehtiyoj sezmaydi. O`z lisoniy tafakkurida umumlashgan til bilish va amalda qo`llash qobiliyatlarini beixtiyor ijod mahsulida yuzaga chiqaradi. Uning ijodiy ishi, ya`ni badiiy asar ijodkor badiiy so`z mahorati, individual uslubi va, eng asosiysi, lisoniy tafakkur darajasi haqida ma`lumot beradi. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, nainki Eshqobil Shukur, balki Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon va istalgan shoir yoki yozuvchining badiiy asarida ijodiy “men”i, ya`ni o`zligini poetik obrazlar gavdalantiradi.

Eshqobil Shukur she`rlarida *moviy shamol yollari*, *muzliklar kulgusi* (va boshqalar) tiriklik, hayotning jonli ifodasiga aylangan. Asarda rangsiz *shamolning moviy* tusga kirishi va uchqur ot kabi *yollari* borliqdagi bu tabiiy hodisaning shoir dunyoqarashidagi abadiy tirik hodisaning poetik obraziga evrilgan. Shamolning to`xtovsiz, tinim bilmas harakati hayotning cheksiz davomiyligini ifodalovchi badiiy timsolga asos bo`lgan. Samoning moviy kengliklari uzra yollari yoyilib, sarsari yelayotgan uchqur ot kitobxon ko`z o`ngida shamolning poetik tasvirini paydo qiladi. Bu tasvirni chizgan shoir, tabiiyki, [TB~SB]=MSB lisoniy sintaktik qolipidan yoki tilning emotsional-ekspressiv bo`yoqdor leksik qatlami va badiiy tasvirning metaforik ifoda usulidan foydalanganligiga shubha ham qilmaydi. Shubha u yoqda tursin, hatto til zahirasida mavjud qanday imkoniyatlar nutqqa, yo`q, oddiygina nutq emas, balki estetik zavq va ko`tarinki ruh bag`ishlovchi, nozik did va ma`naviy yuksak ideallarni tarbiyalovchi poetik nutqqa aylanayotganligini sezmaydi ham. Zero, ijodkorning maqsadi tilning boy zahirasi va lisoniy imkoniyatlarini ko`z-ko`z qilishdan iborat emas. Uni birgina maqsad boshqaradi: shaxsning jamiyat va borliq bilan aloqador turli mazmun-mohiyatdagi munosabatlar negizida dunyoga keladigan ichki kechinmalari, o`rzu-o`ylari, intilishlarini o`z badiiy tafakkuri mahsulida obrazlarga ko`chirishdir. Ayni shu

maqsad E.Shukur she'rlarida *moviy shamol yollari, muzliklar kulgusi* va yana ko'plab rang-barang obrazlar silsilasini yuzaga keltirganki, ularning sintaktik xususiyatlari diqqatimiz markaziga ko'chadi.

Muzliklar kulmasligi yosh bolaga ham ma'lum, ammo badiiy matnda bu doimiy sovuq, birday qattiq moddaning "kulgusi" iliq haroratni o'qiyotgan har bir kishi qalbida uyg'ota oladi. Bunga sabab, matnda *muzliklar kulgusi* obrazini hosil qilgan metaforadir. Tadqiqotning oldingi bobida badiiy tasvirni hosil qiluvchi vosita va usullar to'g'risida mulohaza bildirilgan edi. Shu bois ushbu bobda ularni qayta izohlash o'rinsizdir. Tahlil jarayonida ilmiy atama va tushunchalardan foydalanamiz. Aytish joizki, tahlil qilingan har ikki otli birikma badiiy matnda ko'chimlar hosil bo'lishiga xizmat qilgan. Bu ko'chimlar esa metafora usulida yuzaga kelgan.

Otli birikmalarning E.Shukur she'riy asarlarida qo'llanilishini isbotlovchi dalillar anchagina. Quyidagi misollar otli birikmalarning qanday nutqiy variantlari yuzaga chiqqanligini ko'rsatadi:

2. Qayg'u chimildig'in gullatar sevinch,
Kuldan unib chiqar gulkapalaklar.

*Shoyi shafaqlar*ga o'ranar yurak,

Oyning nikoh to'yin boshlar malaklar. [62, 5]

1) *shoyi shafaqlar* birikmasi [I~O]=SB qolip varianti asosida hosil bo'lgan va matnda quyoshning botish manzarasi *shoyi* (adabiy tilda—*shohi*) so'zining metafora asosida ko'chishi orqali tasvirlangan obrazni keltirib chiqargan;

2) *oyning nikoh to'yin* birikmasi [TB~SB]=MSB qolip variantining hosilasi o'laroq, oyning nikoh to'yidagi qizga o'xshashligi yuzaga keltiradigan metafora qiyofasida tungi osmonda yulduzlar qurshovidagi oyning badiiy obrazini ifodalaydi.

3. Sen suvni tinglab ko'r, anglab ko'r suvni –

Gunzlarning tilida *muzlagan ovoz*... [62, 5]

Muzlagan ovoz birikmasi [I~O]=SB qolipi asosida yuzaga kelgan va matnda *muzlagan* sifatlovchisi harakatsiz suv ovozini anglatuvchi kuchli hissiy ta'sirga ega obrazli ifodani hosil qilgan.

Ko`rinadiki, ushbu matnlarda *shoyi shafaqlar, oyning nikoh to`yin, muzlagan ovoz*, birikmalari yorqin poetik obrazlarni shakllantirgan.

4. *Yam-yashil ohanglar, yam-yashil so`zlar*

*Moviy cheksizlik*da *yashil raqs* tuzar... [62, 5]

Matndagi *yam-yashil ohanglar, yam-yashil so`zlar, yashil raqs, moviy cheksizlik* birikmalari rang-tus sifatlarining mavhum o`tlar bilan birikishidan hosil bo`lgan [belgi-predmet] ma'noli otli birikmalarning muayyan poetik variantlari sifatida [I~O]=SB LSQining poetik nutqda cheksiz voqelanish imkoniyatiga egaligidan darak beradi. Faqat bugina emas. Dalillar *yashil* sifatining darajalanish xususiyati ham metafora asosida obrazli ifodalarni shakllantirish imkoniyatlarini ko`rsatadi. Ayni paytda, *yam-yashil* sifatiga xos qisman reduplikatsiya hosil qilgan intensiv shakl birikma orqali ifodalanayotgan predmetlar (ohang, so`z, raqs) haqidagi tasavvurni aniqlashtiribgina qolmay, ularning kishi ko`z o`ngidagi obrazi uzoq vaqt saqlanishiga ham ta'sir qiladi. Bu hissiy ta'sir muallifning *yam-yashil* va *yashil* sifatlarini ataylab takroran qo`llashi tufayli yuzaga kelgan. Qiyoslang: *Yam-yashil ohanglar, yam-yashil so`zlar...*

Tabiiyki, poetik nutqdan tashqarida ohang ham, so`z ham, hattoki, raqs ham ma'lum rang xususiyatiga ega emas. Bu oddiy nutq emas, balki obrazli nutq. Uning qonunlari sanab o`tilgan va boshqa shu kabi predmetlarning o`z tabiatiga zid rang, holat, o`lchov, shakl va boshqa sifatlar bilan gavdalanishini istisno etmaydi. Chunki poetik nutq muallif lisoniy olamining til vositalari tanlangan individual ko`rinishi. U obyektiv borliq, ijtimoiy munosabatlar va umuminsoniy g`oyalar in'ikosi yakka shaxs (ijodkor) ongida hosil qilgan obrazlardan iborat. Aynan individual obrazlar va ular shakllantiruvchi nutq ijodkor poetik sintaksisini boshqalardan ajratib turadi. Shunga ko`ra, *moviy cheksizlik* osmon obrazi, *yam-yashil ohanglar* bulutlar obrazi, *yam-yashil so`zlar* qushlar obrazi, *yashil raqs* hayot va uning abadiy harakati obrazlari sifatida E.Shukurga xos poetik

individuallikni ta'kidlaydi. Bunday individuallik esa shoir tanlagan so'zlar birikuvida, asosiysi, o'tli birikmalar shakllantirgan ko'chimlarda namoyon bo'ladi.

O'tli birikmalar metafora asosida rang-barang ko'chimlar hosil qilishini quyidagi misollar ham tasdiqlay oladi:

5. Osma ukollarning ostida yotgan

Daryolarni ko'rdim... *sariq daryolar...*[62, 6]

Sariq daryolar birikmasi [I~O]=SB LSQi hosilasi bo'lib, matnda bemor odam obrazini shakllantirgan.

6. *To'rt unsur go'zali parivash olov*

Qaylarga ketmoqda havoni kechib?

Tabassum tovushin, yig'i ziyosin

Suyak qadahlarda may kabi ichib... [62, 6]

1) *to'rt unsur go'zali parivash olov* [TB(MSB)~SB]=MSB qolipi asosida yuzaga kelgan murakkab so'z birikmasi bo'lib, falsafiy ongda olamning to'rt moddiy unsurlaridan biri hisoblangan olovning poetik qiyofasini tasvirlaydi;

2) *tabassum tovushi* [I^{q.k.}~I^{e.k.}]=SB LSQining poetik nutqda voqelanishi natijasida va unsiz quvonch obrazini metafora yordamida shakllantirgan o'tli birikmadir;

3) *yig'i ziyosin* birikmasi [O^{b.k.}~O^{e.k.}]=SB qolipi asosida hosil bo'lgan va qolip voqelashtiruvchi "jinsning muayyan turga xosligi" umumiy ma'nosini ziyoning ruhiy holat – yig'iga xos turini anglatuvchi obrazli ifodada xususiyashtirgan;

4) *suyak qadahlar* she'riy matnda odamning bosh chanog'i obrazini metafora asosida ifodalovchi va [I~O]=SB LSQi hosil qiluvchi [belgi-predmet] manoli o'tli birikmadir.

"Chanqovuz" she'ridagi o'tli birikmalar olamning shoir ongida aks etgan lisoniy manzarasida so'z birikmalariga xos poetik-sintaktik imkoniyatlarning voqelanishi haqida ma'lumot beradi. Masalan:

7. *Tilim* tiyildi *mening*, *so'zim* qiyildi *mening*,

Po'lat til topib oldim, *havo so'z* topib oldim...

Chanqagan *og`zim mening*, chagnagan *o`zim mening...* [62, 8]

Tilim mening, so`zim mening birikmalari [I^{q.k.}~I^{e.k.}]=SB LSQida umumlashuvchi lisoniy mohiyatni poetik nutq talabiga ko`ra, inversiya hodisasida moddiylashtirgan, shuning uchun she`r matnida *tilim* (tiyildi) *mening, so`zim* (qiyildi) *mening* birikmalaridagi hokim bo`lakning tobe bo`lakka distant bog`lanishi adabiy me`yordagi *mening tilim, mening so`zim* birikmalariga nisbatan hissiy ta`sirchanligi kuchli inversion ifodalarni hosil qilgan; shuningdek, *Chanqagan og`zim mening, chagnagan o`zim mening* misrasida [I^{q.k.}~I^{e.k.}]=SB LSQ hosilalari inversiya tufayli emotsional-ekspressivlik kasb etganligini ta`kidlash lozim.

Bundan tashqari, matnda aloqa vositasi – tilning mustahkamligi, parchalanmasligi, yemirilmasligi, xullas, chidamliligi metafora yordamida tasvirlangan *po`lat til* va til vositasi – so`zning yengilligi, ma`no yukidan xoliligini ifodalovchi *havo so`z* ham [I~O]=SB LSQi yuzaga keltiruvchi [belgi-predmet] manoli otl birikmalarning poetik variantlari sanaladi.

Bob bo`yicha xulosalar:

Ijodkor o`z lisoniy tafakkurida umumlashgan til bilish va amalda qo`llash qobiliyatlarini ijod mahsulida yuzaga chiqaradi. Badiiy asar ijodkor badiiy so`z mahorati, individual uslubi va, eng asosiysi, lisoniy tafakkur darajasi haqida ma`lumot beradi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon, Eshqobil Shukur va istalgan shoir yoki yozuvchining badiiy asarida ijodiy “men”i, ya`ni o`zligini poetik obrazlar gavdalandiradi.

Poetik sintaksisda otl birikmalarning obrazli ifodalarni shakllantirishi ilm ommasiga ayon haqiqat. Har bir ijodkor sintaksisida otl birikmalar obraz yaratish vositasiga aylanishini tasdiqlash uchun alohida tadqiqot olib borishni talab qiladi. Tadqiqotdagi kuzatishlar shuni ko`rsatdiki, Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon, Eshqobil Shukur she`riy asarlarida qo`llangan otl birikmalar ijodkor poetik sintaksisiga xos obrazlar silsilasini hosil qilishga xizmat qiladi va aksariyat hollarda muallif uslubini belgilovchi metaforalarni shakllantiradi.

Poetik nutqda otli birikmalarning uchala guruhiga mansub [belgi-predmet] ma'noli, [qaratuvchi-qaralmish] ma'nosini anglatuvchi va [tur-jins] ma'nosini ifodalovchi turlari badiiy tasvir va ifoda vositlarini hosil qila olishini ushbu bobdagi faktik material va uning tahlil natijalari tasdiqlaydi. Biroq poetik nutqda otli birikmalarning uchala guruhi ham baravar qo'llana olishi nazariy jihatdan e'tirof etilsa ham, amalda tasdiqlanmadi. Chunki uch xil ijod uslubi, uch turdagi poetik nutq, ya'ni uch shoir poetik sintaksisiga xos otli birikmalar turli-tuman nutqiy variantlarda, bir-birini takrorlamagan holda reallashgan bo'lsa-da, [belgi-predmet] manoli va [qaratuvchi-qaralmish] ma'noli otli birikmalar [tur-jins] ma'nosini ifodalovchi turiga nisbatan ko'proq qo'llanilishini ko'rsatdi. Uch turdagi poetik nutqda voqelashgan [belgi-predmet] ma'noli otli birikmalar [qaratuvchi-qaralmish] ma'noli otli birikmalarga qaraganda miqdoriy ustunlikka ega. Tadqiq manbayining qo'llanilish darajasini statistik metod asosida aniqlash vazifasi belgilanmagan. Shuning uchun ishdagi kuzatishlar natijasi bilan cheklanildi.

Qisqasi, otli birikmalar she'riy matnda tasvirlanayotgan shaxs, narsa, hodisa yoki ruhiy holatni obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Poetik nutqda badiiy tasvirni ifodalovchi metaforalar, aslida, $[I\sim O]=SB\ LSQi$, $[I^{q.k.}\sim I^{e.k.}]=SB\ LSQi$ va $[O^{b.k.}\sim O^{e.k.}]=SB$ qolipi voqelashtiruvchi otli birikmalarning rang-barang poetik variantlaridir. Shunday ekan, $[I\sim O]=SB\ LSQi$, $[I^{q.k.}\sim I^{e.k.}]=SB\ LSQi$ va $[O^{b.k.}\sim O^{e.k.}]=SB$ qolipining poetik nutqdagi variantlari otli birikmalarning poetik sintaktik imkoniyatlari kengligini ko'rsatish barobarida bu imkoniyatlarning tadqiqot materiali bilan cheklanib qolmasligini ham ta'kidlaydi. Zero, poetik nutq har qanday nutq kabi, lisoniy imkoniyatlar yuzaga chiqargan voqelik sifatida cheklangan bo'lsa, til birligi maqomidagi so'z birikmasi, jumladan, otli birikmalarning ham poetik sintaktik imkoniyatlari cheklanmagandir.

UMUMIY XULOSA

1. O`zbek tilida otli birikmalar deganda, aslida, hokim a`zosi ot leksemalari bilan ifodalangan so`z birikmalari tushuniladi. Hokim a`zoning ifodalanishiga ko`ra so`z birikmalarining turlari tasnifida otli birikmalar ismli birikmalar tarkibiga kiradi. Hokim a`zosi ot leksemalardan tuzilgan nutqiy hosilalar keng ma`noda ismli birikmalar, tor ma`noda esa otli birikmalar deyiladi.

2. Bevosita kuzatishda berilgan [belgi-predmet] ma`noli otli birikmalarning lisoniy sintaktik mohiyati [I~O]=SB LSQida, [qaratuvchi-qaralmish] ma`noli otli birikmalarning lisoniy sintaktik mohiyati [I^{q.k.}~I^{e.k.}]=SB LSQida va [tur-jins] ma`noli otli birikmalarning lisoniy sintaktik mohiyati [O^{b.k.}~O^{e.k.}]=SB qolipida umumlashtirilgan. Shuning uchun o`zbek tilida hokim a`zosi ot leksemalardan tuzilgan so`z birikmalari [I ~O]=SB LSQi, [I^{q.k.} ~I^{e.k.}]=SB LSQi va [O^{b.k.}~O^{e.k.}]=SB qolipi mahsuli sifatida mavjud.

3. O`zbek tilida hokim a`zosi ot leksemalardan tuzilgan so`z birikmalarining uch turi ajratiladi:

- a) [belgi-predmet] ma`nosini ifodalovchi otli birikmalar;
- b) [qaratuvchi-qaralmish] ma`nosini ifodalovchi otli birikmalar;
- d) [tur-jins] ma`nosini ifodalovchi otli birikmalar.

4. Badiiy uslub o`quvchi yoki tinglovchiga estetik ta`sir etishni maqsad qilib qo`yishi; badiiy tasvir vositalari va obraz yaratish imkoniyatlariga egaligi; unda barcha uslublarga xos elementlar aralash holda qo`llanilishi; til vositalaridan individual – ijodiy foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan adabiy tilning boshqa uslublaridan ajralib turadi.

5. Til badiiy nutqda obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi sifatida xizmat qiladi. Badiiy til obrazlilik bilan adabiy tilning boshqa ko`rinishlaridan farq qiladi. Badiiy til umumxalq tili bazasida shakllanadi, qisman adabiy til me`yorlariga yaqinlashsa, o`rni bilan adabiy til me`yorlaridan chekinadi ham.

6. Poetik tilning o`ziga xosligini belgilovchi eng muhim xususiyatlar obrazlilik va emotsionallikdir. Obraz badiiy so`z vositasida moddiylashadi, shu bois badiiy til obraz yaratish vositasi sanaladi. Badiiy nutq sochma (nasr) va tizma

(nazm) shakllarda mavjuddir. Nasriy nutq tuzilishi jihatidan kundalik muloqot tiliga o`xshash bo`lsa, she`riy nutq muayyan bir o`lchovga solingan, hissiy to`yintirilgan nutqdir.

7. Badiiy asarda narsa-hodisani jonli tasvirlash, qahramon his-tuyg`u va kechinmalarini yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalar “badiiy tasvir va ifoda vositalari” deyiladi. Badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat sanalmish obrazlilik va emotsionallikni kuchaytiruvchi unsurlardir.

8. Poetik nutqda tropning metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya singari ko`rinishlari bilan birga bo`yoqdorligi, ta`sirchanlik va ishlatilish darajasi bilan farqlanuvchi a) bir qismi allaqachon til hodisasiga aylanib ulgurgan ko`chimlar; b) an`anaviy tarzda ishlatilib kelayotgan ko`chimlar; d) muallifning assotsiativ fikrlashi mahsuli sifatida dunyoga kelgan “xususiy muallif ko`chmlari” alohida o`rin tutadi.

9. Ijodkor o`z lisoniy tafakkurida mujassam til bilish va amalda qo`llash qobiliyatlarini ijod mahsulida yuzaga chiqaradi. Badiiy asar ijodkor badiiy so`z mahorati, individual uslubi va, eng asosiysi, lisoniy tafakkur darajasi haqida ma`lumot beradi. Shu nuqtayi nazardan Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon, Eshqobil Shukur va istalgan shoir yoki yozuvchining badiiy asarida ijodiy “men”i, ya`ni o`zligini poetik obrazlar gavdalantiradi.

10. Kuzatishlar shuni ko`rsatdiki, A.Oripov, Sh.Rahmon, E.Shukur she`riy asarlaridagi otli birikmalar ijodkor poetik sintaksisiga xos obrazlar silsilasini hosil qilishga xizmat qiladi va aksariyat hollarda muallif uslubini belgilovchi metaforalarni shakllantiradi. Demak, poetik nutqda otli birikmalar obrazli ifodalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

11. Poetik nutqda otli birikmalarning uch guruhiga mansub [belgi-predmet] manoli, [qaratuvchi-qaralmish] ma`nosini anglatuvchi va [tur-jins] ma`nosini ifodalovchi turlari badiiy tasvir va ifoda vositalarini hosil qilishini III bobdagi tahlil natijalari tasdiqlaydi.

12. Poetik nutqda otli birikmalarning uchala guruhi baravar qo'llana olishi nazariy jihatdan e'tirof etilsa ham, amalda tasdiqlanmadi. Chunki uch shoir poetik sintaksisiga xos otli birikmalar turli-tuman, betakror variantlarda reallashgan bo'lsa-da, ikki guruhdagi, ya'ni [belgi-predmet] va [qaratuvchi-qaralmish] ma'noli otli birikmalar uchinchi – [tur-jins] ma'noli birikmalar guruhiga nisbatan ko'proq qo'llanilishi ma'lum bo'ldi. Tahlil qilganimiz uch turdagi poetik nutqda [belgi-predmet] ma'noli otli birikmalar [qaratuvchi-qaralmish] ma'noli turiga qaraganda miqdoriy ustunlikka ega.

13. Poetik nutqda shaxs, narsa, hodisa yoki ruhiy holatning badiiy tasvirini hosil qilgan metaforalar, aslida, $[I \sim O] = SB \text{ LSQ}_i$, $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = SB \text{ LSQ}_i$ va $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipi voqelashtiruvchi otli birikmalarning rang-barang poetik variantlaridir.

14. Otli birikmalarga xos poetik sintaktik imkoniyatlar keng va tadqiqot materiali bilan cheklanib qolmasligi shubhasizdir. Zero, poetik nutq har qanday nutq kabi, lisoniy imkoniyatlar yuzaga chiqargan voqelik sifatida cheklangan bo'lsa ham, til birligi maqomidagi so'z birikmasi, jumladan, otli birikmalarning poetik sintaktik imkoniyatlari cheklanmagandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

I. Ijtimoiy-metodologik adabiyotlar:

- 1.Каримов Ислом. Ўзбекистон XXI асрга интиломда. –Т.: Ўзбекистон, 1999.-48 б.
- 2.Каримов Ислом. Баркамол авлод орзуси. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000.-248 б.
3. Каримов Ислом. Юксак маънавият–енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008.-176 б.
4. Каримов Ислом. Адабиётга эътибор маънавиятга, келажакка эътибор. // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 2009 йил 3 июль.

II. Ilmiy risola, darslik va o`quv qo`llanmalari:

- 5.Абдуллаев Ф. Сўзлар ўзаро қандай боғланади? –Т.: Фан, 1974.-75 б.
- 6.Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. –Т.: Фан, 1995. - 278 б.
- 7.Абдурахмонов Ғ. Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Т.: Ўқитувчи, 1979.-208 б.
- 8.Баскаков Н.А., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. – Т.:Ўқитувчи, 1979.-192 б.
- 9.Засорина А.Н. Введение в структурную лингвистику. –М.: Высшая школа,1974.-319 с.
- 12.Кодухов В.И. Общее языкознание.–М.:Высшая школа,1974.-178 с.
- 13.Колшанский Г.В. Логика и структура языка. – М.: Высшая школа, 1965.-240 с.
- 14.Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. –Т.: Маънавият, 1999.-64 б.
- 15.Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. –Т.: Ўқитувчи, 1995. -232 б.
- 16.Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. –Т.: Ўқитувчи, 1978. -256 б.
17. Менглиев Б. Ўзбек тилининг структур синтаксиси. –Қарши: Насаф, 2003.- 152 б.

18. Менглиев Б., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Қарши: Насаф, 2005.-184 б.
19. Назарова С.А. Сўзларнинг бириктиш омиллари ва усуллари. –Т.: Фан, 2013. –Б.98.
20. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Т.:Ўқитувчи, 1993.-32 б.
21. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Т.: Ўқитувчи , 1995.-128 б.
22. Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Қурбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. –Т.: Университет, 1995.-55 б.
23. Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. – Т.:Фан, 1982.-100 б.
24. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология.–Т.:Шарқ , 2001.-164 б.
25. Расулов Р., Нарзиева М. Лексикологияни ўрганиш.-Т.: Ўқитувчи, 1992.-24 б.
26. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари.–Т.: Ўқитувчи, 1996.-48 б.
27. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек тилида кўшма гапларнинг формал-функционал талқини. –Т.:Фан,1994.-356 б.
28. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Voqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –Т.: "Fan va texnologiya", 2009.-414 б.
29. Солнцев В.М. Язык – как системно-структурное образование. –М: Наука, 1971.-294 с.
30. Усмонов С. Умумий тилшунослик. –Т.: Ўқитувчи, 1972.-208 б.
31. Шарипов М. Ҳозирги ўзбек тилида сўз бирикмаси синтаксиси масаласи. –Т.: Фан, 1978.-88 б.
32. Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талқинида. I жуз. – Андижон, 1994.-98 б.

- 33.Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1983. - 248 б.
- 34.Ўзбек тили грамматикаси. II том. –Т.:Фан, 1976.-560 б.
- 35.Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари.–Т.: Фан, 1982. -87 б.
- 36.Қурбонова М. Ҳозирги ўзбек тили (сода гап синтаксиси учун материаллар). –Т.:ЎЗМУ босмахонаси, 2002.-117 б.
- 37.Қўнғуров Р., Бегматов Е., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1992. - 160 б.
- 38.Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. –Т.: Фан, 1977. - 168 б.
- 39.Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1987.-256 б.

III. Lug`atlar:

40. Философский словарь. М.: «Иностран.литер.», 1991.

IV. Ilmiy maqolalar:

41. Абдуллаев Ф. Сўз бирикмалари синтаксиси айрим масалалари // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1969. №1. –Б.41-46.
- 42.Маҳмудов Н. Мустақил давлатнинг муқаддас тимсоли //“Ўзбек тили ва адабиёти ”, 2009.№5.–Б.3-9.
- 43.Назарова С. Сўз бирикмаларини формал-функционал таҳлил муаммолари // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2002. №6. –Б.55-57.
- 44.Назарова С. Бир лисоний-синтактик қурилиш қолипи хусусида // “Тил ва адабиёт таълими”, 2003.№4. –Б.40-42.
- 45.Назарова С. Изоҳловчили бирикмалар // Аюб Ғулом ва ўзбек тилшунослиги (илмий мақолалар тўплами). –Т.: ЎЗМУ босмахонаси, 2004.– Б.97-100.
- 46.Неъматов Ҳ. Тажалли тасаввуф билиш назарияси ва тилшуносликда синтаксисни ўрганиш масалалари // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1993.№2. –Б. 27-30.

47. Неъматов Х. Ўзбек тилшунослигида формал, структурал ва субстанциал йўналишлар хусусида // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2009. №4. – Б.35-41.

48. Нурмонов А. Тилни системали ўрганиш ва синтаксиснинг айрим мунозарали масалалари // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1998. №5. – Б.20-26.

49. Расулов Р. Сўз валентлиги ва синтактик алоқа // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1992. №5/6. – Б.36-40.

50. Қурбонова М. Шакл-вазифавий талқинда субстанциаллик омиллари // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1999. №1. – Б.42-45.

V. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari:

51. Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. Номзодл. диссер... автореф. –Т., 1994.- 22 б.

52. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серқирралиги ва уни таснифлаш асослари. Номзодл. диссер... автореф. –Т., 1994.-25 б.

53. Менглиев Б. Морфологик воситаларининг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари. Номзодл. диссер... автореф. –Т., 1996.-19 б.

54. Менглиев Б. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар. Докторл. диссер... автореф. –Т., 2002.-46 б.

55. Назарова С. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари. Номзодл. диссер... автореф.–Т., 1997.-21 б.

56. Нигматова Л. Ўзбек тилида привативлик (нофонологик сатҳлар) Номзодл. диссер... автореф. –Т., 2004.-15 б.

57. Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида. Номзодл. диссер...автореф. –Т., 1993.-24 б.

58. Қурбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини. Докторл. диссер... автореф. –Т., 2001.- 51 б.

VI. Badiiy adabiyotlar:

59. Орипов Абдулла. Йиллар армони. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 592 б.

60. Орипов, Абдулла. Менга хуш хабар айт. Шеърлар. –Т.: “Маънавият”, 2009.-128 б.

61. Раҳмон, Шавкат. Сайланма. –Т.: “Шарқ”, 1997.-384 б.

62. Шукур, Эшқобил. Ҳамал айвони. Шеърлар. –Т.: “Шарқ”, 2002.-320 б.